



ИЮНЬ-ИЮЛЬ 2021

Тошкент, Ўзбекистон

ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР:
ФИЛОЛОГИЯ ВА ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ

МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ

ХАЛҚАРО | ИЛМИЙ-АМАЛИЙ | МАСОФАВИЙ | КОНФЕРЕНЦИЯ
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ



**«ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ
ТЕХНОЛОГИЯЛАР: ФИЛОЛОГИЯ ВА
ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ
ОМИЛЛАРИ»**

**«ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В
СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ:
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ФАКТОРЫ
РАЗВИТИЯ В ФИЛОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ»**

**«DIGITAL TECHNOLOGIES IN MODERN
EDUCATION: CURRENT TRENDS AND
DEVELOPMENT FACTORS IN PHILOLOGY AND
PEDAGOGY»**



Замонавий таълимда рақамли технологиялар: Филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омиллари [Тошкент; 2021] 1 июнь/июль 2021 йил. -Тошкент: Tadqiqot, 2021. - 168 б

Ушбу тўплам замонавий таълимда рақамли технологиялар: Филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омилларига бағишланган тезисларни қамраб олган.

УЎК 37.018.43:004(062)

DOI 10.26739/conf_4/06/2021

Ушбу тўпламнинг электрон шакли қуйидаги сайтларда

<https://tadqiqot.uz/conf/>

www.conferences.uz

Тахририят кенгаши

- 1.Абдуллаева Барно Сайфутдиновна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети проректори, п.ф.д., профессор
- 2.Шахобиддин Саидович Ашурув Самарқанд давлат чет тиллари институти проректори, ф.ф.н., доцент
- 3.Джуроев Рисбой Хайдарович Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети академиги, п.ф.д.
- 4.Асқаров Ахмадали – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети академиги, т.ф.д.
- 5.Ли Ю Ми – (Жанубий Корея) Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети PhD
- 6.Лутфуллаев Махмуд Ҳасанович – Самарқанд давлат чет тиллари институти профессори, п.ф.д.
- 7.Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
- 8.Насруллаева Нафиса Зафаровна – Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
- 9.Кисилев Дмитрий Анатольевич – Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
- 10.Сувонова Нигорабону Низамиддиновна – Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.н.
- 11.Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – Самарқанд давлат чет тиллари институти профессори, фалс.ф.д.
12. Муслимов Нарзулла Алиханович – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
- 13.Халиков Аъзам Абдусаломович – педагогика Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
- 14.Уразова Марина Багировна – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
- 15.Мирсолиева Мухаббат Тухтасиновна – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.д.
- 16.Мамадалиев Абдумажид – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
- 17.Садиқова Альбина Венеровна – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
- 18.Авазов Шериммат – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.н.
- 19.Мамаражабова Зулфия Нарбаевна – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.н.
- 20.Адилова Саодат Хусановна – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
- 21.Расулов Анвар Баходирович – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети бўлим бошлиғи, PhD
- 22.Абдазимов Азиз Абдусобирович – Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети бўлим бошлиғи,
- 23.Рахимова Гулсанам Аширбековна – Ўзбекистон Миллий Университети Хорижий Филология факультети Табиий йуналишлар бўйича чет тиллар кафедраси мудири

Тўпламга киритилган тезислардаги таълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тугрилигига муаллифлар масъулдир

©Муаллифлар жамоаси

©Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций журналлов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улицв Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr. 1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Yusupjonova Navbahor, Adilova Muqaddas, Oygul Mirzaboyeva DARS JARAYONIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	7
Ahmedova Manzura Sattarovna UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNI O'QITISH	9
Asadova Dilbarxon Fayzulloevna TURK DIPLOMATIYASI VA DIPLOMATIK TERMINLARNING YUZAGA KELISHI TARIXI	11
Ashrapova Nigora Olimovna TANGLIK VAZIYATIDA QOLGAN O'SMIR YOSHLARGA PSIXOLOGIK YORDAM.....	14
Avganova Ozoda THE IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF FURKAT	16
Azatova Nodira Anvarbek qizi TARJIMANING MADANIY XUSUSIYATLARI BORASIDAGI LINGVISTIK QARASHLAR.....	18
Xolmanova Shoxsanam, Suvonova N. N BADIY MATNLARDA EMOTSIYANI TASVIRLASH VOSITALARI(FRANSUZ VA O'ZBEK TILI MATERIALIDA).....	20
Kurbanova Feruza Choriyevna BANK SOHASIDA BLOKCHEYN.....	22
Erkaboyev Abrorjon Xabibullo o'g'li, Rajabov Xursandbek Qadamboy o'g'li, Karimov Abdullatif Azizbek o'g'li O'LCHASH VOSITALARINING DASTURIY TA'MINOT METODIKASI.....	24
Eshmurodov Azamat G'uzorovich, Raxmatov Anvar Raxmatovich OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALAR FANINI O'QITISH UCHUN MASOFAVIY TA'LIMNI AMALGA OSHIRISH	26
Alfiya Akhmadfaridovna Lutfullina ETHNOCULTURAL AND HISTORICAL PROCESSES IN THE FORMATION OF PROPER NAMES IN THE UZBEK LANGUAGE SYSTEM.....	28
Hikmatullo Do'smatov, Mahmudova Fotimaxon, Mahmudova Zulayho O'ZLASHMA LEKSEMALARINING NUTQIY CHEGARASI	30
Ibragimova Maftuna Abdulazizovna MAHALLA VA UNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI.....	32
Iskenderova Gulnar Sarsenbaevna, Mukhanova Laylo Bekmuratovna PHRASEOLOGY: WORD-GROUPS WITH TRANSFERRED MEANINGS	34
Kamolov Jasurbek Muxsinovich "TA'VIZ-UL OSHIQIN" DEVONI RUBOIYLARINING MAVZULAR KO'LAMI	36
Karimova Xilola Turg'unovna SAVOD O'RGATISH MASHQLARINING ASOSIY TURLARI.....	38
Kilicheva Raxatay Kuziyevna ALISHER NAVOIY IJODINING O'RGANISHNING AHAMIYATI	40
Lafasova Mavjuda To'lqin qizi OMONIMIYA-SHAKLIY PARADIGMA ASOSIDAGI HODISA.....	42
Makarova Ayzada GRAMMATIKANI O'QITISHNING AHAMIYATI VA UNING ONA TILI O'QITISHDA TUTGAN O'RNI.....	44
Mamatova Zilolaxon Xabibulloxonovna ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: INGLIZ TILINI O'QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB DARSLARNI TASHKILLASH.....	46
Mamayusupova Maftuna "VATANNI MADHINI KUYLAGAN SHOIR"-ABDULLA ORIPOV HAYOTI VA IJOD YO'LI.....	48
Muxamadiyeva Nodira AMERIKA VA BRITANIYA INGLIZ TILIDA FRASEOLOGIK BIRLIKLARNING QIYOSLANISHI	50
Otaxanov Adxam Xaydarali o'g'li O'RTA MAKTABLARDA INGLIZ TIL TA'LIMIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSI- YALARNI O'QITISHNING METODOLOGIK TAVSIFI.....	52
Ozoda Avganova	

FURQATNING ILMIY MEROSI VA UNING AHAMIYATI	54
Rahmatova Nargiza Dolibayevna TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	56
Raxmonberdiyeva Surayyo Mirg'aniyevna MUSIQA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MUSIQIY-NAZARIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI.....	58
Saidkhujaeva Nafisa, Khojiev Aliakbar, Khikmatov Muxammad-Ali AN INTERACTIVE METHOD IN THE STUDY OF THE TOPIC "RESEARCH OF FIRE EXTINGUISHING EQUIPMENT".....	60
Saodat Agzamkhodjaeva Abrarovna COMPUTER LINGUISTICS AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE WHAT IS INNOVATION IN EDUCATION?.....	62
Sevinch Saydullaeva Sharofovna, Saodat Agzamkhodjaeva Abrarovna THE PROBLEMS OF IMPROVING THE QUALITY AND EFFECTIVENESS OF ENGLISH LANGUAGE TEACHING IN SECONDARY SCHOOLS.....	64
Tleumuratova Abadan Bekbanovna DER KONJUNKTIV DER BERICHTETEN REDE IM DEUTSCHEN.....	66
Tolmasov Shahriyor Hasan o'g'li CHO'LPONNING "YORQINOY" DRAMASI HAQIDA.....	68
Turaboyeva Sitora Zokir qizi SEMANTIC ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH THE COMPONENTS OF ANIMALS.....	70
Турсуналиева Муслимабону Абдувосит қизи ОҒАҲИЙНИНГ "ЮСУФ ВА ЗУЛАЙХО" ДОСТОНИНИНГ МАСНАВИЙ ТАРЖИМАСИ.....	72
Хайталиева Шахруза Шерали қизи ABDULLA O'RIPOV SHE'RIYATINING LINGVOPOETIK TAMLILI.....	74
Хо'jamqulov Javlonbek Baxtiyor o'g'li ABDULLA O'RIPOV MILLAT G'URURI.....	78
Zulfizar Mamadaliyeva MEDIA URUSHMI YOKI G'OYA?.....	80
Абдуллаева ГулчехраМерджалиловна ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ И СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКУ.....	82
Азизов Маъруфхўжа Аҳматхонович SPORT TURIZIMI JARAYONIDA EKOLOGIK MADANIYATNING MONIYATI.....	84
Азизов Солижон Ўчмас ўғли BLENDED TA'LIM MUҲITIДА РАҚАМЛИ ЎҚУВ ДАСТУРЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА СИФАТ ВА МАЗМУН КАТЕГОРИЯЛАРИ.....	86
Ғойипов Азизбек Раҳматилла ўғли, Мансурова Юлдузхон Маҳамат қизи КОШИФИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ ТАРБИЯВИЙАҲАМИЯТИ.....	89
Жуманазарова Дилноза Умирзоқовна, Давлатова Ҳақима Бабайдавлатовна ЖИЗЗАХ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ ЧИЛЛА БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТЛАРИ.....	91
Зиёда Турдибоева СЎНА АСАРИ ТАҲЛИЛИ.....	93
Мадалиева Хонзода Абдувоҳидовна ЎЗБЕКИСТОНДА ЯНГИ УЙҒОНИШ ДАВРИНИ БУНЁД ЭТИШ.....	95
Маджидова Раъно Уришевна	97
АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИЕ ПОСЛОВИЦЫ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ИЗУЧЕНИЯ.....	97
Наширова Дилноза, Фармонов Баходир ТАЪЛИМДА ОҒЗАКИ НУТҚ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРУВЧИ ОМИЛЛАР.....	100
Нишанова Гуллола Файзуллаевна ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ КОНЦЕПТОВ В КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ.....	103
Рахматов Бекзод ЛЕКСИКОГРАФИЯ ТАРАҚҚИЁТИ МАСАЛАЛАРИ ХУСУСИДА.....	105
Холматова Шохид Тафиқовна ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯ: ОБРАЗОВАНИЯ, ТИПЫ И ЯВЛЕНИЯ.....	107

Хушева Дурдона Учқуновна ПОЗНАВАТЕЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СТУДЕНТОВ НА ЗАНЯТИЯХ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ	110
Хушева Дурдона Учқуновна СЛОВООБРАЗОВАНИЯ МОДИФИКАЦИОННОГО ТИПА В РОМАНАХ Ф.М.ДОСТОЕВСКОГО	112
Шухратжон Шакиров, Фаррух Садритдинов ПРОФИЛАКТИКА ПРАВОНАРУШЕНИЙ И УКРЕПЛЕНИЕ ВОИНСКОЙ ДИСЦИПЛИНЫ ПОСРЕДСТВОМ ТРАДИЦИЙ И РИТУАЛОВ	114
Зияев К.З., Абдимуродов Ш.С. СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА ЛЕГКОВЫХ АВТОМОБИЛЕЙ В ГОРОДСКИХ УСЛОВИЯХ С ПРИМЕНЕНИЕМ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	116
Зияев К.З., Абдимуродов Ш.С. ШАҲАРДАГИ ҲАРАКАТ ШАРОИТИДА ЕНГИЛ АВТОМОБИЛЛАРНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ УСЛУБИНИНГ МАТЕМАТИК ЖИХАТДАН ТАҲЛИЛИ	123
Кошназаров Р.А., Эштемиров Ж.Ж ТАЛАБАЛАРНИНГ ХОСИЛАГА ОИД БИЛИМЛАРИ РИВОЖИНИНГ ИКТИСОДДАГИ РОЛИ	127
Кошназаров Р.А., Халимова Ф.А ТАЛАБАЛАРНИНГ ХОСИЛАГА ОИД БИЛИМЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРУВЧИ МАСАЛАЛАР	129
Нишанова Гуллола Файзуллаевна ПРИКЛАДНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ	132
Шералиева Нодирахон Абдувоҳидовна, Уктамова Насибохон Нодиржон кизи, РАЗГРАНИЧЕНИЕ ДИСКУРСА И ТЕКСТА С ПОЗИЦИЙ ИНТЕГРАЦИОННОГО ПОДХОДА	135
R.Davletov AURORA 3D TAQDIMOT YARATISH DASTURI	137
Dilobar Mamarajab qizi Egamberdiyeva ERONDAGI OAV TILIDA OG‘ZAKI NUTQNING AKS ETTIRILISHI	139
Nazilov.D.A, Erkinova D.A FORMATION OF INTERIOR DESIGN OF EARLY MEDIEVAL MOSQUES IN UZBEKISTAN	142
Abdiganiyeva Nadira THE INNOVATIVE WAYS OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES	144
Nurmuhamedova Iroda ANTUAN DE SENT EGZUPERINING “KICHKINA SHANZODA” NOMLI ASARINING EKRANDAGI TALQINI	146
Давлетов Расулбек БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ИННОВАЦИОН ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИГА ТАТБИҚИ	148
Муратова Дилолром Махмудовна ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ ТУРИЗМ ЛЕКСИКАСИНинГ ШАКЛЛАНИШИГА ИЛМИЙ НАЗАР	151
Муратова Дилолром Махмудовна ЎЗБЕК ТУРИЗМНИНГ НОЛИСОНИЙ РИВОЖЛАНИШИ	153
Tadqiqotchi Sayitqulova Z. X “PRIDE AND PREJUDICE” ASARIDA DO‘STLIK MUNOSABATLARI	155
Муйдинова Нигора Усмонжоновна ИЗУЧЕНИЕ ОБЩИХ ПРИНЦИПОВ ОНОМАСТИКИ В АНГЛИЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ	158
М.Худойкулова XX АСРНИНГ 30-ЙИЛЛАРИ АДАБИЙ ТАНҚИДЧИЛИГИДА БАҲС ЖАНРИНИНГ ЎРНИ	161
Мардонова Мохидил Отабек қизи КЎЧМАС МУЛК БОЗОРИНИНГ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ	164
Мардонова Мохидил Отабек қизи КЎЧМАС МУЛК БОЗОРИНИНГ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ	166



DARS JARAYONIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Yusupjonova Navbahor

Farg'ona shahar 30 maktab biologiya o'qituvchisi

Adilova Muqaddas

Farg'ona shahar, 30- o'rta ta'lim
maktabi kimyo fani o'qituvchisi

Oygul Mirzaboyeva

Farg'ona shahar, 30- o'rta ta'lim
maktabi kimyo fani o'qituvchisi

Mavzuning annotatsiyasi: O'quvchilarni mustaqil ishlashi uchun sharoit yaratish, predmetga qiziqtirish, turmushda bo'ladigan hodisalarni chuqur anglatishni maktabda olingan bilimlar yordamida amalga oshirish-zamonaviy o'qituvchining vazifasi. O'qitishda ham o'quvchilarni mustaqil ishlashga, atrofda xodisalarni talqin etishda bilimlarni qo'llay olishga qaratmog'imiz lozim.

Kalit so'zlar: "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Sinkveyn", "B,B,B usuli "Menga oxirgi so'zni bering", "Test sinovi"

Fanni o'qitishda ayniqsa guruhlariga bo'lib, mustaqil topshiriqlarni bajarish yaxshi natijalarga olib keladi. O'quvchilar mustaqil fikrlashadi, ijodiy ishlashga xarakat qilinadi, past bilimli o'quvchilar ham "yaxshi" o'quvchilar qatoriga intilishadi va bu holat sinf ko'rsatkichlarini ko'taradi.

Turli individual, juft bo'lib mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilar bilimi chuqurlashadi, malakalar hosil bo'ladi- bu maqsadga muvofiqdir. Kitob bilan mustaqil ishlashni ko'proq amalga oshirish kerak, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishni yo'lga qo'yamiz, krossvordlar, viktorinalar tuzish. Darsdan tashqari ishlarga, ekskursiyalarga, KVN larga, kechalar o'tkazishni yo'lga qo'ysak yanada yaxshi, o'quvchilar kelgusida qaysi soxani egallamasin bilimlarni puxta bilsa, yetuk inson deya olamiz.

Har bir dars ta'lim mazmunini joriy etilishini ta'minlovchi barcha turdagi o'qitish texnologiyalarini o'zida mujassamlashuvini taqazo etadi.

Dars o'qitish jarayonini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi o'ziga xos tashkiliy jihatni ifodalaydi va o'qitishni tegishli usullaridan foydalanishni talab etadi.

Zamonaviy dars — ma'lum yoshdagi bilim va malaka darajalari yaqin bo'lgan o'quvchilar guruhining o'quv-bilish faoliyatlarini faol va rejali bo'lishini ta'minlovchi tashkiliy jarayon xisoblanadi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarning juda ko'p usullari mavjud. Bu usullardan o'quvchining yosh, psixologik xususiyati, bilim darajasiga qarab foydalanish mumkin. 7-9 sinflarda "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Sinkveyn", "B,B,B usuli "Menga oxirgi so'zni bering", "Test sinovi" usullaridan foydalanish yuqori samara beradi.

Ta'limida ilg'or pedagogik texnologiyadan foydalanish borasida bir necha misollarni keltirish mumkin:

O'quvchilarni qiziqishini oshirish va mavzu yuzasidan olgan bilimlarini tekshirish va mustaxkamlash maqsadida oldindan tayyorlab qo'yilgan Bingo varaqachalaridan tarqatiladi.

7-9 sinf darsliklaridan ijodiy foydalanish va unga qo'shimcha ravishda turli gazeta, jurnal, qo'shimcha adabiyotlar, lug'atlar, internet resurslaridan hamda elektron darsliklar va o'quv filmlarida unumli foydalanishga o'rgatish lozim.

"Kim chaqqon" o'yini orqali tuzlarni toifalanishi yodga olinadi. Bunda o'quvchilarga tuz formulalari yozilgan yelimli qog'oz tarqatiladi, o'quvchilar jadvaldagi tuz toifalariga mos tuzni yopishtirib qo'yishadi. Eng to'g'ri va tez bajargan guruh rag'batlantiriladi.

Shuningdek, darslikdagi mavzularni kundalik xayotga bog'lab tushuntirish, ilg'or o'qitish metodlaridan, vositalardan unumli foydalangan holda muammoli, munozarali vaziyatlar tashkil etish texnologiyalar turlarida foydalanish tavsiya etiladi.

"Zukkolar bahsi" o'tilgan mavzular yuzasidan berilgan formulalarning nomlarini topishdan iborat. Sharti: kislotalar formulalarining nomini aniqlash

Darsini samaradorligi — uning serqirraligi, keng qamrovli mazmun va shakliga ko'ra turli xilda namoyon bo'lib, moxiyatiga ko'ra darsning asosiy mazmunini o'zlashtirishni o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishga yo'naltirilganligiga bog'liq.

Bulardan tashqari qo'yidagi dars usullari ham mavjud: erkin yozish; semantik xususiyatlar taxlili; bir-biridan so'rash; "Zig-zag" strategiyasi; "To'xtab-to'xtab" o'qish strategiyasi; "Insert" strategiyasi; "Kubik" strategiyasi. Bunday darslar o'quvchilarda o'qish, bilim olishga bo'lgan



qiziqishlarni uygʻotadi, mustaqil ijodiy izlanishlarini rivojlantiradi, mustaqil ravishda erkin fikrlashlarini kuchaytiradi. Eng muximi dars bu oʻquvchiga rivojlantiruvchi taʼlim berishdan iborat. Bunday darsni zamonaviy dars deb xisoblash mumkin. Zamonaviy darslarda barcha oʻquvchi faol qatnashadi.

Darsni oʻquvchilarning oʻzlari olib boradi, oʻrganadi. Oʻqituvchi dars jarayonini, ishtirokchisi, boshqaruvchisi vazifasini bajaradi. Dars samarasi va natijasini oʻquvchilarning oʻzlari baxolaydilar. Oʻqituvchi esa nazoratchi va boshqaruvchilik vazifasini bajaradi. Ana shunga asoslanib darsning borishida uning qaysi elementlari oʻqituvchi tomonidan, qaysi bir elementlarini oʻquvchilarning oʻzlari mustaqil holda bajarishlari aniq koʻrsatiladi.

Natijada darsda oʻquvchining mavjud imkoniyatlari shakllanadi. Bunday oʻquvchi oʻzidagi imkoniyatlarni amaliyotda qoʻllay boshlaydi.

Erkin holda tashkil etilgan ijodiy dars, oʻquvchi uchun qiziqarli boʻlib, unga quvonch keltiradi. Oʻqituvchi tomonidan kutilmaganda oʻquvchiga savollar beriladi. Bu savollar nafaqat kimyoga oid, balki, adabiyot, sport, musiqa, texnika, atrof muhit, tabiatga tegishli boʻlgan savollar oʻquvchilarning fikrlash qobiliyatlarini, aqliy qobiliyatini, ilmiy quvvatini, isteʼdodini rivojlantiradi.

Darslarni tashkil etishda 45 minutlik darsda oʻqituvchi uy vazifalarini tekshirishi, oʻtilgan mavzuni soʻrashi, oʻtilgan mavzu boʻyicha masalalar yechish, oʻlchash yoki tajriba ishlarini bajarish, yangi mavzuni bayon etish, yangi mavzuni mustahkamlash, uyga vazifa berish ishlari oʻtkazilishi kerak. Ayrim oʻqituvchilar avval uy vazifalarni tekshirib chiqadilar, keyin oʻtilgan mavzu boʻyicha 3–4 nafar oʻquvchidan soʻraydi, soʻngra bir nechta oʻquvchiga oʻlchash yoki tajriba oʻtkazish ishini topshiradi, shundan keyin yangi mavzuni oʻtadi. Dars beradigan oʻqituvchi oʻtilgan mavzu boʻyicha tayyorgarlik darajasini tekshirilishiga barcha oʻquvchilarni jalb qiladi. Bunda oʻqituvchi oʻtilgan mavzu boʻyicha qisqa savol-javob, test sinovi, diktant, kartochkalar bilan ishlash, turli interfaol metodlardan foydalanadi. Bir nechta oʻquvchiga masala yechish, oʻlchash, tajriba ishlari va boshqa topshiriqlar berilib, parta oralab uy vazifalarini tekshiradi. Tajribali oʻqituvchi yangi mavzuni oʻtiishga ham, uni mustahkamlashga ham, uy vazifasini berishga ham, 5–6 nafar oʻquvchini ham baholashga ulguradi.

Masalan oʻquvchining partadoshiga misolni yechishni tushuntirishi, javobni tinglashi, savollar berishi, doska yonida turib ishlagan misolini yoki kuzatgan hodisasini tushuntirib berish. Mazkur kompetentsiyani shakllantirishda kichik guruhlarda ishlash usuli yuqori samara beradi. Buning uchun ularni 6-sinf dan asta-sekinlik bilan dastlab yonma-yon oʻtirgan ikki oʻquvchidan, soʻngra ikki partani bir-biriga qaratib qoʻyib toʻrtta oʻquvchidan iborat holda guruhlarga ajratiladi. Bunda har oʻquvchi butun guruhning muaffaqiyati, har birining muaffaqiyati bilan bogʻliq ekanligini anglab yetishi kerak.

Axborot bilan ishlash kompetentsiyasi deyilganda oʻquvchining mustaqil ravishda turli manbalar bilan ishlashi, ulardan kerakli axborotni topa olishi, saqlashi va boshqalarga taqdim eta olishi tushuniladi.

Oʻquvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oʻstirishda talab etuvchi ilgʻor pedagogik texnologiyalar oʻz navbatida kimyo taʼlim mazmunini zamonaviylashtirish, yaʼni, kursni ilmiy darajasini, fan va texnikaning zamonaviy yutuqlari darajasiga muvofiqlashtirishni talab etadi.

Demak, ilgʻor pedogogik texnologiyalar oʻz oʻrnida kimyo taʼlim mazmunining ilmiyligini oshirishga imkon yaratdi. Ilmiylik — taʼlim mazmunini uzviyligi bilan bevosita aloqadordir. Har ikki jihat taʼlim samaradorligini taʼminlashiga asos boʻladi.

Eng muhimi mazkur oʻrganilgan bilim va koʻnikmalarda hayotiy ehtiyojlarida foydalana bilishlariga muhim ahamiyat qaratiladi. Bu birmuncha murakkab boʻlib muttasil shugʻullanishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Aʼzamov. A.Yusupov.- Oʻquvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish. Toshkent-2002.
2. H.Mavlonov. N.Uluqov. F.Boynazarov. –Pedagogik texnologiya asoslari. Falsafa va huquq instituti nashriyoti. Toshkent-2007.
3. J.Gʻ.Yuldashev.- Pedagogik texnologiya asoslari. 2007 yil
4. N.Sirojev. – Taʼlim –tarbiya jarayonida zamonaviy yangi pedagogik texnologiya usullari. Samarqand-2007.
- 5 A.Aʼzamov. A.Yusupov.- Oʻquvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish. Toshkent-2002.
6. www. nambiolg.zn.uz
7. www. google.ru



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNI O'QITISH

Ahmedova Manzura Sattarovna

Namangan viloyati Norin tumani

19-maktab Informatika fani o'qituvchisi

902759235. ahmedovamanzura@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu keltirilgan fikr-mulohazalar bugungi o'rganilayotgan ilmlarimizni yanada boyitib borish, yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini keng ko'lamda targ'ib qilish, ularda o'zini o'zi kashf qilish jarayonlarining yuzaga kelishiga ilmiy-amaliy ko'mak berish va bu ko'nikmalarni keng ommaga yoyish shu asnoda yangidan yangi ko'plab ixtidorlarni aniqlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlarniamalga oshirishni ko'zda tutadi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy turtki, ahamiyat, ommaviy madaniyat, mativatsion va innovatsion ruh, virtual axborot, g'oyaviy xuruj, axborot uzatish sohalari.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib, kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.»

Shavkat Mirziyoev

Bugungi jadal rivojlanib borayotgan davrda ilm-fan taraqqiyoti sohalarida juda ulkan ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ayniqsa, Axborot asri ya'ni XXI asr axborot globallashuv jarayonlarining yuzaga kelishida bu sohalar birlamchi asos vazifasini bajaryotganligi, ilm-fan yutuqlarining yanada keng tus olishiga zamin yaratib bermoqda. Jumladan, bu sohalarga yetuk va malakali mutaxassislarni aynan pedagogika sohasida yuqori saviyaga ega bo'lgan pedagoglarga yetkazib berishi mumkin. Shu umumiy haqiqatga tayanib ayta olamizki, davlatimizdagi barchasohalarni rivojlantirishda yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun, avvalo, pedagogika tarmoqlari samaradorligini oshirish va qator innavatsion loyihalarni jalb qilib, ayrim uchrayotgan eskilik sarqitlaridan vos kechib o'qitish jarayonlarini yuqori pozitsiyada o'tishini taminlash hamda shunga doir barcha chora tadbirlarni ko'rish bugungi raqobatli davrning eng ustuvor talablaridan hisoblanadi.

Informatika fanini o'qitish qo'yidagi maqsadni ko'zda tutadi:

- bo'lajak o'qituvchilarni informatika fanini ijodiy o'qitish va o'zlarining amaliy faoliyatlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish;
- bo'lajak o'qituvchilarni informatika sohasi bo'yicha turli-tuman shakldagi sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishga tayyorlash;
- bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim sohasini axborotlashtirishning yo'llari va ulkan istiqbollari haqidagi tasavvurlarini rivojlashtirish hamda chuqurlashtirish.

Bo'lajak informatika o'qituvchisi o'sib kelayotgan avlodning umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o'qitiladigan «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari», «Informatika» va «Axborot texnologiyalari» fanlarining ahamiyatini, ularning mazmunini ajratish tamoyillarini, shuningdek, ularning boshqa fanlar bilan aloqadorligini tushunishi zarur.

«Informatika o'qitish metodikasi» fani bo'yicha talabalar quyidagi bilimlar bilan qurollangan bo'lishi zarur:

1. informatika va axborot texnologiyalari haqida tushunchalar;
 2. informatika va axborot texnologiyalarining har bir inson hayotidagi va jamiyatning rivojida roli;
 3. informatikaning texnik va dasturiy vositalarining mohiyati va didaktik imkoniyatlari;
 4. yangi pedagogik va axborot texnologiyalari va ularning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llash.
- Bo'lajak informatika o'qituvchisi yangi axborot texnologiyasini, zamonaviy pedagogic dasturiy vositalarni chuqur o'rgangan, shuningdek, jamiyatni, ta'limni axborotlashtirayotgan sharoitda ishlash uslublarini egallagan bo'lishi lozim.

Informatika o'quv predmyeti sifatida informatika fani va uning rivoji bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun «Informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish nazariyasi va metodikasi» fani bir-



inchi navbatda informatika fanining metodologiyasiga asoslanadi. O‘zining xulosalarida u ta’lim va tarbiyaning umumiy tamoyillariga tayanadi. Ma’lumki, ushbu tamoyillar pyedagogika va didaktika tomonidan ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, «Informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitish nazariyasi va metodikasi» fani fiziologiya va psixologiya fanlari tomonidan qabul kilingan qonuniyatlardan ham bevosita foydalanadi.

Xulosa qilib aytganda ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lgan informatikaning fan sifatida o‘ziga xosligi, uning zamonaviy fanlar tizimida tutgan o‘rni va ahamiyatidan, hozirgi jamiyat hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holada rivojlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi I.Isoqov, S.I.Qulmamatov Informatikani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan maruzalar matni. Guliston – 2014
2. “Informatika darslarida o‘zlashtirish samaradorligini oshirish” U.Asranva. Toshkent -2014
3. www.ziyonet.uz
4. www.kutubxonauz.



TURK DIPLOMATIYASI VA DIPLOMATIK TERMINLARNING YUZAGA KELISHI TARIXI

Asadova Dilbarxon Fayzulloyevna
TDSHU Turkiy xalqlar tarixi, madaniyati,
siyosati va iqtisodiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Turk diplomatiyasining kelib chiqishi va diplomatik terminlarning paydo bo'lish tarixini o'rganib chiqar ekanmiz, uning asosiy davri Usmoniylar davriga borib taqalishiga guvoh bo'lamiz. Usmoniylar davlati XV asr o'rtalaridan boshlab kuchayib boradi. Shu bilan birga davlat bunga uyg'un tarzda diplomatiyani ham birga rivojlantiradi. XVI asrdan e'tiboran davlatning amalga oshirgan mustahkam diplomatik prinsipi "hech bir yevropalik xristian davlati shartlarini majburan qabul qilmaslik va ular bilan doimiy sulhda bo'lmaslik" edi. Yani, Usmoniylar davlati hech bir davlatni o'zi bilan teng shartlarda qabul qilmas edi va ushbu tushunchani diplomatik prinsip sifatida qabul qilgan edi. Usmoniylar diplomatiyasida ishlatilgan diplomatik terminlardan biri Ahitnâme-i hümayun hisoblanadi. Ahitnâme-i hümayun Usmoniylarning klassik davrida xorijiy davlatlar bilan tuzilgan bitimlar, shuningdek, bu davlatlarga berilgan imtiyozlar uchun ishlatilgan termindir.

Kalit so'zlar: Usmoniylar davlati diplomatiyasi, turk diplomatiyasining kelib chiqishi tarixi, Usmoniylar davlatining diplomatik prinsiplari, diplomatik termin, "Ahitnâme-i hümayun", temesuk qog'ozlari, rasmiy hujjatlar, hukmdorlarining muhri.

Usmoniylar davlati tarixning eng katta imperiyasini tuzgan va uzoq yillar davomida yashab kelgan davlat sifatida madaniyat sahifalarida o'z aksini topadi. Usmoniylar davlati bunday katta davlatni asrlar davomida saqlab qolish uchun o'ziga xos sistemalar yaratgan. Bulardan biri diplomatiya tushunchasi bo'lib, Usmoniylar diplomatiyasining rivojlanish jarayoni davlat taraqqiyoti jarayoni bilan parallel hisoblanadi. Shu sababli ham Usmoniylar davlatining xorijiy davlatlarga nisbatan kuchli va ta'sir o'tkazuvchi muzokara pozitsiyasiga ega bo'lgan davrlarda diplomatiya tushunchasi ham kuchliroq bo'lgan¹. Bu jihatdan taraqqiyot yillarida yetarlicha mutanosiblikda tashqi siyosatni olib borgan Usmoniylar davlati XV asr o'rtalaridan boshlab kuchayib bordi. Shu bilan birga davlat bunga uyg'un tarzda diplomatiyani ham birga rivojlantirdi. Bundan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, XVI asrdan e'tiboran davlatning amalga oshirgan mustahkam diplomatik prinsipi Ali Ibrohim Savash aytganidek, "hech bir yevropalik xristian davlati shartlarini majburan qabul qilmaslik va ular bilan doimiy sulhda bo'lmaslik" edi². Davlatning bu diplomatik uslubi sababini "hech bir davlatni o'zi bilan teng shartlarda qabul qilmaslik" sifatida tushuntirgan Bulent Arıga ko'ra Usmoniylar davlati bu tushunchani diplomatik prinsip sifatida qabul qildi³. Namiq Sinan Turonning fikricha, bu vaziyatning asosiy sababi "Usmoniylar davlati hokimiyatining G'arbga nisbatan ustunlik tuyg'usi bilan tujjorlar va diniy tashkilotlarning xorijda keng faoliyatga ega bo'lmaganligidadir"⁴. Aynan ushbu holat boshqa tadqiqotda "madaniy ustunlik" tushunchasi deb nomlangan va davlatning har tomonlama o'zini ustun ko'rgani sababli Yevropaga nisbatan ana shunday munosabatda bo'lganligi aytiladi⁵. Usmoniylar davlatining G'arb oldidagi bu siyosati diplomatiya sohasida tadqiqot olib borgan shaxslar orasida bahs-munozaraga sabab bo'lgan. Bunga ko'ra "diplomatiyaning asosiy sharti muqobil shartlarda muzokara va murosa bo'lganini" ta'kidlagan Ali Ibrohim Savash Usmoniylar davlatining XVIII asrgacha G'arb davlatlari oldida bir tomonlama siyosat olib borganini aytadi. Savash shu sababli bu vaqtgacha G'arb markazlariga elchi jo'natmagan Usmoniylar davlatida modern ko'rinishidagi diplomatiya

¹ Uğur Kurtaran, Osmanlı Avusturya Diplomatik İlişkileri (1526-1791), Ukde Yay., Kahramanmaraş 2009. – S. 15.

² Ali İbrahim Savaş, "Genel Hatlarıyla Osmanlı Diplomasisi", Osmanlı, C. I, (1999) – S. 645.

³ Bülent Arı, "Early Ottoman Diplomacy: Ad Hoc Period", Ottoman Diplomacy: Conventional or Unconventional?, (Ed. A. Nuri Yurdusev). – Basingtoke: Palgrave. – S. 37.

⁴ Namiq Sinan Turan, "Osmanlı Diplomasisinde Batı İmgesinin Değişimi ve Elçilerin Etkisi (18. Ve 19. Yüzyıllar)", Trakya Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, C. 5, Sayı: 2, (Aralık 2004). – S. 58.

⁵ İbrahim Karagöz, "Osmanlı Devletinde İslahat Hareketleri ve Batı Medeniyetine Giriş Gayretleri (1700-1839)", OTAM, Sayı: 6, (1995), s. 174.



tushunchasining rivojlanmaganligini ifodalaydi.¹ Ushbu mavzuda Oral Sander esa “bir mamlakatning ma’lum tashqi siyosati va diplomatiya tushunchasining bor-yo‘qligini aniqlash uchun o‘sha mamlakatning mutlaq tashqi vakolatxonalar vositasi bilan aloqasining zarur emasligini” ta’kidlaydi². Bundan kelib chiqib Usmoniylar davlatining XVIII asrgacha amal qilgan bir tomonlama diplomatik siyosati hukmronlik qilgan davrlarda ham davlatning diplomatik aloqalari mavjud bo‘lganini aytish mumkin.

Usmoniylar diplomatiyasida ishlatilgan diplomatik terminlardan biri *Ahitnâme-i hümayun* hisoblanadi. *Ahitnâme-i hümayun* Usmoniylarning klassik davrida xorijiy davlatlar bilan tuzilgan bitimlar, shuningdek, bu davlatlarga berilgan imtiyozlarga nisbatan ishlatilgan termindir³. Bu jihatdan *ahitnameler* xorijiy davlat hukmdorlariga Usmoniy podshohlari tomonidan berilgan tijorat imtiyozlari bilan birga sulh-bitimlar va bu bilan birga rivojlanuvchi yangi vaziyat va shartlar to‘g‘risida ma’lumot beruvchi rasmiy hujjatlardir⁴. Islom huquqiy tushunchalarga ko‘ra ahitnamelarning bir tomonlama ko‘rinishida tayyorlanishi va yagona imzoga ega bo‘lishi shart. Sandor Papp bu holatning Usmoniylar shartnoma matnlarida aks etganini ta’kidlaydi⁵. Bundan kelib chiqqan holda shuni ko‘rish mumkinki, ahitnamelar qanchalar o‘zaro boshqa davlatlar bilan tuzilgan shartnomalarning yakunidagi shartlar yoki istalgan imtiyozlarni o‘z ichiga olsa ham, diplomatik jihatdan har ikki tomonning ham birga imzolagan hujjatlardan hisoblanmaydi⁶. Faqat ikki davlat orasidagi sulh holatlarida ahitnamelar boshqacha shaklda tartibga solinadi. Ya’ni bu kabi vaziyatlarda ahitnamelar har ikki tomonning vakolatli ko‘rinishida alohida imzolanadi. Undan keyin esa oldindan aniqlangan moddalar joy olgan temessuk qog‘ozlari⁷ jo‘natilar va bu hujjatlarning bosh qismida o‘sha davr hukmdorlarining muhri (tug‘ro) joy olardi⁸. Shu ma’noda davlatlararo munosabatlarda foydalanilgan uslublar sifatida ifodalangan diplomatiya ham ko‘rib chiqilganidek, tomonlar orasida tuzilgan bitim shartlarini o‘z ichiga olgan ahitnamelar ajralmas manbalar orasida joy olgan. Bosh vazirlik Usmoniylar arxivi Duveli Ajnabiya daftarlarida o‘rin olgan bu ahitnamelar Devoni Humoyunga tegishli bo‘lgan Amedi Qalamiga bog‘liq ravishda yozilgan. Bu daftarlarda Amerika, Belgiya, Fransiya, Angliya, Ispaniya, Ruminiya, Rossiya, Avstriya va boshqa davlatlar bilan bog‘liq mavzular ham bor. Shuningdek, bu daftarlarda konsullik⁹, chet ellik tujjorlar¹⁰ va elchilardan kelgan turli yozishmalar¹¹ bilan xorijiy kemalarga berilgan ruxsat qog‘ozlari¹² ham o‘rin olgan. Faqat ahitnamelar tadqiq etilganda davlatning siyosiy va harbiy holatiga qarab o‘zgargan diplomatiya tushunchasini chuqur o‘rganish kerak bo‘ladi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Usmoniylar diplomatiyasi o‘zgargan zamon va davlat kuchiga parallel shaklda o‘ziga xosliklar kelib chiqqan va bunga mos diplomatik vaziyatni aniqlab olgan. Bu o‘rinda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar shartnoma matnlarida ham o‘z aksini topgan, foydalanilgan ifodalar va diplomatik til-uslub har bir davrda turlicha aks etgan. Bu nuqtayi nazardan Usmoniylar ahitnamelari o‘rganilganda, qaysi davrda yozilgani, qaysi davlat bilan aloqalarda bo‘lgani muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki klassik davrda yozilgan ahitnamelardagi keskin til va narigi tomonga istalgan shartlar qo‘yilgan uslubga XVIII asrdan keyingi ahitnamelarda duch kelmaymiz. Turk diplomatiyasining kelib chiqishi va diplomatik terminlarning paydo bo‘lish tarixi o‘rganilganida, uning asosiy davri Usmoniylar davriga

¹ Ali İbrahim Savaş, “Genel Hatlarıyla Osmanlı Diplomasisi”, Osmanlı, C. I. 1999 – S. 10.

² Oral Sander, Anka’nın Yükselişi ve Düşüşü Osmanlı Diploması Tarihi Üzerine Bir Deneme, İmge Yay., Ankara 2008, s. 20.

³ Mübahat S. Kütükoğlu “Ahitnâme”. DİA. C. I, (1992), – S. 535-536.

⁴ Bülent Arı, “Early Ottoman Diplomacy: Ad Hoc Period”, Ottoman Diplomacy: Conventional or Unconventional?, (Ed. A. Nuri Yurdusev). – Basingtoke: Palgrave. – S. 37-38.

⁵ Sandor Papp, “Eflak ve Boğdan Voyvodalarının Ahitnameleri Üzerine Bir İnceleme Osmanlı İmparatorluğu’nun Kuzeybatı Hududundaki Vassal Ülkeleri”, Türkler, C. X, (2002). – S. 744-745.

⁶ M. Kütükoğlu, “Ahitname”, s. 536.

⁷ So‘z jihatdan chirmashib olish va qarz hujjati kabi ma’nolarni bildiruvchi temessuklar ikki tomon orasida tuzilgan shartnomalarda foydalaniladigan qog‘ozlar hisoblanadi. Diplomatik termin sifatida esa temessuk qog‘ozlari sulh-noma yoki shunga o‘xshash rasmiy shaxs tomonidan beriluvchi muhrlı qog‘ozlar hisoblanadi. Mehmet Zeki Pakalın, “Temessük”, Osmanlı Tarih Deyimleri ve Terimleri Sözlüğü, C. II, (1983), s. 453; F. Develioğlu, a.g.e., 1071

⁸ M. Kütükoğlu, “Ahitname”, s. 536.

⁹ BOA. C. MTZ., nr. 7/342; nr. 11/522; A. DVN. MHM. nr. 29/89.

¹⁰ BOA. BEU, nr. 1058/79312; nr. 900/ 67455; nr. 398/29789

¹¹ BOA. Y. PRK. HR. nr. 10/14

¹² BOA. C. HR. nr. 11/522; nr. 157/7815.



borib taqalishiga guvoh bo‘ldik. Garchi xalqaro munosabatlar, diplomatik jarayon o‘sha vaqtda diplomatiya deb atalmagan bo‘lsa ham, ko‘rinishi diplomatiyani aks ettirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Uğur Kurtaran, Osmanlı Avusturya Diplomatik İlişkileri (1526-1791), Ukde Yay., Kahramanmaraş, 2009. – 45 s.
2. Ali İbrahim Savaş. Genel Hatlarıyla Osmanlı Diplomasisi. Osmanlı, C. I, 1999. – 36 s.
3. Namık Sinan Turan, “Osmanlı Diplomasisinde Batı İmgisinin Değişimi ve Elçilerin Etkisi (18. Ve 19. Yüzyıllar)” // Trakya Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, C. 5, Sayı: 2, 2004. – S. 29-36.
4. Bülent Arı, “Early Ottoman Diplomacy: Ad Hoc Period”, Ottoman Diplomacy: Conventional or Unconventional?, (Ed. A. Nuri Yurdusev), Basingtoke: Palgrave, 2009. - 119 p.
5. Oral Sander, Anka’nın Yükselişi ve Düşüşü Osmanlı Diplomasi Tarihi Üzerine Bir Deneme, İmge Yay. – Ankara, 2008. – 97 s.
6. Mübahat S. Kütükoğlu “Ahidnâme”, DİA, C. I, 1992.
7. Oral Sander, Anka’nın Yükselişi ve Düşüşü Osmanlı Diplomasi Tarihi Üzerine Bir Deneme, İmge Yay. – Ankara, 2008. – 97 s.



TANGLIK VAZIYATIDA QOLGAN O‘SMIR YOSHLARGA PSIXOLOGIK YORDAM

Ashrapova Nigora Olimovna
Buxoro viloyat Buxoro tuman
26-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: ushbu maqolada tanglik vaziyatida qolgan o‘smir yoshlarda psixologik yordam berish va uning ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: tanglik, o‘smirlik, yoshlar, psixologiya, davr.

Tanglik (grekcha kreses – qaror, burilish, oqibat) biror bir tashqi ta’sir natijasida ichki sabablarni chaqiruvchi yoki shaxsiy hayotidagi keskin o‘zgarish sifatida psixologiyada og‘ir psixologik holat hisoblanadi. Shunday ekan, psixologik tanglik bolaning o‘zi uchun muhim bo‘lgan ob‘yekti va qadriyatlarini yo‘qotishi, uning rivojlanish bosqichidagi yosh davrlarida namoyon bo‘ladigan yoki ijtimoiy psixologik moslasha olmasligi hisoblanadi. “Tanglik” tushunchasi “stress” termini singari bir xil salbiy mohiyatga ega emas. Agar tanglikni chaqiruvchi sharoit o‘zgarib va bu bilan bir qatorda bola hech qanday psixologik yordam olmasa, uning salbiy iztiroblari kumulyasiya (zo‘riqish, to‘lib ketmoq, chuqurlashmoq) ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Tanglikning ba’zi turlari bolaning organizmdagi fiziologik mexanizmlarining buzilishidan boshlab psixologik jarohatgacha olib keladi, “Men” obrazi, barcha darajadagi affektiv va kognitiv sohasi, shuningdek, shaxs tuzilishining buzilishiga olib keladi. O‘smirlar bir maromda rivojlanmaydi shuningdek, ularning hayotida ham tanglik shuningdek, nisbatan barqaror va tinch osoyishta kechadigan davrlar mavjud. Tanglik davri davomida bola butunlay o‘zgaradi. O‘smirlar bilan o‘zaro munosabatdagi muammolarni tanglik davrida o‘rganish, ularni bartaraf etish uchun o‘z vaqtida olingan ma’lumotlar ularning kelgusidagi ijtimoiylashuvini ta’minlashda asosiy tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi. O‘smirlar bunday tanglik davrida o‘jar bo‘lib qoladi, hech kimni eshitmaydi, hamma narsani o‘z bilganicha qilishni xohlaydi. Buning oqibati qanday bo‘ladi? Ular bilan atrofdagi insonlarning orasida nizolarni soni ortib boradi. O‘smirlarning ichki dunyosida mashaqqatli iztiroblar kuzatib boriladi: tanglik davrida juda ko‘p psixologik muammolar sodir bo‘ladi, mavjud muammolar esa zurayib boradi. Yosh davriga xos bo‘lgan tanglikning kechish xususiyati bolaning temperament va xarakter xususiyatlariga ham bog‘liq bo‘ladi, shuningdek, tanglik davrida bola shaxsi turg‘un bo‘lmagan ochiq tizimga o‘xshaydi. Uning shaxsi o‘zgaruvchan shakllanadi hamda eng zaif ta’sir qiluvchi bolalarda ham to‘g‘ri deb bo‘lmaydigan qizg‘in javob qaytarish holatlari uchraydi, ba’zan esa qanday kechishi va oqibatini oldindan aytib bo‘lmaydigan taassurot qoldiradilar. O‘smirning oilasi yoki uni o‘rab turgan noqobul ijtimoiy muhitda sodir bo‘lgan vaziyat unda sog‘lig‘ini yo‘qotish xavfini tug‘diradi, bolaning to‘laqonli rivojlanishi uchun me’yordagi sharoitda sodir bo‘layotgan ayriliq, judolik, jarohati bolani tanglik holatiga duch kelishiga sabab bo‘ladi. Bolaning tanglik yosh davrida sodir bo‘lgan aksariyat hollardagi jumladan, tashlab ketilganlik, yuz o‘giranlik, tajovuz kabi vaziyatlar unda og‘ir jarohatlarni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi, shuningdek, bola iztirobni boshidan kechiradi.

O‘smirlar va bolalar psixikasining yosh davrlarida o‘ziga xos xususiyati mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- emosional yetuk emaslik;
- kattalar avtoritetiga bo‘ysunish;
- ishonuvchanlik;
- jinsga oid munosabatlar haqida xabardorligi va hayotiy tajribasining yetarli darajada emasligi;
- boshqa insonlarni mavjud harakatlarini oldindan ayta olish va murakkab vaziyatlarda tanqidiy hamda to‘liq baholay olmaslik.

O‘smirni tanglik vaziyatidagi bu xususiyatlari uning ta’sirlanishida o‘ziga xoslikni belgilaydi. Modomiki, bolaning bu vaziyatdan chiqishida o‘zi uchun muhim bo‘lgan maqsadga erishishga yordam beradigan qobiliyat yoki malakaga ega bo‘lmas ekan, u holda o‘zini himoyasizdek his etib ruhiy osoyishtaligini yo‘qotadi. [1. Tanglik vaziyatida qolgan bolaga psixologik yordam ko‘rsatish. Tuzuvchilar: Tadjiyeva S.X., Sabirova D.G‘.T.: RBIMM, 2011 y.3-44 betlar]

Tanglik vaziyatida ularda kechadigan iztirob tuyg‘ulari jamiyatdagi insonlar uchun maqbul hisoblanmaydi. Natijada bola o‘zini e’tibordan chetda qolgan insondek his etadi, ayniqsa qiyin vaziyatlarda hayotdan qutulish hissini boshidan kechiradilar. Bola (o‘smir)da tanglik vaziyati biror-bir insonning yordamisiz va qo‘llab-quvvatlashisiz, mustaqil biror-bir narsani uddalay olmagani boshlanadi. Tanglik vaziyatida qolgan bolaga quyidagicha ta’rif beriladi:

- O‘ziga ishonchsizlik va oqizlik. Bunday holatlarda bolada munosabatlar, o‘z-o‘zini baholash tizimida o‘zgarish, o‘zini qabul qilishi, atrofdagi insonlar va jamiyat oldida beparvolik hamda



adovat bilan to'qnashishi bo'lib, shuningdek, unda qarshiliklarning muvaffaqiyatsiz kelishi bilan bog'liq.

- Xavotirlik va qo'rquvning yuqoriligi. Bunday holatlarda bola atrofdagilar tomonidan qo'rquv, ayblov, jazoni tushunmaslik, notanish vaziyatga tushib qolish va boshqalarni his etadi.

- Emotsionallikning yuqoriligi. Emosional sohasining boshqaruvida o'zgarishning sodir bo'lishi bilan tavsiflanadi: bunda o'ziga ishonchsizlik, tushkunlik, g'azab, aybdorlik hissini boshidan kechirishi mumkin, o'z-o'zini nazorat qilishi buziladi va boshqalar.

- Tashqi bosim va zo'riqishni his etish. Buning asosida shoshilinch va tig'izlikda biror-bir harakatni sodir etish zaruriyati yotadi.

Bolada tanglikni tashqaridan bartaraf etishga va yordamga bo'lgan yuqori ehtiyoj mavjud bo'ladi. Bolaning psixologik jarohati quyidagi sharoitlarga bog'liq holda undagi individual ta'sirning o'zgarishi:

- 1) bolaning psixikasi, sog'lig'i, shuningdek, hayotiga bo'lgan tahdidni yaqqol ko'rinishi;

- 2) sodir bo'lgan vaziyat haqida ob'yektiv ma'lumotni to'plash, unga ta'sir etish va ularni kelgusidagi rivojlanishini oldindan sezish imkoniyati;

- 3) jabrlanuvchining shaxsiy xususiyati va intellektual darajasi;

- 4) ijtimoiy omillar, jumladan, jamiyat, kattalar va yaqin insonlar tomonidan qo'llash. Bolalar va o'smirlarda kechadigan tanglikni shartli ravishda uchta asosiy guruhga ajratish mumkin:

- yosh davrlaridagi tanglik;

- ayriliqdagi tanglik;

- jarohatdagi tanglik.

Yosh davrlaridagi tanglik — bu bir yosh bosqichidan ikkinchi bosqichga o'tishda ma'lum bir rivojlanishning yakuni bo'yicha, bola iztirob chekadigan yosh bosqichlari orasidagi davrdir. Birinchi navbatda tanglikning bu turi morfo funksional qayta qurish hisoblanib bola organizimidagi fiziologik siljishi bilan o'zaro bog'langan. Yosh davrlaridagi tanglikni kechish xususiyati tug'ma ruhiy asab tizimi (temperament), xarakter, individual, biologik va ijtimoiy munosabatlarga bog'liq. Tanglik davrida bola shaxsi ochiq tizimga o'xshab o'zgaruvchan bo'lib boradi, hattoki zaif ta'sirlanuvchi bolalarda bu holat og'ir kechadi hamda ular oqlab bo'lmaydigan darajada intensiv javob qaytaradilar. Yosh davrlaridagi tanglik tabiiy va me'yordagi holat hisoblanadi. Noqobil tashqi muhit, stress omillari bu davrda bola shaxsining rivojlanishida, shuningdek, uning seksualligini shakllanishiga va tashqi muhit bilan o'zaro munosabatiga juda katta ta'sir etadi. Bolaning rivojlanishi bilan bog'liq ko'plab yosh davrlariga oid nazariyalar mavjud. L.S.Vigotskiy tomonidan ta'riflangan yosh davrlarini rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin. L.S.Vigotskiy 1941 yil bolalarda kechadigan yosh davrlaridagi tanglik holatini quyidagilarga ajratadi: bir yoshdagi tanglik, uch yoshdagi tanglik, yetti yoshdagi va o'smirlik davridagi tanglik (13-17 yosh). Tanglik o'z tarkibiga 6 ta asosiy elementlarni oladi: 1. Negativizm – bu o'z xohishiga qarshi chiqishidan qat'iy nazar buni aksini qilishga intilishi. 2. O'jarlik – bu bola biror narsani xohlagani uchun emas, balki talab qilish uchun o'zi aytganini qildiradi. Bola avvalgi asoslariga tayangan holda o'zi undan voz kecha olmaydi. 3. Injiqlik – bu sodir bo'ladigan tarbiya me'yorlariga qarshi yo'nalgan o'ziga xos xususiyatdir. Bola o'z xohishlarini kattalar tomonidan bajarishlarini talab qilishda turib oladi va unga boshqasini taklif qilayotganliklari uchun barchasidan norozi bo'ladi. 4. O'zboshimchalik – bu bola barcha narsani o'zi xohlaganidek hamda mustaqil qilishga harakat qiladi. 5. Qo'zg'alon-qarshilik – bu holatda bola atrofdagilar bilan nizoli vaziyatga kirib qoladi. 6. Kattalar mavqeini qadrsizlanishini namoyon bo'lishi. Bola ota-onasini va yaqinlarini yomon so'zlar bilan ataydi, tegajaklik qilishni, so'kishni boshlaydi. 7. Zulm qilish – bu bola ota-onasini akasi hamda opasidan rashk qilish xisobiga ulardan o'zi talab qilgan narsani bajarishlariga majbur qiladi. O'smirlik davridagi tanglik (19–17 yosh). Jinsiy yetilish o'smirlik davrida jismoniy rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bu davr ichki organlarning ishlash faoliyatiga jiddiy ravishda ta'sir etadi hamda yangi ehtiyojlar, fikrlar bilan bog'liq jinsiy qiziqishlar paydo bo'la boshlaydi. Balog'atga yetish hissi natijasida kattalar tomonidan hurmat qozonishga harakat qilmoq, mustaqil bo'lmoq, kattalar uyushmasining to'laqonli a'zosi bo'lishga tayyorgarlik sifatida tahlil etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibragimov X, Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. T., 2008 yil.

2. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi T., 2005 yil.

3. Mavlonova R, O.To'rayeva O, Xoliqberdiyev K. Pedagogika darslik. T., 2001 yil.



THE IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF FURKAT

Avganova Ozoda

(Toshkent Arxitektura va Qurilish Instituti
Qurilishni Boshqarish fakulteti
Menejment yoʻnallishi)

Annotation: The impact of the scientific and creative heritage of the famous poet and publicist Zokirjon Kholmuhammad oglu Furkat on the youth, who continued the best traditions of Uzbek classical literature and raised the development of Uzbek literature to a new level.

Keywords: Civil society, spiritual wealth, enlightenment, spiritual, development, consciousness.

After gaining independence, the Uzbek people have made great strides in the spiritual and enlightenment spheres of the development of civil society: they have realized their national identity, their mentality has spread to the world, and literature and art have flourished. Nations and peoples have regained their dignity. That is, literature has become the consciousness of the soul, the spiritual wealth. One of the great people who filled our spiritual wealth with his poems written with nostalgia for his country is Zokirjon Kholmuhammad oglu Furkat.

Furkat's lyrical legacy is immense and several thousand ghazals shake hearts.

The main part of Furkat's literary heritage is lyric poetry. He is a poet who contributed to the development of humanistic lyricism in Uzbek literature. In his best lyrical works, Furkat expanded the expression of Uzbek lyric poetry, drawing on the experience of such masters as Lutfi, Navoi, Fuzuli, Babur, Mashrab, Ogahi. In his poems, he showed the ability to express the most complex, difficult to describe mental states of man. Furkat's first lyrical rehearsals were very short. Due to the popularity of his poems, a special divan was arranged in his youth, and a well-known poet like Muqimi dedicated his radical ghazal "Olturgusi".

Much of Furkat's lyrics are based on centuries of love. But Furkat was a poet of his time. And by that time, things had changed and renewed. Therefore, the poet's lyrics describe the joys, sorrows, observations and conclusions of a new person living in this new era. Even lyrical poetry, created in full accordance with tradition, suddenly reflects the problems of the time. The language of the poet's works is more complex than that of Muqimi's poems, because Furkat was formed in the spirit of the highest poetic traditions, under the influence of high experience of Arabic and Persian literature, and sought to describe in detail the subtle spiritual expressions. He makes good use of Arabic and Persian words to describe a variety of emotions and complex life situations.

Furkat's work is a testament to the rise of Uzbek enlightenment literature. Zokirjon Furkat is one of the first real Uzbek journalists. In addition to dozens of articles by Furkat, the Turkestan Region newspaper published a series of articles in January-June 1891 entitled "The Situation of the Khokan Poet Zakirjon Furkat. The memoir, "Self-Writing," proves it. In literary criticism, this work is called "Furqatnoma", sometimes called "Sarguzashtnoma". This work plays an important role in determining the poet's way of life and worldview.

Furkatnoma also has a serious educational value. It tells the story of the poet's personality in a very honest way. Reports that he went to school at the age of seven, became acquainted with Mantiq ut-tayr at the age of eight, began to read the works of Hazrat Navoi at the age of nine, and finished the Qur'an at the age of eleven. The information in the book is presented in a very interesting and quiet style. "At that time, if I saw a Russian person in the market, I would run away and pass by," Furkat said. I even hated anyone who spoke Russian, "said David Cook, chief of The Christian Science Monitor's Washington bureau. Given that the poet was working as a translator for the newspaper, edited by Nikolai Ostroumov at the time, his writings reflect Furkat's courageous personality.

“Ma’lumki, xalqimizda azaldan qo’shnihilik munosabatlari, urf-odatlar va na’analarini juda e’zozlab kelingan. Uni avloddan avlodga meros sifatida o’tkazib, tobora yangi-cha mazmun kashf etib kelgan. Chunki qo’ni-qoshnihilik mahalladoshlik, urf odat va an’analarida o’zaro insoniy munosabatlar bilan birga xalqning turmush tarzi, maishiy hayoti, oilaviy munosabatlari aks etgan. Shuning uchun ham xaqimizda “Biz bolaga yetti mahalla ota ona” mazmunidagi naql yuradi. Insonlar, ayniqsa yoshlar orasida insoniyliniva oliyjanob fazilatlarini tarkib topdirishga xizmat qiluvchi vosita qo’ni qoshnihilik, nafaqat shaxsiy aloqalarni, balki ijtimoiy aloqalarni ham shakllantirishga yordam beradi.”¹ Darhaqiqat, bugungi davrda mahallaning yoshlar tarbiyasidagi o’rnini hech nima bilan solishtirib bo’lmaydi. Shu asnoda mahallalarda voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi maxsus mahalla posboni lavozimi mavjud bo’lib, ular doimiy ravishda maktab va ota onalar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradilar.

Profilaktika inspektorlarining sa’y-harakati bilan aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash, muammolarni mahallaning o’zida bartaraf etish yuzasidan salmoqli ishlar qilinmoqda. Tadbirlarda sog’lom muhitni shakllantirish masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Ularda taniqli ziyolilar, tajribali pedagoglarning ishtirok etishi ijtimoiy, ma’naviy muhitni sog’lomlashtirish va diniy aqidaparastlikka qarshi kurashish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarning ta’sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xorijdan qaytgan fuqarolar ham profilaktika inspektorining nazaridan chetda qolmaydi. Ular mahalla tadbirkorlari va bandlikka ko’maklashuvchi markazlar hamkorligida ish bilan ta’minlanadi. Jamiyatda mahallaning nufuzini yanada mustahkamlash maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020-yil 15-aprelda “O’zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi 228-sonli Qarori asosida tasdiqlangan “O’zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash vazirligi to’g’risida Nizom” qabul qilindi. Unga muvofiq jamiyatda mahallaning o’ni va vazifalari alohida ko’rsatib o’tildi. Farmonga muvofiq, har bir mahallada “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyiliga asoslangan yangi tizim joriy etiladi. Jamiyatda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining to’laqonli va samarali joriy etilishida har tomonlama ko’maklashish, oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog’lomlashtirishda fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorligini o’rnatish vazirlikning asosiy vazifa va faoliyat yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi hamda “Mahalla” o’quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot markazi negizida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilishi va vazirlik tuzilmasiga o’tkazilishi rejalashtirib olindi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, mahalla va qo’ni-qo’shnihilik munosabatlari o’zbek oilalari va unda tarbiyalanayotgan har bir farzand uchun muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonga holis yondoshgan holatga har birimiz farzandlarimiz kelajagi, ularning har tomonlama barkamol bo’lib voyaga yetishida mahalla tarbiyasidan unumli foydalanishimiz lozim. Buning uchun esa albatta, o’zbek mahallalarida qadimdan shakllanib kelayotgan milliy urf odat va an’alarimizni qadrlamog’imiz, ularni yanada sayqallab zamonamizga moslagan holda o’z hayotimizda qo’llamog’imiz lozimdir. Chunki, farzandlarimiz bizdan o’rnak olib tarbiyalanadi va eshitganlaridan ko’ra ko’rganlarini hayotda ko’proq qo’llaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ubaydullayeva B. “O’zbeklarning yosh avlod tarbiyasi borasidagi an’analar va zamonaviylik”, t. “Yangi nashr”, 2010
2. Jabborov I. “O’zbek xalqi etnografiyasi”, Toshkent, O’qituvchi, 1994 yil.
3. Toshkent mahallalari: an’analar va zamonaviylik, T., 2002.
4. . www.lex.uz sayti

¹ Ubaydullayeva B. “O’zbeklarning yosh avlod tarbiyasi borasidagi an’analar va zamonaviylik”, t. “Yangi nashr”, 2010



PHRASEOLOGY: WORD-GROUPS WITH TRANSFERRED MEANINGS

Iskenderova Gulnar Sarsenbaevna

English teacher at the secondary school No.
29 in Nukus, Republic of Karakalpakstan

Mukhanova Laylo Bekmuratovna

English teacher at the secondary school No.
29 in Nukus, Republic of Karakalpakstan

Abstract: This article analyzes English phraseology and their types. In addition, its importance in speech is illustrated with examples.

Key words: synonyms, phraseology, types, examples, lexicology, word-groups.

Phraseology is the branch of lexicology specializing in word-groups which are characterized by stability of structure and transferred meaning, e.g. to take the bull by the horns, to see red, etc. Phraseological units, or idioms, as they are called by most western scholars, represent what can probably be described as the most picturesque, colourful and expressive part of the language's vocabulary.

If synonyms can be figuratively referred to as the tints and colours of the vocabulary, then phraseology is a kind of picture gallery in which are collected vivid and amusing sketches of the nation's customs, traditions, and prejudices, recollections of its past history, scraps of folk songs and fairy-tales. And what a variety of odd and grotesque images, figures and personalities one finds in this amazing picture gallery: dark horses, white elephants, bulls in china shops and green-eyed monsters, cats escaping from beds or looking at kings, dogs barking up the wrong tree and men either wearing their hearts on their sleeves or having them in their mouths or even in their boots. Sometimes this parade of funny animals and quaint human beings looks more like a hilarious fancy-dress ball than a peaceful picture gallery and it is really pity that the only interest some scholars seem to take in it is whether the leading component of the idiom is expressed by a verb or a noun.

So together with synonymy and antonymy, phraseology represents expressive resources of the vocabulary.

V.H. Collins writes in his *Book of English idioms*: "In standard spoken and written English today idiom is an established and essential element that, used with care, ornaments and enriches the language."

Use with care is an important warning because speech overloaded with idioms loses its freshness and originality. Idioms, after all, are ready-made speech units, and their continual repetition sometimes wears them out: they lose their colours and become trite cliches. Such idioms can hardly be said "to ornament" or "enrich the language".

On the other hand, oral or written speech lacking idioms loses its expressiveness, colour and emotional force.

In modern linguistics, there is considerable confusion about the terminology associated with these word-groups: phraseological units, idioms. There are some other terms denoting more or less the same linguistic phenomenon.: set-expressions, setphrases, phrases, fixed word-groups, collocations.

The confusion in the terminology reflects insufficiency of positive or wholly reliable criteria by which phraseological units can be distinguished from "free" word-groups.

It should be pointed out at once that the "freedom" of free word-groups is relative and arbitrary. Nothing is entirely "free" in speech and its linear relationships are governed, restricted and regulated, on the one hand, by requirements of logic and common sense, and on the other, by the rules of grammar and combinability. One can speak of the black-eyed girl but not of a black-eyed table (unless a piece of modernist poetry where everything is possible). Also, to say that a child was glad is quite correct, but a glad child is wrong because in modern English glad is attributively used only with a very limited number of nouns (e.g. glad news), and names of persons are not among them.

Free word-groups are so called not because of any absolute freedom in using them but simply because they are each time built up anew in the special process whereas idioms are used as ready-made units with fixed and constant structures.

This is probably the most discussed – and the most controversial – problem in the field of



phraseology. The task of distinguishing between free word-groups and phraseological units is further complicated by the existence of a great number of marginal cases, the so-called semi-fixed or semi-free word-groups, also called nonphraseological word-groups which share with phraseological units their structural stability but lack their semantic unity and figurativeness (to go to school, to go by bus, to commit suicide). There are two major criteria for distinguishing between phraseological units and free word-groups: semantic and structural. Compare the following examples:

A. Cambridge don: I'm told they are inviting more American professors to this university. Isn't it rather carrying coals to Newcastle? (To carry coals to Newcastle means "to take something to a place where it is already plentiful and not needed".) B. This cargo ship is carrying coal to Liverpool. The first thing that captures the eye is the semantic difference of the two word-groups consisting of the same essential constituents. In the second sentence the free wordgroup is carrying coal is used in the direct sense, the word coal standing for hard, black coal and carry for the plain process of taking something from one place to another. The first context quite obviously has nothing to do with either with coal or with transporting it, and the meaning of the whole word-group something entirely new and far removed from the current meanings of the constituents.

References:

1. Antrushina G.B., English Lexicology, 1999
2. Semantics, Cowie A.P., Oxford, 2009
3. <http://en.wikipedia.org/wiki/Synonym>



“ТА’ВИЗ-УЛ ОСHIQIN” DEVONI RUBOIYLARINING MAVZULAR KO‘LAMI

Kamolov Jasurbek Muxsinovich
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1 kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada Ogahiyning ruboiylarida mavzular ko‘lami haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, ruboiy, bahor, shodlik, peyzaj, debocha.

Ruboiy adabiyotda, she‘riyatda fikr va tuyg‘ular ifodasining eng qulay shakllaridan biri sifatida alohida mavqega egaki, uning janriy imkoniyatlarini, shoirlar ijodida tutgan o‘rnini o‘rganish mumtoz she‘rshunoslik uchun qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, zamonaviy adabiyotshunoslik uchun ham shunchalik muhimdir. Bu janrni tadqiq etishda O.Nosirov, S.Jamolov, M.Ziyovuddinov, I.Haqqulov, E.Ochilovlarning ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega[1]. Mazkur tadqiqotlarda ilgari surilgan qarashlar ruboiy janri va uning taraqqiyoti bog‘liq yaxlit tasavvur paydo etishga xizmat qila oladi. Ammo adabiyot doimo rivojlanishda, u zamon va makon bilan, inson va uning hayoti bilan qadambaqadam rivojlanib, o‘zgarib boradi. Buning natijasida so‘z san‘atida shakliy va mavzuiy yangilanishlar maydonga chiqadi. Har bir davr har bir mavzuga, bu mavzuni yoritish uchun vosita bo‘lib xizmat qiluvchi adabiy janrga o‘ziga xos tarzda yangicha munosabatda bo‘ladiki, bu o‘ziga xosliklarni o‘rganish esa muhim vazifalardandir. Bu fikrni o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan biri Ogahiy lirikasi, xususan, ruboiylari haqida ham aytish mumkin. O‘zbek adabiyotshunosligida ogahiyshunoslik sahifalarini boyitgan R.Majidiy, V.Zohidov, Q.Munirov, S.Dolimov, I.Haqqulov kabi olimlarning tadqiqotlarini alohida ta‘kidlab o‘tish joiz. Shunga qaramay, o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili bo‘lgan Ogahiy ijodi yangi-yangi tadqiqotlarga manba bo‘la oladi. Ogahiy lirikasida g‘azal, ruboiy, muxammas, masnaviy, tuyuq, qasida, chiston, qit‘a kabi she‘riy turlarning yetuk namunalari uchraydi. Shoir she‘riyatining salmog‘ini uning ruboiylarisiz tasavvur etish mumkin emas. Uning devonida ruboiy muhim o‘rin tutadi. Shoir “Ta‘viz-ul oshiqin” devoniga yozgan debochasida jumladan shularni bayon etadi: “... Ushbu sayr asnosida har toifaning holig‘a loyiq va har jamoaning af‘olig‘a muvofiq bir mazmun shohidining xayoli xotirim ko‘zgisiga xutur qilsa erdi, gunogun iboratlar bila rangin nazmlar libosin kiydirib, dilkash suratlar bila xaloyiq nazarida namoyish berur erdim va har birining rangin ruxsori va mushkin giso‘si tomoshosidin shavq va dard ahlining shaydo ho‘ngullarin volalig‘ va asirlig‘ maqomig‘a yetkurur erdim, andoqkim, shavq angliz g‘azallar va mav‘izaomuz qasidalar va muhabbat asar ruboiylar va diqqatparvar masnaviylar va bazmoro muxammaslar va ruhafzo musaddaslar nazm silkiga chekib, bir necha qog‘oz poralarg‘a musavaddo qilur erdim” [2,39]. Debochadagi bu so‘zlar Ogahiy ruboiylarining mavzusini bir qadar tavsiflab beradi. Ogahiy lirikasida tabiat go‘zalligi tasvirlangan janrlar ko‘p uchraydi. “Ijobiylik tasdig‘i, hayotsevarlik g‘oyalari Ogahiy devonidagi bahor, Navro‘z, iydi ramazon va qurbon hayiti mavzulariga bag‘ishlangan she‘rlarida ham old o‘ringa chiqadi. Bunday namunalar shoir merosida ancha-muncha. Bu guruhga hayot, bahor va go‘zallik ramzi gul hamda bulbul ta‘rifidagi g‘azal, ruboiy va masnaviylarni ham kiritish o‘rinli” [3,8].

Ko‘klamning, bahor faslining jonga huzur baxsh etuvchi fazilatlarini ta‘rifi, yashnab-gullagan tabiat in‘omlaridan bahramandlikka da‘vat, shu jarayonda hayotsevarlik g‘oyalarining badiiy targ‘ibi Ogahiyning boshqa tur she‘rlarida, jumladan ruboiylarida ham ko‘rinarli o‘rin tutadi. Bu namunalarda ham bahor xuddi g‘azallarida bo‘lganidek borliqqa yangi hayot, kishilarga esa shodlik keltiruvchi fasl sifatida tasvirlanadi. Masalan, shoirning “Etkurdi safo yer yuziga fasli bahor” va “Ayyomi bahor keldi hangomi nishot” misralari bilan boshlanuvchi ruboiylari hayotning zavqidan, ona tabiat go‘zalliklaridan lazzatlanish g‘oyalarini olg‘a suradi. Yetkurdi safo yer yuziga fasli bahor,

Ochildi gulu, lolau nasrin bisyor,
Kelgilki, chamanlar ichra bazm tuzub,
No‘sh aylagali tarab mayini, ey yor.

Xossayi ruboiy hisoblanib, a-a-b-a tarzida qofiyalangan ruboiyda bahor, bisyor, yor kabi fors-tojikcha so‘zlar o‘zaro qofiyalanib kelgan. Qofiyadosh so‘zlar mutlaq qofiya hisoblanib, ular tovush tarkibiga ko‘ra to‘liqsiz och qofiya hisoblanadi. Bahor kelishini yoshu qari birdek intizorlik bilan kutishadi. Hatto bahor nafasi ufurushi bilan o‘t-o‘lanlar, maysalar yashil tusga kira boshlaydi.



Dov-daraxtlar kurtak qilishga oshiqadi. Bahor yer yuzidagi barcha olam ahli ko'ngliga iliqlik olib kiradi. Shoir shunday fikrlarning isboti sifatida hamda o'z fikrlarini umumlashtirgan holatini "Et-kurdi safo yer yuziga fasli bahor" misralari bilan boshlanuvchi ruboiyda ifodalaydi. Yer yuziga bahor fasli kelgani, bahor tashrif buyurishi bilan gul-u, lolalar ochilib, qad rostlagani tufayli olam ahlini xursandchilik qilish uchun chamanlar, gulzorlar ichra bazm uyushtirishga chorlaydi. Bazmda shodlik, xurramlik mayini ichaylik deb o'quvchini hayotsevarlikka undaydi. Bahor tarovati aks ettirilgan yana bir ruboiysida ham bahor va uning fazilatlarini keng yoritilgan.

Ayyomi bahor keldi hangomi nishot,
Ey gul, icholi gulshan aro jomi nishot,
Bu fasldurur usru g'animat bukun,
Kim, tonglog'a qolmagusi anjomi nishot.

Shoir yuqoridagi misralarda bahorning ko'p yaxshi xislatlari borligini ifodalay ekan, bahorning xursandchilik, kishiga quvonch ulashuvchi fasl ekanligi, shu sababli shoir insonni shodlik jomidan bahramand bo'lishga chaqiradi, ammo ruboiyda bahorning g'animatligi ya'ni tez o'tib ketishi, quvonchning tez tugallanishi haqidagi fikrlar kitobxonni o'ylashga chorlasada, tufayli go'zalliklardan bahramand bo'lishga undash g'oyasi kuchli. Shoirning ta'sirchan misralari o'quvchini o'ziga rom qiladi, ko'nglida tabiatga nisbatan iliqlik uyg'otadi. "Tabiat fasllariga xos har xil voqea-hodisalar ifodasi, erta ko'klamdan qahraton qishgacha bo'lgan alohida-alohida manzaralar va shularga uyg'un ravishda goh ko'tarinki, goho mahzun insoniy kayfiyat tasvirlari bilan ham she'riyatda realistik tamoyilning boyishiga Ogahiy munosib hissa qo'shgan edi" [4,12], -deb yozadi ogahiyshunos olim I.Haqqulov. Haqiqatan ham Ogahiyning tabiat tasviri bilan bog'liq bir qancha ruboiylari (masalan qish tasviriga bag'ishlangan) borki, ular tabiat fonida ijtimoiy hayotning mashaqqati, insonning turmush tarziga qanchalik ta'siri kuchli bo'lganligini aks ettiradi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, shoirning boshqa janrlardagi asarlarida ham tabiat tasviriga, uning inson hayotidagi o'rniga (masalan, Navro'z ayyomi bilan bog'liq g'azallar) katta e'tibor qaratilganini ko'rishimiz mumkin. Shoirning turli mavzulardagi har bir ruboiysi o'z go'zalligiga ega. Har bir ruboiy shoir ko'zlagan maqsadni o'quvchiga yetkazish xususiyatiga egaki, oradan shuncha vaqt o'tsada, Ogahiy asarlari she'rxon qalbini zabt etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Носиров О., Жамолов С., Зиёвуддинов М. Ўзбек классик шеърининг жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979, 154-166-бетлар; Ҳаққулов И. Рубоий – маънолар баҳрида. Китобда: Аъзамов А., Ҳаққулов И. Масъул сўз. – Т.: 1987, 171-188-бетлар; Очилов Э. Муборак сарчашмалар. – Тошкент: Ўқитувчи. 1997.
2. Огаҳий М. Асарлар. 4-жилдлик. 1-жилд. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1971.
3. Абдуғафуров А. Огаҳлар огаҳи. Китобда: Муҳаммад Ризо Огаҳий. Ишқ аҳлининг тумори. Т.: 1999. 4. Ҳаққулов И. Огаҳий шахси ва шоирлиги. Китобда: Ҳаёт, адабиёт ва абдиёт. Тошкент: Тафаккур, 2019.



SAVOD O‘RGATISH MASHQLARINING ASOSIY TURLARI

Karimova Xilola Turg'unovna
Farg'ona shahar 31-o'rtta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinflarga savod o'rgatish mashqlari va ularning asosiy turlari aks etgan.

Kalit so'zlar: tovush, boshlang'ich sinf, ta'lim, harf, saovd, analiz, nutq

Tovush ustida ishlash. Tovush savod o'rgatishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Savod o'rgatish davrida so'z va bo'g'inlarni tovush tom onidan analiz va sintez qilish, tovush va ularning artikulyatsiyasini analiz qilish mashqlari o'tkaziladi, diksiya (ravshan, burro gapirish) ustida ishlanadi, logopedik ishlar olib boriladi. Tovush ustida ishlash harf ustida ishlash bilan, ayniqsa, kesma harflardan bo'g'in, so'z tuzish kabi sintez qilish usullarida birlashib ketadi; tovush va harf o'rtasidagi munosabatni doimo aniqlab borish o'qish malakalarini shakllantirish uchun ham, imloviy jihatdan savodli yozish asosini yaratish uchun ham foydalidir.

So'zlarni tovush tom onidan analiz va sintez qilish usullari hozirgi kunda takomillashtirilib borilmoqda. Savod o'rgatishda asosan, quyidagi usullar amalda qo'llanilm oqda:

I. Analiz mashqlari. 1. Nutq (gap)dan so'zni ajratish; so'zni aniq talaffuz qilish; bo'g'inlarga bo'lish va bo'g'inlarni aniq talaffuz qilish, so'zdan, bo'g'indan tovushni kuchli talaffuz qilib o'qish, muayyan tovushni ajratgan holda so'zni bo'g'inlab o'qish (*aaaa-na, nooon, iiin, sssa-na, ki-yyyik, iish*).

2. Darsda o'rganiladigan yangi tovushni ajratish. Bunday tovushni birinchi marta ajratishning bir necha usuli bor:

a) so'zdan tovushni cho'zib talaffuz qilish bilan ajratish: *aaa-na, looo-la, booo-la;*

b) undosh tovushni yopiq bo'g'indan ajratish: *Usss-mon, O-limmm, A-minnn.*

d) sirg'aluvchi undoshni ochiq bo'g'in dan ajratish: *sssa-na, tuUYUa, zZZi-rak;*

e) bo'g'in hosil qilgan bir unlini ajratish: *o-na, u-mim, o '-tin, a-na, e-tik, i-pak;*

f) o'rganiladigan tovushni so'z boshida kelgan so'zlardan ajratish (so'zni o'qituvchi aytadi, birinchi tovushni esa o'quvchi aytadi): *non, tok, olm a,...;*

g) rasm nomini ifodalovchi so'zni aytish: o'qituvchi nokning rasmini ko'rsatib, *noo* deydi, o'quvchilar *κ* tovushini qo'shib aytadilar: *nok*.

3. So'zdagi tovushlarni sanash va ularning nom ini tartibi bilan aytish, sonini aniqlash, bo'g'inlarni sanash: *Olma — ol-m a; o-l-m -a* to'rtta tovush, to'rtta harf, ikki unli tovush, ikki undosh tovush, ikki bo'g'in Bu usuldan o'quv yilining ikkinchi yarmida va keying sinflarda ham fonetik tahlil sifatida foydalaniladi.

4. Jarangli va jarangsiz undoshli so'zlarni amaliy taqqoslash: *dil-til, zira-sira* kabi. Savod o'rgatishda analiz va sintez bir-biridan ajratilmaydi, chunki analiz o'qish jarayonini egallash uchun zamin yaratadi, sintez esa ko'proq o'qish malakasini shakllantiradi.

Savod o'rgatishda analiz va sintez bir-biridan ajratilmaydi, chunki analiz o'qish jarayonini egalash uchun zamin yaratadi, sintez esa ko'proq o'qish malakasini shakllantiradi.

II. Sintez mashqlari. 1. Tovush tom onidan analiz qilingan so'zni yoki bo'g'inni talaffuz qilish va uni kesma harfdan tuzish (yozish); shu so'z yoki bo'g'inni o'qish.

2. O'rganilgan undosh yoki unli bilan (*na, ni, no; la, lo, li; ay, uy, oy, ...*) bo'g'in jadvalini tuzish; bo'g'in jadvalini kitobdan yoki matndan o'qish; kesma harflardan bo'g'in jadvalini tuzish.

3. *Bola-lola-tola, boy-soy-loy, baxt-taxt, ona-ota, mosh-bosh* kabi bir undosh harf bilan farqlanadigan yoki *ona-ana, ukki-ikki, osh-ish* kabi bir unli harf bilan farqlanadigan so'zlarni o'qish (bunday so'zlarni o'quvchilarning o'zlari topib o'qishlari mumkin).

4. So'zning boshiga yoki oxiriga bir harf qo'shib, yangi so'z hosil qilib o'qish: *ola-lola, osh-bosh, oy-toy, boy, soy, !oy; o 'roq-so 'roq; olxol, sol; sava-savat; son-os-on; ayiq-qayiq; olti-oltin.*

5. So'z o'rtasiga harf qo'shib, yangi so'z hosil qilib o'qish: *ko'm akko'lmak, zirak-ziyrak, ta-na-tashna, sila-siyla* kabi.

6. Bo'g'inlarni almashtirib yangi so'z hosil qilish va o'qish: *GulnorNorgul, asil-sila* kabi.

7. Tovushlarning o'rnini almashtirib yangi so'zni hosil qilish va o'qish: *somon-osmon, tilak-kalit,*



q o 'y - yo'q.

8. Tovushni yoki bo'g'inni tushirib qoldirib, yangi so'z hosil qilish va o'qish: **anor-nor, gul-nor-gul, yelkan-yelka, bog'la-bola.**

9. Bo'g'in qo'shib yangi so'z hosil qilish va o'qish: **bog'-bog'bon, gul-gulzor, paxta-paxtakor.** Sintetik ishlaming bu usullari tovush ustida ishlashni harf ustida ishlash bilan birga qo'shib olib borishni talab qiladi. Bu ish usullari qiziqarli bo'lib, darsda yarim o'yin holatini vujudga keltirishga imkon yaratadi.

Xulosa qilganda, faqat analiz yoki faqatgina sintez bilan kifoyalanib bo'lm aydi, ammo tafakkur faoliyatining u yoki bu turi yetakchi o'rin tutadi. O'quvchi so'zni analiz qilish bilan uni leksik m a'noga ega bo'lgan bir butunlik sifatida angelaydi, bu — sintezdir; so'z sintez qilinganda uning tovush tarkibiga diqqat jalb etiladi, bu esa analizdir. Umuman, savod o'rgatish jarayonida analitik-sintetik ishlar tizimi bolaning faol fikrlashini ta'minlaydi. Analitik-sintetik ishlar usuligina o'quvchilarning bilish mustaqilligini ta'minlaydi, „muammoli“ vaziyat yaratadi, bolalarda kuzatuvchanlikni, ziyraklikni o'stiradi. Tovush-harf tom onidan analiz va sintezni yengillashtiradigan foydali vositalar sifatida kesma harflar, kesma bo'g'inlar va harf terish taxtasi, shuningdek, abak (harakat qiladigan lentali ko'rgazma), kadoskop, alifbo multimedia va shu kabi texnik vositalardan ham foydalaniladi; tovushlarning talaffuzi ustida ishlash uchun, shuningdek, yozib olingan ifodali nutqni (asosan, badiiy asarni) takroriy eshittirish uchun magnitafon yoki lingofon kabineti xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. M. G'ulomov. Chiroyli yozuv malakasini shakllantirish. — T.: „O'qituvchi“, 1992.
2. R. Ikromova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, D. Shodmonqulova. Ona tili (4 sinf uchun darslik). - T.: „O'qituvchi“, 2007.
3. R. Safarova va boshq. Savod o'rgatish darslari (Alifbeni o'qitish bo'yicha metodik qo'llanma). - T.: „Ma'naviyat“, 2003



ALISHER NAVOIY IJODINING O'RGANISHNING AHAMIYATI

Kilicheva Raxatay Kuziyevna

FFIDUM ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Tel: 90 317-20-04

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Alishe Navoiyning turkiy adabiyotda tutgan o'rni, o'quvchilarga buyuk mutafakkir ijodini o'rgatish ahamiyati yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan. Navoiy ijodi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: Tafakkur, insoniy tuyg'ular, hikmatlar, umuminsoniy g'oyalar, she'riyat, so'z san'atkori

Adabiyot darslarida milliy g'oya unsurlari o'quvchilar tomonidan aql yordamida o'zlashtiribgina qolmasdan, balki ularning tabiatiga singdirilishi, xarakter xususiyatlariga aylanib ketishi zarur. Boshqacha aytganda, milliy g'oya millat ahlining ko'ngil mulkiga aylanib qolishi kerak.

XXI asr minglab qirralari bilan Alisher Navoiy dahosini maydonga chiqargan

XV asrdan ilgarilab ketdi. O'z haq-huquqini tanigan insonni dunyoning bugungi misli ko'ril-magan darajasi ham qoniqtirmayapti. Lekin biz negadir Alisher Navoiy asarlariga ehtiyoj sezaveramiz, lug'atlar yordamida bo'lsa ham necha asrlar oldin yaratilgan she'riyatining mohiyatini tushunishga harakat qilaveramiz. Bu zaruriyat Navoiy shaxsi va ijodida abadiy insoniy orzularning tajassum topganligi bilan izohlansa kerak. Navoiy tafakkur rivojini shunday bir cho'qqiga ko'tarib qo'ydi, bu cho'qqi vaqt bilan basma-bas tobora yuksalmoqda – bashariyat bu cho'qqining poyiga yetish uchun hali necha-necha asrlar yo'l bosishi lozim bo'ladi. Shoir asarlari ulkan falsafiy, ijtimoiy, tasavvufiy mazmunidan tashqari, insoniy tuyg'ularni ilohiy so'z san'atkorligida ifoda etganligi bilan har qanday o'quvchi qalbiga yaqindir.

Navoiy asarlarining umuminsoniy g'oyasi – xalqparvarligi, adolatparvarligi, do'stlik, tinchlik, mehr-sadoqat, sof sevgi, vafo, ma'rifatlilik kabi go'zal tuyg'ularni yuksak badiiy shaklda ifodalashi orqali o'zbek adabiyoti shuhratini dunyo miqyosiga olib chiqdi va o'zi ham Nizomiy, Firdavsiy, Xomer, Shekspir, Dante, Gyote, Pushkinlar qatoridan o'rin oldi.

Shoir o'zbek adabiyotida g'azalchilikni yuksak bosqichga ko'tardi, betakror go'zal "Xamsa"si bilan xamsachiligimizga asos soldi, nasriy asarlari bilan o'zbek nasrchiligini katta yo'lga olib chiqdi. Adabiyot, ayniqsa, shoir va yozuvchilar, aruz ilmi, til va din, tarix haqidagi ilmiy asarlari orqali teran olim ekanligini namoyish qildi. Shoh Husayn Boyqaroning eng yaqin do'sti va saroyning eng obro'li kishisi – ulug' amiri sifatida xalq taqdiri, adabiyot, san'at, ma'rifat, obodonchilik va umuman mamlakatning taqdiri, taraqqiyoti to'g'risida jon kuydirishning ajoyib namunasi ko'rsatdi. U o'z davridayoq mehribon va talabchan ustoz sifatida buyuk hurmat-ehtiroimga sazovor bo'lgan edi, keyin o'zbek adabiyoti tarixida ham ijodkorlarning rahnamosi bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Alisher Navoiy o'zigacha yashab ijod etgan fors, turkiy va arab shoirlari, olimlari asarlarini chuqur o'rgangan. Jumladan, Firdavsiy, Nizomiy, Yassaviy, Lutfiy kabilarni sevib o'qigan. Yigitlik davridayoq "Zullisonayn" (ikki tilli, ya'ni ham turkiy, ham forsiy tilda ijod etuvchi) nomini olgan Alisher Navoiyning o'z ona tiliga muhabbati cheksiz edi va keyin butun ijodi davomida turkiy tilning qudrati va cheksiz imkoniyatga ega ekanligini yorqin namoyish qildi. U adolatli davlat arbobi edi. Navoiy "Vaqfiya" asarida "Ilgimdin kelganicha zulm tig'in ushotib, mazlum jarohatiga intiqom malhamini qo'ydim. Va ilgimdin kelmaganini ul hazrat (Husayn Boyqaro demoqchi) arzi-ga yetkardim", deganida juda haq edi.

"Donishmand arboblarning xotirida, - deb yozadi tarixchi Xondamir "Makorim ul-axloq" asarida, - "yashirin qolmasinki, yuqorida zikr qilingan binolarning (madrasalarning) sharofati va barakoti butun dunyoga shu qadar mashhurki, bundan ziyodani xotirga keltirib bo'lmaydi..."

"Badoye' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya"ni ham kitobat qildi. Lekin shoirning eng katta yirik dosotolarni yozish bo'lgan. Xamsanavislik an'anasiga ko'ra

Nizomiy Ganjaviydan keyin shoirlik qudratining mezoniga aylanib qolgan

"Xamsa" yaratishni o'ylar edi. Shoir bu maqsadini ham tezda amalga oshirdi. Olim-u fuzalo – barcha bu hodisani zo'r olqish bilan kutib oldilar. Jomiy yozadi:

"Bu qalamga falakdan ofarinlar yog'ilsin. Bu qalam forsiy til egalariga, forsha nazm durlar-



ini tergovchilarga rahm qildi: u ham shu forsiy tilda yozganida, boshqalarga so‘z aytishga majoli qolmasdi”.

Navoiy fors tilini juda mukammal bilgan va hatto “Muhokamat ul-lug‘atayin” asarida forsiy va turkiy tillarni bir-biriga ilmiy qiyoslab ularning o‘zlariga xos fazilatlari, imkoniyatlari va qudratini yorqin ko‘rsatib beradi. Vatanparvar Navoiy turkiy tilning kuchi, nazokati va katta imkoniyatini namoyish qilish, uning rivojiga katta yo‘l ochish maqsadiga asarlarini, asosan, turkiy tilda yozdi. Ayni choqda fors tilida ham kuchli asarlar yoza olishi, Sa‘diy, Husrav Dehlaviy, Hofiz va Jomiy kabi forsiygo‘y ulug‘ allomalar bilan ham bellasha olishini amalda isbotlash maqsadida Foni taxallusi bilan ham she‘rlar yozadi va “Devoni Foni” devonini tuzadi. Shoir Jomiyning “Nafohat ul-uns” asarini o‘zbek tiliga erkin tarjima qiladi, unga asoslanib falsafiy yo‘nalishdagi “Nasoyim-ul muhabbat” tazkirasini yaratadi. Ustoz Jomiyning shuhratini ulug‘lovchi “Xamsat ul-mutaxayyirin” asarini ham yozgan. Uning o‘zbek nasrchiligi rivojiga katta hissa bo‘lib qo‘shilgan “Mahbub-ul-qulub”, “Majolis un-nafois”, “Munshaot” asarlarini ham alohida ta‘kidlash zarur. Navoiy she‘riyati mazmunining chuqurligi, qamrovining kengligi, olg‘a surgan fikr-g‘oya, tilak-armonlarining yuksakligi va o‘tkirliigi janrlarining xilma-xilligi, shaklining mukammalligi va go‘zalligi, obrazlarining boyligi va hayotiyliigi bilan qimmatlidir? Chunki, Navoiy uchun inson butun tirik mavjudotning gultojidir, Allohning sevgan bandasidir. Hamma noz-u ne‘mat insonning saodatli umr kechirishi uchun yaratilgan.

Mumtoz adabiyotimiz bobokaloni Alisher Navoiyning sermazmun hayoti, yuksak insoniy fazilatlari, iqtidor va kamoloti zamondoshlariga namuna bo‘lganidek, bugun ham barchamiz uchun ibrat maktabidir.

Yoshlarning shaxsiy xislatlari, sa‘jiyasi, axloq-odobi, tahsil ko‘rganko‘rmaganligi ustozni ko‘p qiziqtirgan. Kamtarlik, muloyimlik, xushtavoze bo‘lish, mehnatsevarlik, burrolik, hozirjavoblikni ijodkorning fazilatlari deb bilgan, yalqovlik, parishonlik, jununsifat yurish, kekkayish, havoyilik, sharobxo‘rlikka berilish singari yomon odatlarni qattiq qoralagan. Bu kabi salbiy odatlar bir qancha yosh iste‘dodlarni nobud etganini qator misollar bilan ko‘rsatib beradi: “Mavlono Sayfiy... hushyorlig‘ va base odamiyvash va hayo odoblig‘ yigitdur. Ammo sarxushlikda o‘zga mohiyat bo‘lur, balki rasvonamo bo‘lur edi. Bu uchurda tavgag‘a tavfiq bo‘ldi. Umid ulkim, istiqomatg‘a ham muvofiq bo‘lg‘ay”.

Xullas, hazrat Alisher Navoiyning madaniyatimiz taraqqiyoti uchun qilgan ishlari, yosh iste‘dodlar tarbiyasiga g‘amxo‘rliigi hozir ham yuksak ahamiyatli va ibratlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov B, Karimov N. Adabiyot o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. T.:2003 –B.
2. Rafiev A, G‘olomova N O‘zbek tili va adabiyoti. T.:2004.-B.156-179.
3. Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari darslik majmuasi. T.:2006.-B.
4. To‘xliiev B Mirsamigova R. Adabiyot. Majmua 2- kitob –T.: Cho‘lpon, 2013. B. 80-



OMONIMIYA-SHAKLIY PARADIGMA ASOSIDAGI HODISA

Lafasova Mavjuda To'liqin qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti 1-kurs magistranti
Tel.raqam: +99899 790-15-22

Annotatsiya: Omonimlar-umumiy ma'no unsurlariga ega bo'lmagan, tasavvuriy bog'lanmagan, lekin bir xil yozilib, bir xil aytiladigan so'zlardir. Ana shunday so'zlarning tilda mavjud bo'lishi va shunga bog'liq hodisalar omonimiya deb yuritiladi. Omonimiya badiiy asarlarda, kundalik muloqot jarayonida keng qo'llaniladigan hodisa bo'lib, uning mavjudligi nutqni ta'sirchan qilishga sezilarli darajada hissa qo'shadi.

Omonimiya hodisasi turli tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan va o'rganilib kelinmoqda. Omonimlar mumtoz adabiyotda tajnis san'ati va tuyuq janrini yaratishda, askiya payrovlarida esa so'z o'yini va qochiriq sifatida ishlatiladi. Ushbu maqolada omonimlar haqida atroflicha fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: omonimiya, omonim so'zlar, tuyuq janri, tajnis san'ati, shakldoshlik.

Odatda, so'zlar aytilishi, yozilishi va ma'nolarini qiyoslash natijasida turli guruhlariga bo'lindi. Bir xil aytilib yoki yozilib, turli ma'nolarni ifoda qiluvchi so'zlar omonimlar deyiladi (grekcha homog – "bir xil", onyma – "nom"). Omonimlar quyidagi turlarga bo'linadi: a) haqiqiy omonimlar: ot – hayvon, ot – nom. Ot – biror narsani ulotqirmoq, ot – miltiq bilan otmoq; b) aytilishi bir xil, lekin ma'no-lari va yozilishi har xil bo'lgan omofonlar: qurt – hasharot, qurt – sut – qatiqdan qilingan ozuqa; ruscha лук– piyoz, луг – o'tloq; v) omograflar, ya'ni yozilishi bir xil, lekin talaffuzi va ma'nolari har xil bo'lgan so'zlar: son – raqam, son – odam jismidagi a'zo: inglizcha tear – ko'z yoshi, tear – yirtilmoq; g) omoforma yoki leksik-grammatik omonimlar, ya'ni grammatik shakli to'g'ri keluvchi, biroq ma'nolari farqlanuvchi so'zlar: qarg'a – qushning turi, qarg'a – qarg'amoq fe'lining buyruq shakli, o't – o'simlik turi, o't – olov, o't – o'tmoq fe'lining buyruq shakli, ruscha moy – olmosh, moy – buyruq fe'li. Ingliz tilida hour – soat, our – bizning, light – yoriq, light – yengil. Ba'zan bir xil yoziluvchi, biroq talaffuzida urg'uning o'rnini bilan farqlanuvchi qarg'a (qush) – qarg'a ("qarg'amoq" fe'li-ning buyruq shakli) omoformalar bir yo'la omograflar bo'la oladi.

Ba'zi omonimlar ona tilidagi so'zning yozilishi yoki aytilishiga boshqa tildan kirgan so'zning yozilishi yoki aytilishining mos kelib qolishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, tok – elektr quvvati, tok – uzum daraxti, to'rt – son, tort – ozuqa (ko'pincha o'zbek tilida to'rt deb talaffuz etiladi). Ko'pincha omonimlar tildagi tovush o'zgarishlari natijasida hosil bo'ladi. Masalan, ingliz tilida piece – bo'lak, peace – tinchlik, weak – kuchsiz, week – hafta, tear – ko'z yoshi, tear – yirtmoq kabi omonimlar tarkibidagi unli tovushlarning o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan. Ingliz tilida so'zlarning yozilishi va talaffuzi o'rtasida katta farq mavjud. Unda har xil yoziluvchi so'zlar ham bir xil talaffuz qilinishi mumkin: knight – farzin, night – kechasi, die – o'lmoq, dye – bo'yamoq kabi. Shu sababli bu tilda omonimlarning har xil turlari juda ko'p uchraydi. Ma'no jihatdan farqlanuvchi, biroq aytilishi va yozilishi bir xil bo'lgan so'zlar to'liq omonimlar deb ataladi. Agar so'zlarning faqat yozilishi yoki talaffuzi bir xil bo'lsa, ular to'liq bo'lmagan omonimlar deyiladi.

Omonimlarning kelib chiqishini so'zlarning ko'p ma'noli xususiyatlarining kamayishi bilan izohlash ham mumkin. Bosmoq fe'lining polisemantik, ya'ni ko'p ma'noli xususiyati kuchsizdir. Shu sababli bu fe'lining buyruq shakli "bosma", boshqa shu o'zakdan hosil bo'lgan "bosma" (qog'oz) oti bilan omonim bo'lib qolgan. Omonimlarni farqlashda ularning tarixiy kelib chiqishini ham hisobga olish zarur. Masalan, tug'ilmoq chaqaloq tug'ildi) va tug'ilmoq (fikir tug'ildi, hosil bo'ldi). Har ikkisi bir o'zakdan kelib chiqqan. Omonimlarning kelib chiqishida tildagi tovush o'zgarishlari, yozuv qoidalari va semantik siljishlar muhim manba bo'ladi. Omonimlarning ma'nolari nutq situatsiyasida, kontekstda aniqlanadi.

Tilda so'zlar shakli va ma'no munosabatiga ko'ra omonim, sinonim, antonim va paronim so'zlariga bo'linishi barchaga ma'lum. Bu esa nutqning chiroyli, ta'sirchan ifodalanishi va leksemalardagi nozik ma'no qirralarini farqlashga yordam beradi. Shakli bir xil, ma'nosi har xil so'zlar omonim so'zlardir. Shu jumladan, omonimlar ham shakli va qo'llanilish uslubi jihatdan alohida o'ringa ega so'zlardir. Omonimlarning yuzaga kelish sabablari har xildir:

1. Tilda azaldan mavjud bo'lgan ayrim so'zlarning shakllari tasodifan teng bo'lib qoladi:



baqa-qurbaqa, baqa-suv tegirmoni parrakdan harakat olib, tegirmon toshini aylantiruvchi metall qismi;

2. Bir ma'noli so'z leksik ma'noning ko'chishi oqibatida ko'p ma'noli so'zga aylanadi, keyinroq bosh ma'no va hosila ma'no o'rtasidagi bog'lanish unutilib, bir so'z negizida ikki boshqa-boshqa leksema paydo bo'ladi: kun-quyosh; kun- sutka, kun chiqqandan yana kun chiqqungacha bo'lgan vaqt;

3. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim leksemalar o'zbek tilidagi u yoki bu leksemaga shaklan teng bo'lib qoladi: toy(fors-tojik)-katta to'p qilib taxlab yoki bosib bog'langan mol va shu tarzidagi mol o'lchovi;

4. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan leksemalar orasida shaklan teng bo'lgan so'zlarning uchrashi omonimiyaga olib keladi: surat(arabcha)-rasm, surat(arabcha)-urf-odat;

5. Leksemalarning yasalishi ham ba'zan omonimlarni keltirib chiqaradi: qo'noq-tariq, qo'noq(qo'n+oq)-mehmon kabi.

Omonimlar mumtoz adabiyotda tajnis san'ati va tuyq janrini yaratishda, askiya payrovlarida esa so'z o'yini va qochiriq sifatida ishlatiladi. So'z ustalari, ayniqsa, shoirlar (Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, So'fi Olloyor, Habibiy va boshqalar) poetik ta'sirchanlikni oshirishda omonimiyadan unumli foydalanganlar. Xorazmiyning "Bo'yung sarv-u sanobardek beling qil, Vafo qilgan kishilarga vafo qil" bayti yoki Alisher Navoiyning "Olmani sundi nigorim—ol— dedi, Olma birla bu ko'ngulni ol—dedi, So'rdim ersa olmasining rangini, Ne so'rarsan?—olma rangi ol, dedi, tuyug'i buning yorqin isbotidir. Dastlabki paytda "qil" so'zi 2 ma'noda (qilga o'xshash ingichka; qilmoq- fe'lning o'zagi) ishlatilgan bo'lsa, tuyuqda "ol" so'zi 3ma'noda qo'llanilgan (buyruq fe'li; ko'ngil ovlamoq; qizil rang, ol rang).

Omonimiya hodisasidan Yusuf Xos Hojib ham o'z asarlarida unumli foydalangan:

Tili yalg'an erning jafa qilqi ul,

Jafa kimda ersa o'shal yilqi ul,

Kishi yalg'anindan tilama vafa,

Bu bir so'z sinamish o'gush yilqi ul.

Yuqorida yilqi ul so'zi "ot yoki otlar podasi, uyur" ma'nosini anglatib, (O'TIL. 2.269-bet), keyin baytdagi yilqi ul "ancha yilga oid, aytilaverib siyqasi chiqib ketgan gap" (O'TIL. 2. 268-bet) ma'nosini bildirayotgan so'z bilan omonimlik munosabatini hosil qilmoqda. Bu esa adibning so'z qo'llash mahoratining boyligini ko'rsatib beruvchi vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, omonimlardan foydalanish yozuvchining imkoniyatlarini kengaytiradi va asarning o'qishlilikini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E.A. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –T.: Fan, 1985
2. Aliqulov T. O'zbek leksikografiyasi 70 yil ichida // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1987 -№ 5
3. Hojiyev A. Mustaqillik sharoitida o'zbek tili lug'at tarkibining rivojlanish asoslari // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1994 -№ 1
4. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1984.



GRAMMATIKANI O'QITISHNING AHAMIYATI VA UNING ONA TILI O'QITISHDA TUTGAN O'RNI

Makarova Ayzada

Qoraqalpog'iston respublikasi Taxiotosh tumani
XTB qarashli 17-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada maktablarda ona tili darslarida grammatikani o'qitish va uning ahamiyati, uni ona tilini o'qitishdagi o'rni tahlil etilgan.

Kalit so'zlar; grammatika, ona tili, o'qitish, morfologiya, til, so'z.

Grammatika o'qitish o'quvchining umumiy bilim doirasining kengayishiga yordam beradi. Grammatika o'qitish jarayonida o'quvchining til sezgirligi oshadi. Bu holat ularda so'z tanlash, so'zni o'rnida ishlatish, gapni to'g'ri tuzish malakalarini hosil qiladi.

Maktabda grammatika o'qitishning maqsadi o'quvchilarga so'z tuzilishi va gap qurilishi haqidagi qonun-qoidalarni o'rgatishdan iborat bo'lib, u ona tili kursining bo'limlarini (orfografiya, punktuasiya, stilistika) o'rgatishni ko'zda tutadi. Bu esa fikrni to'g'ri, ravon, aniq ifodalash imkonini beradi.

Maktab dasturi va darsliklarida katta hajmdagi hamda chuqur lingvistik xulosalarning hammasini berib bo'lmaydi. Bu ilmiy xulosalardan o'quvchilar yoshiga, qabul qila olish darajasiga mos keladigan, shu bilan birga, juda katta amaliy ahamiyat kasb etgan, hayotiy tomonlari bilan ajralib turadigan o'rinlarini sinflar bo'yicha taqsimlab beriladi. Masalan: qaratkich kelishigi qo'shimchasi orqali o'nlab ma'nolar ifodalanadi. Lekin maktabda uning qarashlilik yo xoslik bildirishigina o'rgatiladi. Dastur va darsliklarida o'zbek tilshunosligi berayotgan ilmiy xulosalardan maktab uchun mos qoidalar, tushunchalar kiritiladi va o'qitiladi. Ilmiy va maktab grammatikasi orasidagi uzviy bog'lanish va ularning o'ziga xos xususiyatlari mana shu o'rinda namoyon bo'ladi.

O'zbek tili nihoyatda so'zga va ma'noga boy bo'lib, so'zlarning asl ma'nosi gap ichida ochiladi. Shuning uchun ham ma'nodosh so'zlar yoki qo'shimchalarning anglangan ma'nosi hamda qaysi so'z turkumiga oidligi so'z birikmasi va gap orasida tushuntirilsa, o'quvchilar ongiga yetib boradi. O'zbek tilining morfologiya bo'limida ot turkumi o'rganiladi. Ot turkumiga oid so'zlar nutqimizda eng ko'p qo'llanadi. Bunda tovush jihatidan har xil bo'lgan so'zlar ot, yosh, ter, ko'k kabilarning bir necha ma'noda qo'llanishi faqat gap ichidagina aniqlash mumkin. M: Qo'lingdan kelgan cha chiqar yaxshi ot, Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot. Nasixatim yod qilib ol, farzandim. Yolg'iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot. Bu to'rtlikdagi "ot" so'zi "nom", "uloqtir", "hayvon" ma'nolarida ishlatilgan. (Bu so'zlar morfologik tomondan bir so'z turkumiga oid emas.) Grammatikaning teng huquqli bo'limlari morfologiya bilan sintaksis doim bir-biri bilan bog'liqdir. Mustaqil so'z turkumlari-ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish kabilar gapda ma'lum bir sintaktik vazifani bajaradi, ular gapning biror bo'lagi bo'lib keladi. O'quvchi sintaksisni o'rganib, ayrim so'z turkumlarining morfologik belgilarini ularning sintaksis xususiyati bilan solishtirib, til hodisalarini ongli tushuna boradi. M: sifat turlanmaydi, gapda, odatda, aniqlovchi yoki kesim bo'lib keladi. Lekin sifatlar ba'zan ot kabi qo'llanib, gapda ot bajaradigan vazifalarda keladi.

5-7-sinflarda sintaktik tushunchalar hosil qilish uchun alohida dars soatlari ajratilmagan, balki morfologik mavzularni o'rganish bilan birgalikda olib boriladi. Yangi sintaktik vazifalarni aniqlash morfologiyadan nazariy ma'lumotlarni mustahkamlash maqsadida bajariladigan mashqlarni to'ldirish uchun ko'maklashadi. Amaldagi darslikda ot so'z turkumiga berilgan ta'rifda: "Otlar gapda bosh va ikkinchi darajali vazifada ham keladi, shuningdek, undalma vazifasida ham keladi." deyilgan. O'quvchilar bu ta'rifni tez o'zlashtirib oladilar. Ammo uni amalda qo'llay olishlari uchun yanada chuqurlashtirish zarur.

Grammatik tushunchalar turli grammatik ta'rif yo qoidalar orqali izohlanadi. Grammatik ta'riflar u yoki bu til hodisasining mazmunini, asosiy xususiyatlarini, belgilarini o'zida ifodalaydi. Grammatik ta'rif va qoida tufayli o'quvchilar u yoki bu mavzuni ongli va tez o'zlashtiradilar, fikrni ixcham ifodalash usulini o'rganadilar. Ta'riflash mumkin bo'lmagan ayrim til hodisalari qoidalar orqali beriladi. Kursning orfografiya, punktuasiya kabi bo'limlari, shuningdek, ma'nosi keng bo'lgan (qo'shma va qisqartma so'zlar, kelishiklar...) dalil va kategoriyalar ham qoidalar orqali o'rganiladi. Ta'rif va qoidalar ona tilini ongli o'zlashtirish asosidir. O'quvchilar grammatik ta'riflarni yod olishlari mumkin. Lekin bunda onglilik muhim o'rin tutadi. Maktab tajribasida shunday



ham bo'ladiki, ayrim o'quvchi ta'rif mohiyatini tushunsa-da, uni kitobdagiday so'zma-so'z aytib berolmaydi. Bunday xollarda qoidani kitobdagiday qilib aytib berishni talab qilish metodik jihatdan to'g'ri emas. Ba'zan o'quvchi grammatik ta'rifni darslikdagiday yod qilib aytib bersa ham, mustaqil misol keltira olmaydi. O'quvchi grammatik ta'rif yo qoidani darslikdagiday aytib bermasdan, balki o'sha qoidaning mazmunini o'z so'zlari bilan bayon etib bersa, bu uning mavzuni yaxshi tushunganligini ko'rsatadi. Shuning uchun maktab ta'limida ba'zan erkin ta'rifga yo'l qo'yiladi. Lekin bu o'rinda ham ehtiyotkorlik talab etiladi. Ayrim ta'riflar shunday mustahkam bo'ladiki, uning tarkibidan biror so'zni tashlab ketish yoki almashtirish mumkin emas.

Grammatika o'qitishda terminlar ham uziga xos ahamiyat kasb etadi. Har bir grammatik termin o'zi ifoda qilayotgan grammatik tushunchaning asosiy belgilarini ifoda qilishi kerak. Grammatik terminologiyada izchillikni, bir xillikni ta'minlash uchun bir hodisa hamma vaqt bir xil termin bilan aytilishi shartdir. Har bir ta'rif yoki qoida tarkibida bir yoki undan ortiq termin ishlatiladi. Masalan: "Fe'lning shaxs-son qo'shimchalari bilan o'zgarishi tuslanish deyiladi" degan ta'rifni ko'raylik. Bu ta'rifda "fe'l", "shaxs-son", "tuslanish" degan terminlar ishlatiladi. Grammatik terminlar vositasida o'quvchilar so'z turkumlarini, gap bo'laklarini ajratishni o'rganadi. Demak, grammatik bilimlarni o'zlashtirish natijasida o'quvchilarda grammatik tushuncha hosil bo'ladi. Hosil qilingan grammatik tushuncha bundan keyin o'rganiladigan grammatik bilimlarni o'zlashtirish uchun, o'zlashtirilgan grammatik bilim yangi tushunchalar hosil qilish uchun asos bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov X., Rafiyev M., Shodmonqulov D. O'zbek tilining amaliy grammatikasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1993 yil.
2. A'zamov S. Maktab grammatikasi va ilmiy grammatika xususida. "Til va adabiyot ta'limi", 1992 yil, 2-son,
3. Shamsiyeva M. "So'z turkumlarini sintaksis asosida o'rgatish". Ilmiy ishlar tuplami. TDPI., 1991 yil,



ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: INGLIZ TILINI O'QITISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB DARSLARNI TASHKILLASH

Mamatova Zilolaxon Xabibulloxonovna
o'qituvchi, FarDU

Anotatsiya: Bugungi kunda ingliz tilni bilish o'ta muhim ahamiyat kasb etganligi bois chet tili o'qitish tizimini ham isloh etish, dars jarayonlarida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or usullarini qo'llash ta'limdagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ingliz tilini o'rganishda tasavvurni boyitish uchun tilga oid elektron videolar, animatsiyalar va audio vositalardan foydalanishning bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Axborot-kommunikatsion texnologiyalar, animatsion video, audio yozuv, elektron qo'llanma, animatsiya, interfaol usullar.

Аннотация: Поскольку знание английского языка очень важно сегодня, важно реформировать систему обучения иностранному языку, использование передовых методов обучения с использованием современных педагогических и информационно-коммуникационных технологий в учебном процессе. стал одним из вопросов. Важность использования электронных языковых видео, анимации и аудио инструментов для обогащения воображения в изучении английского языка подчеркивается сегодня.

Ключевые слова: Информационные и коммуникационные технологии, анимационное видео, аудиозапись, электронное пособие, анимация, интерактивные методы.

Annotation: As knowledge of English is very important today, it is important to reform the system of foreign language teaching, the use of advanced teaching methods using modern pedagogical and information and communication technologies in the teaching process. became one of the issues. The importance of using electronic language videos, animations, and audio tools to enrich the imagination in learning English is highlighted today.

Key words: Information and communication technologies, animated video, audio recording, electronic manual, animation, interactive methods.

Bugungi kun o'qituvchisiga barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdek mas'uliyatli vazifa yuklangan bo'lib, ta'lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish, zamon bilan hamnafas bo'lib, ta'limning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda o'quvchilarda o'z faniga qiziqish uyg'otishlari, hurmat-ehtiromlarini tuyg'ularini shakllantirib borishlari talab etiladi. Ta'limda ijobiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslarini puxta o'rgatish, ularda dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini kengaytirish, ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta'limiy tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi. Bu borada ta'lim-tarbiya jarayoniga ko'plab o'zgartirishlar kiritilmoqda, yangicha yondoshuvlar tadbiq etilmoqda. Shulardan biri, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib dars o'tishda mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga erishish hisoblanadi. Masalan: ingliz tili fanlarida katta ekranda harflarni, so'zlarni bir-biriga qo'shib o'qish, so'ngra kichik ertak va hikoyalarni o'qish, harflarni to'g'ri va chiroyli yozish; ona tili fanida slaydlar yordamida tushunchalar berish mumkin. Ushbu usullardan foydalanish yosh va bilimga chanqoq o'quvchining og'zaki nutqini rivojlanishiga, og'zaki hisoblash malakasini oshirishiga, ijodkorlik, izlanish va fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish o'qituvchiga katta yordam beradi. O'quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Elektron darsliklarni matn va ovoz shaklida, slayd-shou ko'rinishda berish maqsadga muvofiq. Audio va video axborotlarning o'zaro birgalikda qo'llanishi o'qitish samaradorligini keskin yuksaltiradi.

Bu kabi texnologiyalarni qo'llashda, dars va mashg'ulotda qaysi darajadagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni nazarda tutilganiga bog'liqdir. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarining muammoli ta'lim yo'nalishi keng qamrovli bo'lib, o'quvchilarni o'ylashga, muhim xulosalar chiqarishga qaratilgan.



АКТ ning afzalliklari va kamchiliklarini T sxemasi ko‘rinishida tasvirlanishi.

Dars jarayonlarida o‘qitishning muammoli topshiriqlardan foydalangan holda darslarni tashkil etish- o‘quvchilarning mustaqil tadqiqotchilik faoliyati oshirish bilan birga tashabbuskorlik tuyg‘ulari ortib, o‘quvchilar o‘z-o‘zini boshqaruvi amalga oshadi, yaratuvchanlikka undaydi, yaratuvchanlikni o‘rgangan bola boshqa har qanday sohaga hech qiyinchiliklarsiz erishadi.

Ma’lumki, ingliz tili fanining bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirishda so‘z, gap, uning tuzilishi haqida bilim berish maqsadlarni nazarda tutadi. Muammoli o‘qitish jarayonida beriladigan topshiriqlar asosan o‘quvchilarga tadqiqiy, evristik, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish bo‘yicha topshiriqlar beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. R. Boqiyev. “Informatika” fanini kasbiy sohalarga yo‘naltirib o‘qitish metodikasi. Metodik qo‘llanma. T.: TDPU, 2012 y.
2. Юлдашев У.Ю, Зокирова.Ф.М. Методика преподавания информатики. Т.: “Алоқачи”, 2005 г.



“VATANNI MADHINI KUFLAGAN SHOIR”-ABDULLA ORIPOV HAYOTI VA IJOD YO‘LI

Mamayusupova Maftuna

Gidromeliorativishlarni mexanizatsiyalash
fakulteti 301-guruh talabasi

Annatatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston qahramoni va xalq shoiri Abdulla Oripov hayoti va ijodiy faoliyati yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Vatan, Kosonsoy, Qashqadaryo, Mirzo Ulug‘bek Sobiq ittifoq, madhiya, universitet, jurnalistika.

O‘zbekiston qahramoni, xalq shoiri va jamoat arbobi Abdulla Oripov 1942-yil 21-mart kuni Qashqadaryo viloyatining Kosonsoy tumanida tavallud topgan. Oilada to‘rt o‘g‘il, to‘rt qiz bo‘lishgan. Abdulla Oripov kenja o‘g‘il bo‘lgan.

Shoir tahsilni Toshkent Davlat Universiteti ya‘ni hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universitetining “O‘zbekfilologiyasi” fakulteti jurnalistika bo‘limiga o‘qishga kirib. 1963-yilda imtiyozli diplom bilan bitiradi. Abdulla Oripov o‘zining ilk “Qush” nomli she‘rini universitetda o‘qigan kezlari yozgan. Adibning “Bahor”, “Dengizcha”, “Malomat toshlari”, “Bir-inchi muhabbatim”, “Munojotni tinglab” va boshqa she‘rlari–XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyotining yorqin namunasi. Shoirning ilk she‘riy toplami “Mitti yulduz” deb nomlanib, 1964-yilda chop etilgan. She‘riy to‘plamga shoirning eng mashhur she‘ri “Men nechun sevaman O‘zbekisonni” ham kiritilgan. Abdulla Oripov bobomizni doim yodga olganimizda osmondagi miti yulduzchadan tortib, Ona Vatanimizning cheksiz kengliklari qadar yastanib ketgan bag‘rikeng o‘zbekona she‘riyatda gavdalanadi. Shoirning har bir she‘rida Vatanga bo‘lgan kuchli muhabbat mujassam. Bunga yorqin isbot qilib jonajon O‘zbekistonimizning davlat madhiyasini ko‘rsatish mumkin. Madhiyamiz so‘zlari naqadar ajoyib, naqdar nafiski shoirning teran fikrliligidan habar bermoqda. Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng 1996-yil Vashingtonda O‘zbekiston elchi xonasining yangi binosi ochilishi munosabati bilan Abdulla Oripov “Ummon ortidagi makonim” she‘rini yozadi:

Keng jahon bir qadam bo‘ldi men uchun,
Menga ham ochildi olam darchasi,
Yiroq Amriqoda taft sochar bu kun
O‘zbek quyoshining olov parchasi.

Sobiq Ittifoq davrida o‘zbek xalqining naqadar qadri toptalgani, xo‘rlangani barchamizga ma‘lum. Ijodkor bu she‘rida mustaqillik o‘zbek xalqimizga juda ko‘p yo‘llarni ochganini, imkoniyatlar behisob ekanligini ifodalab turibdi.

Aylayin qalbimni tortiq nurli bo‘stonim, senga
Sen Vatandirsan, fidodir tanda bu jonim senga.

Abdulla Oripov bu “O‘zbekistonim, senga” nomli she‘rini 1993-yil yozgan. Ijod namunalarining har bir satrida Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbati, sadoqati, hurmati va e‘zozlari yaqqol mujassam. Uzoq yurtlarda Vatan sog‘inchi bilan yashagan chog‘larida yozgan she‘rlari ham talaygina. Ularning ham ichida ajib bir ma‘no yashirin. Xususan, so‘zlarimga isbot qilib “Agar sensiz....” (2015-yil, Amerika. Xyuston) she‘rini ta‘kidlab o‘tmoqchiman:

Quyosh chiqib charaqlaydi tengsiz bu olam,
Qushlar sayrar, esar tongning shamollari ham,
Bamisoli qayta boshdan tug‘ilgay odam,
Agar sensiz o‘tar bo‘lsa onlarim bekor,
Tandagi bu jonim bekor, shonlarim bekor.

Xo‘sh, Abdulla Oripov nigohida Vatan qanday? Abdulla Oripov shunday degan ekan: “-Umrinning eng buyuk hikmatini sizlarga aytib beraymi? Biz ko‘rgan zamonlarni aytib bersam, hozir sizlarga cho‘pchakdek tuyulishi mumkin. Lekin mening bu dunyoda shuncha yashab, ko‘rgan eng buyuk hikmatim-Vatanimning ozodligi, el-u yurtimning ko‘ksiga shamol, yelkasiga oftob tekkanligidir. Mening bundan buyukroq baxtim ham, hikmatim ham yo‘q”. Bunday baxtni she‘r qilib kuylay olish baxti, umrni shunday ezgu burchga bag‘ishlamoq saodati yanada g‘ururbaxsh va zavqliroq. Ha Vatan ozodligi yo‘lida ijod qilish buyuk ne‘matlardan biri menimcha. Mehribon



yaratgan egam bunday ne'matni bobomiz Abdulla Oripovga nasib etgani qanday baxt!

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam Vatanparvarlik ulug' bir ne'mat ekan. Bu ulug' ne'mat sohibi ya'ni "Vatanni madhini kuylagan shoir" Abdulla Oripov bobomizning ruhlarini shod va nomlarini abadiy qilishimiz uchun biz yoshlar astoydil harakat qilib, eng zo'r marralarni egallashimiz kerak deb hisoblayman. Bunga sabab sho'ro davrida qancha qiyinchiliklar bo'lmasin ota-bobolarimiz sabrlilik bilan mustaqillikka erishdilar. Shuning uchun biz yoshlar hamisha ota-bobolarimizning mehnatlarini qadrlab, Abdulla Oripovdek suyukli ijodkorlarni ham qalblarda mangu xotira bo'lishini ta'minlaylik. Ahir, Vatanimiz madhini kuylagan shoir cheksiz hurmat va e'zozga munosib!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov - Tanlangan asarlar. Toshkent 2020-yil
2. www.ziyouz.com



AMERIKA VA BRITANIYA INGLIZ TILIDA FRAZELOGIK BIRLIKLARNING QIYOSLANISHI

Muxamadiyeva Nodira
O'zbekiston Milliy Universiteti
2 bosqich magistranti

Annotatsiya: Bu maqolada Amerika va Britaniya ingliz tilidagi frazeologik birliklar o'zaro qiyoslanadi. Ular orasidagi farq shunchalik uzoq tarixga borib taqaladiki, ularni faqatgina, o'rganib, amalda qo'llabgina ajratish mumkin.

Kalit so'zlar: millat, frazeologik birliklar, iboralar.

Har bir elat millatning, boshqa millatlardan farqi uning tili, dini, qadriyat, urf-odatlarini o'ziga xosligidadir.

Xuddi shunday ingliz tilini o'rganayotganlar bilishadiki, ingliz tili lug'ati, fonetikasi, frazeologik birliklari, intonatsiyasi shu tilda so'zlashuvchi davlatlarnikidan farq qiladi. Amerika va Britaniya ingliz tillarida gapirish bir xil tilda bo'lsada, biroq talaygina tushunmovchiliklarga duch kelish mumkin. Ular orasidagi farq nafaqat grammatikada, balki talaffuzda, til korpusida va boshqa sohalarida ham ko'zga tashlanadi.

Xo'sh, nima uchun ular orasidagi farqlarni bilib olish shunchalik muhim?

Ko'pincha bir xil yozilgan so'zlar har ikki davlatda mutlaqo boshqa ma'nolarda ishlatilishi ham mumkin, va bu tilni amalda qo'llayotganlarni kulgili va hijolatli vaziyatlarga olib kelishi mumkin.

Agar biz tarixga nazar tashlasak, qanday qilib bu ikki davlat o'rtasidagi farq kengayganini ko'rishimiz mumkin.

Amerikalik inglizlarning Britaniya inglizlariga ta'siri bunga birinchi sabab bo'la oladi, bu yaqin yuz yillar bilan emas, undan ham ilgari vaqtlarga borib taqaladi.

Ba'zi frazeologik birliklar, garchi paydo bo'lishiga ko'ra Amerikaning frazeologik birliklari bo'lsa ham, Britaniyaliklar ularni o'zlariniki qilib olishgan, ya'ni o'zlarining frazeologiyasi sifatida tan olishgan.

to make/cut a long story short (Uzoq hikoyani qisqartirish)

rule sth with an iron hand/fist show (Qattiqqo'llik bilan boshqarmoq)

Bu kabi birliklar aslida Amerikaliklarniki bo'lsa ham, Britaniyaliklar tomonidan keng ishlatiladi. Shu sababli ham lug'atlarda Amerikaliklarniki ekanligi belgisi ko'rsatilmaydi.

Asli kelib chiqishi Amerikaniki bo'lgan iboralar, ingliz tilida, xususan jurnalistika yoki ommaviy axborot vositalarida modaga aylandi. Bu ta'sir san'at, film, OAV, media, jurnalistika ta'siri orqali yuzaga keldi. Garchi ko'pchilik ularni aslida Britaniyaniki deb ta'n olmagan bo'lishsada, endi bu iboralar faqatgina Amerikaniki emas edi.

Amerika Qo'shma Shtatlari va Buyuk Britaniya o'rtasidagi tilshunoslik aloqalari asrlar davomida o'zgarib kelgan, ammo odatda ingliz tilida so'zlashadigan inglizlar amerikalik inglizlarga nisbatan har xil dushmanlik darajalarini ko'rsatib kelganlar. Massachusetts va Virjiniya sharqiy qirg'og'ida birinchi Evropalik mustamlakachilar joylashganda, bu til Shimoliy Amerikaga olib kelingan. Aniq sabablarga ko'ra ingliz tiliga kirib borgan birinchi so'zlarning barchasi tabiat, flora yoki fauna kabi yangi hududlarga xos bo'lgan opossum, xurmo yoki rakun bilan bog'liq edi.

Amerikancha so'zlar hatto an'anaviy ingliz tilidagi so'zlarni ham siqib chiqarishi mumkin edi. Britaniyada botqoq o'simliklarining ayrim turlarining mevalari botqoqlik yoki rezavor mevalar sifatida tanilgan. 1686 yilda Shimoliy Amerika bilan bog'liq bo'lgan mevalar Yangi Angliyadan olib kelinganida, ular Amerikada ularga berilgan nom bilan atalgan: **cranberries**.

Shunday qilib, Amerika va Britaniya ingliz tillarida iboralar har ikki millat tomonidan keng qo'llaniladi. "bury the hatchet"¹ (nizoni tugatish va tinchlik o'rnatish) iborasini oladigan bo'lsak, bu ibora aslida Amerikaning iborasi hisoblanadi. Ammo hozirda barcha ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda keng qo'llaniladi.

Va shunday iboralar ham borki, ular aniq Amerikaliklar tomonidan qo'llaniladi, sababi, ular Amerika madaniyati, urf-odatlarini aks ettiradi.

¹ According to the *American Thesaurus of Slang* (ATS) the earliest date of occurrence of this expression can be traced back to 1754.



**be whistling Dixie, 50 million Elvis fans can't be wrong
or a new kid on the block.**

O'rganishlar natijasida shu narsa aniqlandiki, frazeologik birliklarni solishtirishda ko'pincha birgina so'zda farq ko'rinadi.

American English Silent partner, chew the rag, burn your bridges

British English Sleeping partner, chew the fat, burn your boats

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, iboralar tilimizni, lug'atimizni boyitadi, ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi, shuning uchun ham ularga kundalik hayotda ham ko'p murojaat qilamiz. Ammo ibora va so'zlarni ishlatayotganda ham ularning ma'nosi o'zgarib ketmasligiga e'tiborli bo'lish kerak, sababi aytganimizdek frazeologik birliklarda farqlar mavjud va ularni noo'rin ishlatilishi natijasi, chalkashliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. American slang and phraseology beyond their borders Ramon Marti Solano.
2. <https://www.native-english.ru/idioms/category/w/4>.



О‘РТА МАКТАBLARDA INGLIZ TIL TA‘LIMIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI O‘QITISHNING METODOLOGIK TAVSIFI

Otaxanov Adxam Xaydarali o‘g‘li

Uychi tuman “Magnavr laconic centre” Ingliz tili O‘qituvchisi

E – mail address : lasetti1995@mail.ru

Annotatsiya : Chet til ta‘limi maqsadi sifatida madaniyatning ma‘naviy qadriyatlar tizimi sifatida anglanishi tushunilmoqda. Bu o‘rinda madaniyat – tili o‘rganilayotgan xalq yoki jamiyat tomonidan turmushning maishiydan tortib falsafiygacha bo‘lgan barcha jabhalarida yaratilgan va to‘plangan, amalga oshgan yoki oshmagan ma‘naviy qadriyatlar majmuini ifodalaydi.

Tayanch so‘zlar : o‘quv reja , dastur , kompetensiya , kommunikativ kompetensiya , Grammatik kompetensiya , grammatika , kommunikativ kompetentlik , malaka , ko‘nikma , shaxsiy fazilat , sotsiologiyistik kompetensiya .

CEFR – Yevropa mamlakatlarida o‘quv reja, dustur va imtihon savollarini ishlab chiqish hamda darsliklar yaratish uchun tayanch yo‘riqnoma bo‘lib, unda til o‘rganuvchilar tildan foydalanish va samarali faoliyat olib borish uchun nimalarni o‘rganishlari, qanday bilim va malakalarni qay darajada egallashlari lozimligi bayon qilingan. Hujjat chet til o‘rganish va undan foydalanishning faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuviga asoslanadi. Unda chet tillarni har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash, unga tanlagan sohasida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘ladigan kompetensiyalar va fazilatlarga ega bo‘lishiga ko‘maklashish maqsadida o‘qitish lozimligi belgilangan.

Kommunikativ kompetensiya atamasiga o‘rganilayotgan chet til bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo‘llash qobiliyati, degan mazmunda ta‘rif berilgan [6]. Ushbu atama tarkibidagi asosiy tushunchani ifodalovchi kompetensiya (competence) so‘zi dastlab N.Xomskiy tomonidan “grammatik kompetensiya”, ya‘ni gapiruvchi va tinglovchining til haqidagi bilimi, degan ma‘noda qo‘llanilgan.

D.Xayms bola til haqidagi bilimlar (grammatika)ni o‘zlashtirish jarayonida undan to‘g‘ri foydalanishni ham, ya‘ni qachon, qayerda, kimga, qay tarzda va nima haqida gapirish maqbulligini o‘rganish orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirib boradi, deya kommunikativ kompetensiya atamasining muallifiga aylandi. Bugunga kelib kompetensiya insonning turli sohalarda faoliyat olib borishi uchun zarur bo‘ladigan bilim, malaka, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlar yig‘indisini ifodalaydi. Lingvistik kompetensiya til materiali (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o‘qish va yozuv) bo‘yicha ko‘nikmalar egallashni nazarda tutadi.

Sotsiologiyistik kompetensiya so‘zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi. Sotsiologiyistik kompetensiya ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o‘z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini: o‘zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlarini, qadriyatlari, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarni bilish hamda tili o‘rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko‘zda tutadi.

Sotsiologiyistik kompetensiya – axborot sohibi (kognizant)ni shakllantirishning asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, u shaxsning o‘rganilayotgan tildan kommunikativ faoliyat me‘yorlari, o‘zga lingvoetnomadaniy qadriyatlar va o‘zga til dunyosining milliy manzarasiga uyg‘un tarzda foydalana olish kompetentligini nazarda tutadi.

Sotsiologiyistik kompetensiyani madaniyatlararo kompetensiyaga fikran bog‘lash mumkin. Chunki sotsiologiyistik kompetensiya deganda, ko‘proq ta‘lim sharoitida o‘quvchilarni madaniyatlararo hamkorlikka tayyorlash tushunilmoqda. O‘quvchilarga madaniyatlararo muloqotni o‘rgatish birinchidan, xorijiy tildagi kodlarni o‘zlashtira olish uchun nutqiy faoliyat yuritishga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ikkinchidan, turli madaniyatga mansub kommunikantlar bilan uchrashganda, ularning madaniyatini tushunishlari uchun suhbatdoshining madaniyati bilan yaqindan tanishtirish orqali amalga oshiriladi. Xorijiy til va begona madaniyat bilan tanishish o‘quvchilarning dunyoqarashini, til boyligining kengayishiga xizmat qiladi.

O‘quv dasturida ta‘kidlanganidek, chet til va madaniyat yaxlit (integratsiyalashgan) holda o‘rgatiladi. Madaniyat, bu o‘rinda, inson fikri va faoliyati hosilasi tushunchasini ifodalaydi. Chet



til o‘rganish jarayonida o‘rganilayotgan til sohiblari yaratgan madaniy merosning o‘zlashtirilishi targ‘ib etiladi. O‘quvchini (learner) nafaqat muloqotdosh, balki axborot sohibi (kognizant) maqomida o‘rganilayotgan tildan foydalanuvchi sifatida shakllantirishga ustuvor ahamiyat qaratiladi.

Madaniyatlararo kompetensiya muomala jarayonida madaniyatlarning yaqinlashuvi, bir madaniyat rakursidan madaniyatlarni solishtirish, qiyoslash rakursiga o‘tishdir. Chunki bu jarayonda nutqiy muloqot turli madaniyat va tilga mansub kishilar o‘rtasida sodir bo‘ladi. I.I.Xaleyeva madaniyatlararo kompetensiyani “turli madaniyatga va tilga mansub kishilarning o‘zaro hamkorligining xos yig‘indisi” - deb e‘tirof etadi. Olimaning yozishicha, sheriklik, hamkorlik jarayonida turli madaniyatga mansub kishilar bir-birlarining nafaqat madaniyatlaridagi farqni bilib, his qilib qolmay, balki, bir-birlariga “begona”, “yot”, “notanish” ekanliklarini ham his qilib turadilar

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – T.: O‘kituvchi, 2012. – 432 b.;
2. 2. Bakiyeva G., Maxkamova G., Kuldoshev A. English 3. – Tashkent, 2007.;
3. Jalolov J., Makhkamova G., Ashurov Sh.



FURQATNING ILMİY MEROSI VA UNING AHAMIYATI.

Ozoda Avganova

(Toshkent Arxitektura va Qurlish Instituti
Qurilishni boshqarish fakulteti
Menejment yoʻnalishi)

Annotatsiya: ilmiy va ijodiy merosining o'zbek mumtoz adabiyotining eng yaxshi an'alarini davom ettirgan va o'zbek adabiyoti rivojini yangi bosqichga ko'targan mumtoz va zamonasining mashhur shoiri Zokirjon Xolmuhammad O'g'li Furqatning ilmiy merosini tahlil etish.

Kalit so'zlar: Fuqarolik jamiyati, ma'naviy boyluk, ma'rifat, ma'naviy, taraqqiyot, tadqiqot, firoq.

Mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng, o'zbek xalqi fuqarolik jamiyati rivojlanishining ma'naviy-ma'rifiy sohalarida katta yutuqlarga erishdi: ular o'zlarining milliy xususiyatlarini angladilar, ularning mentaliteti dunyoga tarqaldi, adabiyot va san'at rivojlandi. Xalqlar va xalqlar o'z qadr-qimmatini tikladilar. Ya'ni, adabiyot qalbning ongi, ma'naviy boyligiga aylandi. Vataniga bo'lgan nostalji bilan yozilgan she'rlari bilan ma'naviy boyligimizni to'ldirgan buyuk insonlardan biri bu Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatdir.

Furqatning lirik merosi beqiyos va bir necha ming g'azal qalblarni larzaga soladi.

Furqat adabiy merosining asosiy qismi lirik she'riyatdir. U o'zbek adabiyotida gumanistik lirikaning rivojlanishiga hissa qo'shgan shoir. Furqat o'zining eng yaxshi lirik asarlarida Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy, Bobur, Mashrab, Ogahiy kabi ustozlarning tajribalaridan foydalangan holda o'zbek lirik she'riyatining ifodasini kengaytirdi. U she'rlarida insonning eng murakkab, ta'riflash qiyin bo'lgan ruhiy holatlarini ifoda etish qobiliyatini namoyon etdi. Furqatning birinchi lirik mashqlari juda qisqa edi. Uning she'rlari mashhurligi tufayli yoshligida maxsus divan tuzilgan va Muqimiy singari taniqli shoir o'zining "Olturgusi" radikal g'azalini bag'ishlagan.

Furqat lirikasining ko'p qismi asrlar osha muhabbatga asoslangan. Ammo Furqat o'z davrining shoiri edi. Va o'sha paytga kelib, narsalar o'zgardi va yangilandi. Shuning uchun shoir lirikasida ushbu yangi davrda yashayotgan yangi odamning quvonchlari, qayg'ulari, kuzatuvlari va xulosalari tasvirlangan. An'anaga to'liq mos ravishda yaratilgan lirik she'riyat ham to'satdan zamon muammolarini aks ettiradi. Shoir asarlarining tili Muqimiy she'rlariga qaraganda ancha murakkab, chunki Furqat arab va fors adabiyotining yuqori tajribasi ta'sirida eng yuqori she'riy an'alar ruhida shakllangan va nozik ruhiy iboralarni batafsil bayon etishga intilgan. U turli his-tuyg'ularni va murakkab hayotiy vaziyatlarni tasvirlashda arab va fors so'zlaridan yaxshi foydalanadi. Furqat ijodi o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining yuksalishidan dalolat beradi. Zokirjon Furqat - bu haqiqiy o'zbek jurnalistlarining birinchisi. Furqatning o'nlab maqolalaridan tashqari, "Turkiston viloyati" gazetasida 1891 yil yanvar-iyun oylarida "Xo'qon shoiri Zokirjon Furqatning ahvoli." "O'z-o'zidan yozish" memuarasi buni isbotlaydi. Adabiyotshunoslikda bu asar "Furqatnoma", ba'zan "Sarguzashtnoma" deb nomlanadi. Ushbu asar shoirning turmush tarzi va dunyoqarashini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

Furqatnoma ham jiddiy tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu shoir shaxsiyati haqida juda halol tarzda hikoya qiladi. Uning etti yoshida maktabga borganligi, sakkiz yoshida Mantiq ut-tayr bilan tanishganligi, to'qqiz yoshida Hazrat Navoiyning asarlarini o'qiy boshlagani va Qur'onni o'n bir yoshida tugatgani haqida xabarlar. Kitobdagi ma'lumotlar juda qiziqarli va sokin uslubda taqdim etilgan. "O'sha paytda bozorda bir rus odamini ko'rsam, qochib o'tib ketar edim", dedi Furqat. Men hatto rus tilida gaplashadiganlardan nafratlandim", - dedi Devid Kuk, "Christian Science Monitor" ning Vashingtondagi byurosi boshlig'i. Shoir o'sha paytda Nikolay Ostroumov tomonidan tahrir qilingan gazetada tarjimon bo'lib ishlaganini hisobga olsak, uning asarlari Furqatning jasoratli shaxsini aks ettiradi.

Shoir "Furqatnoma" ning keyingi qismlarida Toshkentga kelgan yangiliklardan olgan taassurotlarini tasvirlaydi. Matbaalar, gimnaziyalar, muzeylar, ko'rgazmalar, teatrlar va boshqalar xorijiy tushunchalarning mohiyatiga juda sezgir. Shu bilan birga, u bizdan o'rganish orqali hayotimizni yaxshilashga undaydi. Furqat ijodi namunasi shuni ko'rsatadiki, yangi o'zbek adabiyoti xalq hayotidagi muammolar haqidagi umumiy g'oyadan ma'lum bir tarixiy bosqichda xalq hayotiga oid aniq masalalarni tavsiflashga o'tdi. Adabiyotning mavzulari, yo'nalishlari va



janrlari doirasi yangilab brogan.

Muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari bilan hozirgi kunda milliy adabiyotimizda katta islohotlarni amalga oshirib kelmoqdalar. “Adiblar Xiyobonining” qayta ta’mir qilinganligi va talaba yoshlarning darsdan bo’sh vaqtlarida aynan shu xiyobonda malakali adabiyotchi olimlar bilan jonli suhbatlari buning yaqqol misolidir. Albatta, shak- shubha yo’qki, tarixini kimligini bilgan yosh avlod yurtining kelajagi uchun, vatani uchun munosib hissa qo’sha oladi. Zokirjon Xolmuhammad o’g’li Furqat esa, o’zidan juda katta ilmiy badiiy meros qoldiribgina qolmay, butun umr yurt sog’inchida bo’lib shu taxallusni olgan. Xulosa qilib aytish kerakki, yoshlarga aynan ushbu adibning ishlari hayotini o’rnak qilib ko’rsatilishi va uning ilmiy merosini ya’nada ko’proq o’rganishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Furqat. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1959.
2. Furqat. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1980.
3. Furqat. Asarlar majmuasi. Ikki jildlik (arab imlosida). Toshkent, 1990.
4. Sayohati Furqat. O’zbekiston adabiyoti va san’ati, 1990-yil 14-dekabr.
5. Furqat. Qavoidi Chin va umuroti siyosiy. Sharq yulduzi, 2001, Ikkinchi fasl.
6. N.Jabborov. „Jahon basti kushodi ilm birla...“, (Furqat hayoti va ijodining xorijda o’rganilishi) Jahon adabiyoti, 2001,



ТА'ЛИМНИ ТАШКИЛ ETISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Rahmatova Nargiza Dolibayevna
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi
telefon: +998909183175

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonini interfaol uslublar yordamida amalga oshirish uchun o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi, interfaol ta'lim jarayonida o'quvchini barcha yo'nalishlarda ishlash ko'nikmasini shakllantirish, o'qituvchining metodik tayyorgarligida pedagogik loyihalash muhim ahamiyatga egaligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: metodologiya, pedagogik texnologiya, tasavvur, interfaol, loyiha, pedagogik mahorat

Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab talaba (o'quvchi)ning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Jahon pedagogik tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning talaba (o'quvchi)larni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda.

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan ahborot - ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, ahborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

Yuksak mahoratli omilkor shahsni shakllantirish yo'nalishiga o'z mutahassisligi boyicha puhta tayyorgarlik, metodologik bilimlarni egallash madaniyati bilan birga pedagogik ijodkorlik ham kiradi. Ijodkor o'qituvchi o'z sohasi bo'yicha yangicha pedagogik texnologiya metodikasini ajrata olishi hamda uni amalda samarali qo'llay olishi kerak. Mashg'ulotlarni noan'anaviy shakllarda tashkil etish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi. Shuning uchun ham hozirgi kunda ta'limning zamonaviy texnologiyalariga alohida ahamiyat berilyapti.

Pedagogika va psixologiyaga oid izlanishlarda A.K. Markova, L.M. Mitina, A.B. Orlov, A.A. Verbitskiy, A.N. Smolkin, M.V. Klarin, G.K. Selevko, A.N. Leont'ev va boshqalar zamonaviy talabga javob beradigan o'qituvchilarni tayyorlashda interfaol metodlardan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish hamda o'yinga asoslanuvchi faoliyatning mohiyati, ularning o'ziga hos xususiyatlari, imkoniyatlari bo'yicha boy nazariy manba tayyorladilar. Ayni paytda bu borada biz zarur nazariy va amaliy ma'lumotlarga egamiz. Aynan interfaol metodlar berilgan vazifa va topshiriqlarni talabalarning o'zi mustaqil bajarishi uchun qulay muhit yaratadi.

Ta'lim jarayonini interfaol uslublar yordamida amalga oshirish uchun o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Pedagogik mahoratga ega bo'lish uchun esa o'qituvchi o'z ustida tinimsiz ishlashi kerak bo'ladi. Interfaol metodlarni qo'llash uchun o'qituvchi interfaol ta'lim jarayoniga zarur bo'lgan g'oyalar va harakatlar majmusini tuzishga hamda o'qitishning ijodiy rivojlanish tartibida ishlashga o'rganishi lozim. Muammoli - izlanuvchanlik uslublarini o'zlashtirish - talabalarning ijodiy-izlanuvchanlik faoliyatini tashkillashtirish asosi, binobarin interfaol ta'limning ham asosidir.

Interfaol ta'lim jarayonida o'quvchini barcha yo'nalishlarda ishlash ko'nikmasini shakllantirish muhim:

- muhim muammolarni izlash va ajratish;
- muammolarni tahlil qilish;
- ish faoliyatining maqsad va vazifalarini aniqlash;
- hal etish yo'llarini izlab topish;
- eng yahshi echimni tanlash;
- muammoni yechish o'zagini topish;
- ish dasturi va rejasini tuzish;

Ta'lim jara, ninnig muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'zaro hamkorlikka bog'liq bo'ladi.

O'qituvchining metodik tayyorgarligida pedagogik loyihalash muhim ahamiyatga egadir. Loyihalash pedagogik jarayonni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi. Loyihalashda o'quv rejasi, dasturlari, darslik, metodik tavsiyalar va boshqa o'quv qo'llanmalar muhim



manba boʻlib hizmat qiladi.

Pedagogik jarayonni loyihalashda:

- pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
- natijalarni oldindan koʻra bilish;
- rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalar bajariladi.

Bu bosqichda oʻqituvchining mustaqil, shu bilan birga oʻquvchi bilan hamkorlikda oʻquv jarayonining mazmuni, vositalarini belgilash asosida loyihalashtirilgan faoliyati etakchi oʻrin tutadi. Demak, pedagogik jarayonni loyihalash: loyiha, mazmun va faoliyat uchligi asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yahlit ifodalashga hizmat qiluvchi loyihani yaratishdir.

Oʻqituvchi faoliyatida kelajakka moʻljallangan va tezkor loyihalash har hil oʻquv mashgʻulotlarida turlicha moslashtiriladi. Agar oʻqituvchi faoliyati oʻquvchilarining talablarini qondirish, yaʼni yakuniy maqsadlarga qaratilsa, u holda oʻqituvchi yahlit pedagogik jarayonni yoki dars va tarbiyaviy tadbirlarni loyihalashda qiynchilikka duch kelmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Taʼlimda innovatsion texnologiyalar. - T., 2008.
2. Tolipov Oʻ.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T., 2006.



MUSIQA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING MUSIQIY-NAZARIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI

Raxmonberdiyeva Surayyo Mirg‘aniyevna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti “Musika nazariyasi
va metodikasi” kafedrasida o‘qituvchisi
Tel: +9986089410

Annotatsiya: Maqolada musika darslarida o‘quvchilarning musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishda musika o‘qituvchisi musika savodi faoliyatida amalga oshiriladigan vazifalarni jiddiy taxlildan o‘tkazib, bu jarayonga ijodiy yondashib ish tutishi kerakligi haqida bayon etilgan

Kalit so‘zlar: Musika savodi, tinglash, vokal-xor, ritm, estetik, idrok, musiqiy xotira.

Kelajak bugundan boshlanadi - deydi dono xalqimiz. Bugungi kunda Respublikamizda yosh avlodning tarbiyasiga e’tibor birinchi navbatda ularda xalqimizning madaniyati, sa’nati, tarixi, adabiyoti, tili va milliy qadriyatlariga muhabbatni shakllantirishga, shu bilan birga kelgusida ularni rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘sha oladigan intellektual salohiyatli shaxslar sifatida kamol toptirishga ustuvor ahamiyat berilayotgani bejiz emas. Chunki, ma’naviy yetuk, aqliy barkamol, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy – ahloqiy tarbiya va muayyan bilimlarni, ya’ni tanlangan fan asoslarini chuqur egallashi ularning barchasi barkamol avlodni yetishtirishning eng muhim omillari xisoblanadi. Umumta’lim maktablarida musika ta’limi va tarbiyasining bosh maqsadi o‘quvchilarda musika madaniyatini tarbiyalashdan iborat. Musika madaniyati esa keng ma’noda o‘quvchilarni musiqani idrok etish, tinglash, taxlil qilish, unga tavsif bera olish, g‘oyaviy-badiiy mazmunini his etish, undan ma’naviy, badiiy ozuqa olish ko‘nikmalariga ega, shu bilan birga musiqiy savodxonlik darajasini ifoda etadi. Musika madaniyati darslarining musika savodi faoliyatida asosiy maqsad o‘quvchilarni nazariy (musiqaning elementar) qoidalarini, ya’ni nota yozuvi bilan bog‘liq ifoda vositalarini o‘zlashtirib borishlariga asoslanadi. Musika savodi faoliyatida amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat o‘quvchilarning musiqiy tafakkur va musiqiy dunyoqarashi, musiqiy xotira, musiqiy idrokini shakllanishiga xizmat qiladi. Bu faoliyatda o‘quvchilar musika asarining yaratilish tarixi, musiqaning ifoda vositalari, ritm, metr, o‘lchov, registr, lad, temp, nota yo‘li, nota cho‘zimplari, tovushlar balandligi, sanalishi, ijodkorlari, ijrochilari haqidagi bilimlarni o‘zlashtiradi. Darsda belgilangan pedagogik maqsadlar, musiqiy faoliyatlar uzviy yaxlitlikda olib borilganda o‘quvchilarda musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni samarali kechadi. Bu o‘rinda:

- Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
- O‘quvchilarning musiqani idrok etish malakalarini o‘stirish;
- Qo‘shiq kuylash malakalarini (vokal-xor) rivojlantirish;
- Musika nazariyasi asoslarini (elementar qoidalarini) o‘rganish;
- Musiqiy ritmni xis etish, unga mos xarakterlar bajarish orqali musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
- Musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchi shaxsida ijodiy tafakkurni shakllantirish;
- Musiqaning g‘oyaviy-badiiy mazmuni vositasida o‘quvchilarda musiqiy dunyoqarashni shakllantirish, estetik va ahloqiy tarbiyani amalga oshirishga erishiladi. Natijada o‘quvchilarda musika asarlari haqida mushoxada yuritishning boshlang‘ich asoslari vujudga keladi. O‘qituvchi xar bir darsning va darsdagi jarayonlarning o‘quvchilar tomonidan ko‘tarinki ruhda, qiziqishi va ishtiyoq bilan qabul qilishiga erishishi zarur. Shundagina musiqiy-estetik ta’lim, xususan, uning nazariy asoslarini o‘rganish samarali kechadi. Ushbu takidlab o‘tilgan shartlarni bajarish musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi va kelajakda yangi usul va uslublar ishlab chiqishga zamin yaratadi. Shu bois musika o‘qituvchisi musika darslarini barcha faoliyatlarida amalga oshiriladigan vazifalarni jiddiy taxlildan o‘tkazib, e’tibor qilinadigan jixatlarini aniqlab ish tutishi kerak bo‘ladi.

1. Musika savodi faoliyatida musiqiy tafakkur va musiqiy dunyoqarash, musiqiy xotira, musiqiy idrok shakllanadi, bu faoliyat turida o‘quvchilar musiqaning yaratilish tarixi, musiqaning ifoda vositalarini o‘zlashtiradilar.



2. Qo‘shiq kuylash faoliyatida o‘quvchilar musiqiy-nazariy bilimlarga asoslangan holda qo‘shiq kuylaydilar. Buning uchun ular musiqiy asarga taalluqli barcha ma’lumotlarni o‘zlashtiradilar.

3. Musiqa tinglash faoliyatida musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash rivojlanadi. Bu faoliyatda o‘quvchilar musiqa tinglar ekanlar bevosita uni idrok eta boshlaydilar. Bu esa ularning musiqiy idroklarini rivojlantiradi.

4. Musiqiy ijodkorlik faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy xotira shakllanadi.

Bu faoliyat turida o‘quvchilarda deyarli musiqiy psixologik xususiyatlarning barchasi shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o‘zlari bevosita musiqiy asarga jo‘r bo‘ladilar. Umumta’lim maktablaridan boshlab o‘quvchilarga beriladigan musiqiy bilim va malakalari ularning keyingi estetik rivojlanishlari uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki musiqa darslarida o‘quvchilarga nazariy bilimlarni tushuntirishda birinchi navbatda darsda o‘quvchilarni qiziqish, xoxish-istaklarini xisobga olish, ko‘rgazmali texnik vositalardan unumli foydalanish, o‘quvchilarni darsda faolligini ta’minlash, vazifalar topshirish, ularni bajarilishini nazorat qilib borish, faol o‘quvchilarni rag‘batlantirib borish, o‘zlashtirishi sust o‘quvchilar bilan qo‘shimcha va individual topshiriqlar berib borish orqali bu muammolarni bartaraf etishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soipova D.Yu. Musiqiy va musiqiy nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish. O‘quv qo‘llanma T.: 2005-yil
2. Xasanov A.Sh. Musiqa va tarbiya. –T.: O‘qituvchi, 1993y.
3. Munavvarov A. Pedagogika. T.: O‘qituvchi, 1998y.
4. Akbarov I.A “Musiqa lug‘ati” T.: O‘qituvchi, 2010-yil.



UDC638:23

AN INTERACTIVE METHOD IN THE STUDY OF THE TOPIC “RESEARCH OF FIRE EXTINGUISHING EQUIPMENT”

Saidkhujueva Nafisa

Associate professors of the department of "Live safety"
Tashkent institute of irrigation and agricultural
mechanization engineers. Uzbekistan

Khojiev Aliakbar

Associate professors of the department of "Live safety"
Tashkent institute of irrigation and agricultural
mechanization engineers. Uzbekistan

Khikmatov Muxammad-Ali

4th year student of the Tashkent Institute of Irrigation and
Agricultural Mechanization engineers . Uzbekistan
aliakbar-x@mail.ru,
+998909122526

Abstrak: In given clause the materials on application of interactive methods of training allowing the students easy to acquire a complex enough (difficult enough) theme are submitted.

Key words: the fire extinguisher, chemical, reaction, substance, acid, the valve, solution, concentration powder.

National training program of the Republic of Uzbekistan special attention is paid to the training of specialists. Based on the experience of developed countries, had effective results in pedagogy primarily, the thinking abilities of students develops, and secondly, the learning process may be production related. Significant changes in the country's education system using new pedagogical technologies. It is becoming more and more obvious that this is happening.

In this article, we will also discuss the Boomerang Method, one of the new interactive group methods. If the lesson is taught with students, they education in your life or work processes can apply the knowledge gained through.

From this method in the lessons to use in several stages corresponds to:

- divide students into small groups. In this case should be arranged. For this, the number of students in the group is 9, 16 or 25 ($3 \times 3 = 9$; $4 \times 4 = 16$; $5 \times 5 = 25$) should be (Figure 1.2);
- students get acquainted with the purpose and order of the lesson;
- each small group of students will be provided with texts on the following topics for self-study:

Subgroup 1 will be given the topic "Chemical - foam fire extinguishers." In it, a small group of students reworked the structure of chemical-foam fire extinguishers will have a brief overview of charging.

Subgroup 2 is divided into "Carbon monoxide IV (liquid gas) fire extinguishers handouts are provided. It is small students in the carbon dioxide group design of fire extinguishers, modify them there will be a short description of charging.

Subgroup 3 will be provided with the text "Dust Extinguishers". Through this text, they learn about the construction of dry powder fire extinguishers and how to recharge them.

Subgroup 4 will be given a handout on the rules for the use of fire extinguishers. In it, the students of the group have 3 types of chemical foam, carbon dioxide and rules for the use of dry powder fire extinguishers get full information.

- texts provided by students studied independently;
- every member of every group is a group studied independently, respectively exchange information with texts, that is, text that moves towards each other achieve mastery (Figure 3);
- within the group, internal control is carried out to determine the level of assimilation of this information, that is group members ask questions and answer each other;
- new group members are in their original state return to groups (Figure 4);
- for the remainder of the lesson, a group accountant will be assigned to each group to assess the students' knowledge or score;



- to determine the level of assimilation of all texts by students, the teacher asks students questions, verbally interrogates;
- based on the answers to the questions, the sum of the points scored by the groups is determined;
- in the group by each member of the group the content of the text is relevant to life the question is formed;
- Q&A is organized through questions prepared by groups;
- the sum of the total points scored by the group members is determined;
- the total points earned by the group are evenly distributed among the group members;
- the teacher completes the lesson and gives homework.

When teaching this method, firstly, the technology in each subgroup just like the rest of the students, they are perfectly familiar with the types of fire extinguishers, their design, and the principle of operation. They reinforce their knowledge of how to use fire extinguishers in practice.

References:

1. Ochilov M. New pedagogical technology. Nasaf Publishing house, 2000.
2. Azizxujaeva N.N. Pedagogical technology pedagogical mastery. - T., - 2003.
3. N.Saidkhujaeva, Z.Mirkhasilova, Z.Karimova. Применение современных интерактивных технологий для проведения занятий. "Actual issues of modern pedagogy" VIII international scientific conference. March 2016 III part 238-241 pp.
4. N.Saidkhujaeva, Z.Mirkhasilova, T.Karimova Development of interactive teaching methods for conducting lessons on Discipline "Life Safety"
5. N.Saidkhujaeva, Z.Mirkhasilova. "Interactive teaching method based on the example of the discipline" Life Safety". Aspects and trends of pedagogical science III International Scientific Conference. St. Petersburg, December 2017 II part 170 pp.



COMPUTER LINGUISTICS AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE WHAT IS INNOVATION IN EDUCATION?

Saodat Agzamkhodjaeva Abrarovna

Department of phonetics, Faculty of junior courses,
Uzbekistan State World Languages University

Abstract: This article gives brief information about artificial intelligence which is coming into our lives and replacing computer technologies. It also informs about computer linguistics which is new subject to our science sector.

Key words: Computer linguistic, artificial intelligence, algorithm, ‘To have information is to have everything’, hardware, software, non-paper based technologies, electron books.

Nowadays, in every fields of life it is required to work with computer. Computers have been used to aid computation for thousands of years. There are a lot of branches which are related to computer: computer medicine, computer economy, computer jurisprudence and as well as computer linguistics. Apparently, computer linguistics is new subject that we should improve and implant widely to every processes. According to everyone’s point of view, every subject is created to solve some kind of problems. As for computer linguistics, its function is to solve linguistic problems by the help of computer: For instance, this subject allows us to work on the processes such as testing knowledge, sounding texts in Uzbek, editing texts, translating texts by the help of computers. So, computer linguistics is the subject of science and computer.

People appear learning in different ways. Some people expect to make mistakes in their studies and they are capable of benefiting from their mistake. They do not mind being corrected by their teacher and indeed often ask being corrected. Others, however, dislike making errors. They try to avoid doing anything which they might do badly. They would rather to perfect something in small steps be sure they have got it right to attempt to do a task based on a subject they do not feel they have finished exploring yet. Both ways of learning seem to be equally valid, but a combination of two may be the best solution. In order to learn a language effectively, students have to remember taking risks something. But they also have to feel comfortable and secure with what they are doing so much not to be become demotivated. All students should at least think about to be questioned the way that they approach learning.

In the XXI century people’s activities are absolutely connected with computer technologies, every process is carried out with electron devices. All kinds of paper documentation are being eliminated and reduced to a minimum. By other words, non-paper based technologies are merging into our lives. People are getting used to using non-paper technologies, such as electron books, digital devices includes laptop and desktop computers, and websites aims at studying. Additionally, our traditional methods of sending mail have changed because of the computer. By the help of computers e-messages will be sent instantaneously to its destination and received fast.

Bill Gates who is the richest person in the world mentions: ‘To have information is to have everything’.

A better World?

Talking about the communication one should mention that in the near future, we may be able to communicate in any language we choose. A number of companies are working on translating machines that use the voice frequencies of the speaker. This makes it sound as though the user is speaking the foreign language. We already have translating machines, but they are also slow and inaccurate and they sound like robots. In only a year or two this new machine, which will be a headset, could come onto the market and allow us to speak every language under the sun.

We are living in the ocean of the information. People who respect themselves should be aware of computer technologies and can utilize it in daily life. Humans have been storing, retrieving, manipulating and communicating information since Sumerians in Mesopotamia developed writing in about 3000 BC. Then, the term of information technology appeared in the article of the newspaper Harvard Business Review in 1958. The term information technology is a term related to not only computers and computer networks, but also it encompasses other information distribution such as television and telephones. Several products and services are associated with information technology including, computer hardware, software, electronics, internet, telecom equipment and



e- commerce.

Artificial intelligence is simulation of human intelligence in machines that are programmed to think like humans and mimic their actions. The term may also be applied to any machine that exhibit traits associated with a human mind such as learning and problem solving. The goal of artificial intelligence is to create technology that allows computers and machines to function in an intelligent manner. But its cognitive capabilities are very limited. However, the human mind comes up with several ways to reason beyond measure and logical explanations to different occurrences in life. What would have been otherwise straightforward, difficult problems may be challenging to solve by the help of computation as opposed to using the human mind.

As Alan Perlis remarked, ‘There is no reason and no way that a human mind can keep up with an artificial intelligence machine by 2035’.

Spike Jonze also stated that ‘By far the greatest danger of artificial intelligence is that people conclude too early that they understand it ‘.

The concept of artificial intelligence has changed over time, but at the core there has always been the idea of building machines which are capable of thinking like humans. In the modern life, more and more technologies that we are adopting into our everyday lives is becoming powered by artificial intelligence (AI) – from smartphones to self- driving and autonomous cars. Artificial intelligence has changed from modernizing healthcare and finance streams to administrating and manufacturing – everything has changed in the blink of an eye.

Artificial intelligence is a branch of computer science that aimed to turning computers into intelligent machines. Through the use of algorithms and computer - based trainings, artificial intelligence and machine learning can be used to create smart systems that will provide solutions to complicated problems.

Information technology is not only needed to establish faster communication, maintain electron storage but also it’s used to increase the quality of education. The combination of pedagogical teaching method and using IT method is focused on developing school systems, students’ activities and teaching practices. And also we can see the uses and role of information technology in our society in many fields, such as business, finance, healthcare, security, communication, employment and so on. The implementation of information technology makes every sphere of life easier. As a vivid example of artificial intelligence is robots and their deeds serves to simplify our work. At the end of my conclusion I can say that people need to learn about programming like they learn a new language. The main reason is if we don’t know programming or working with digital tools, it will only be going to get more difficult.

References and links

1. Webster, Frank, and Robins, Kevin. (1986). *Information Technology – A Luddite Analysis*. Norwood, NJ: Ablex.
2. Allen, T.; Morton, M. S. Morton, eds. (1994), *Information Technology and the Corporation of the 1990s*, *Oxford University Press*
3. "Operational technology (OT) - definitions and differences with IT". i-SCOOP. Retrieved 20 March 2021
4. Southern Innovator Magazine Issue 1: Mobile Phones and Information Technology



THE PROBLEMS OF IMPROVING THE QUALITY AND EFFECTIVENESS OF ENGLISH LANGUAGE TEACHING IN SECONDARY SCHOOLS

Sevinch Saydullaeva Sharofovna –

student, Faculty of Junior courses,
Uzbekistan State World Language University

Saodat Agzamkhodjaeva Abrarovna

supervisor,
Department of Phonetics, Faculty of junior courses,
Uzbekistan State World Languages University

Abstract: To highlight common problems faced by pupils in secondary schools and look for solutions to those problems.

Key words: The language of the XXI century, competitive youths, going abroad to study, nursery schools, experienced instructors, learning problems in distant rural areas, CEFR, IELTS, tutoring.

English is one of the world's official languages. It is mostly used and spoken rather than other languages. If one knows this language, then many opportunities will be opened for them. The English language is used not only in science or education, but also in business or trip it is required to be aware of this language. By other words, English is the language of the XXI century. In this century young generations need be competitive to the world's youths. By other words, going to abroad to study, gain experience and share it to our every sphere of life, they need to know firstly foreign languages, then their own branches. Knowing one's field perfectly in another language is a requirement of today's fast going world. Today the main factors for learning English include expanding communication with the world after gaining the independence and increasing speed and scope of information exchange globally in Uzbekistan. Therefore, our government is paying more attention to instructing students and children foreign languages nowadays. Learning centers have been opened and grants to abroad for studying are being given to students. Experts of languages have been prepared to instruct younger generations.

Since the first president of the Republic of Uzbekistan Islam Karimov signed a decree "On measures to further improve foreign language learning system", - on December 10, 2012, the English language has been increasing in all aspects of Uzbek people's life. First of all, I should mention its impacts on the educational system. Throughout our country English is being gradually taught at schools including nursery, primary and secondary and at universities. Schooling system English is instructed in the form of lesson – games and speaking games, continuing to learn the alphabet, reading and spelling the simple words and phrases. According to statistics, 90% of children's mind is shaped from their younger ages, for instance, at the ages of 3 and 4 when they are educated at nursery schools. The earlier we teach them some kind of information, the more they can remember them. For that reason, it is important to bring them up by teaching and instructing significant facts and information which they need to know from their younger ages. Foreign languages, such as English and Russian are also being taught to the children. For that reason, experienced and cognitive instructors are majorly involved in nursery schools. Besides, nursery school prepare children to the primary school. Primary school is a part of secondary school. So, the educational system is linked with each other continually. As school is the basis of our fundamental knowledge, we should concentrate on strengthening the system of learning and teaching. As our thinkers said, the basic idea behind teaching is to teach people what they need to know. Today our need is to learn new languages.

Especially we should do something to convert the situation which is related to teaching English language process in the secondary schools. Firstly, I am going to state is that education is mainly conducted in traditional methods. Besides, the provision of modern teaching materials is required. What caught mostly our attention is that, even if pupils spend half of their day studying at school, but are enable to learn due to lack of sufficient specialists in distant rural areas. So, in order to increase the quality of teaching English at secondary schools in distant areas the high educational institutions, experienced language teachers have been sent to those areas. Having the CEFR or IELTS will give them a privilege of receiving 30 % bonus to their monthly salary.



Besides, there have been created some other privileges to pupils who live in the rural areas. For instance, universities are allowed targeted admission of people living in distant areas to foreign language problems on the condition that they will oblige themselves to work in the acquired specialty at their residence area for at least 3 years after graduation university. This strategy also great incentive to pupils who want to enter university but there is no opportunity.

Now, let's talk about tutoring. Although pupils learn English at school, they prefer to go tutor again. WHY? Isn't that enough for them to study English at school. According to pupils' point of view, attending tutor is much more useful than learning at school. One reason of it is less time. 45 minute may not be enough for pupils to learn English. But in tutoring, teaching process lasts for two or more hours. The next cause is not existing competitive atmosphere. In one class, there may be different talented students. One of them may be good at drawing, other one may be good at calculating. By another word, pupils who are focused on another field will have less interests in language learning. For that reason, tutoring is beneficial to those who want to learn a language in a competitive environment. Our government is now taking many steps to end tutoring: Increasing teachers' salary, class hours are being multiplied, teachers are given incentives who get more pupils to enter universities and so on.

Nowadays, our task is to spread and implement English to every sphere of life, develop educational standards on learning foreign languages; maintain methodological support for educational institutions; prepare teachers and experts in the field of foreign language teaching; implement modern methods of teaching foreign languages; monitor the realization of requirements of the international standards of teaching foreign languages.

References:

1. https://www.researchgate.net/publication/278931009_Teaching_English_in_Secondary_Schools.
2. <https://education.stateuniversity.com/pages/1652/Uzbekistan-SECONDARY-EDUCATION.html>.
3. Ашурова, Н. П. Skills and purposes to teaching reading in secondary schools



DER KONJUNKTIV DER BERICHTETEN REDE IM DEUTSCHEN

Tleumuratova Abadan Bekbanovna

Masterstudentin der Karakalpakische Staatliche Universität

Anmerkung: Dieser Artikel beschreibt die Verwendung des Konjunktivs der berichteten Rede im Deutsch, synonymische Tempusformen des Konjunktivs II.

Schlüsselwörter: Konjunktiv I, Konjunktiv II, Bedeutungsinhalt des Konjunktivs

In der modernen Sprachforschung setzt sich immer mehr die Ansicht vor der Leistung des Konjunktivs der berichteten Rede durch, die auch im vorliegenden Buch der Darstellung der Oppositionsverhältnisse in System des Konjunktivs zugrunde gelegt wurde. (vgl. S. 105 ff) Danach ist der Konjunktiv weder ein rein formelles Kennzeichen der Unterordnung im zusammengesetzten Satz mit der berichteten Rede im Gliedsatz noch ein Ausdrucksmittel des Geltungsgrades der Aussage.

Der Konjunktiv der berichteten Rede ist der Modus der mittelbaren Darstellung eines Geschehens. Die Bedeutungsgehalten des Konjunktivs der berichteten Rede ist also:

Gramm	Bedeutungskomponenten (Seme)	
Konj. Präs. Konj. Prät	„Fremde Äußerung über das Geschehen“	Gültigkeit des Geschehens
Konj. Perf. Konj. Plusq.		Ablauf des Geschehens vor dem Redemoment
f. Konj. L Fut II KondiL		Eintritt des Geschehens nach dem Redemoment

Die Leistung des Konjunktivs tritt besonders klar zutage, wenn die berichtete Rede ohne einleitendes Verb des Sagens in Form eines unabhängigen Satzes erscheint, was nicht selten in der modernen literarischen Prosa vorkommt. In diesem Fall ist der Konjunktiv das einzige Merkmal des Übergangs von der Autorensprache zu der berichteten Rede der Romanenhelden,

Fabion fuhr ein Stich durchs Herz. „So bald also wollen die Damen die Stadt schon verlassen?“ fragte er:

Ja, antwortete Christa an Stelle der Mutter, mit einem Lächeln, das nicht sehr freudig aussah.

„Sobald wie möglich!“ rief Frau Beate aus.

„Ob die Reise im Auto für die Damen in dieser Jahreszeit nicht zu beschwerlich sei?“

„Beschwerlich?“ Frau Beate lachte. (Kellermann)

Der Konjunktiv der berichteten Rede steht auch noch den Verben des Denkens und des Empfindens sowie in Attributsätzen mit solchen Substantiven wie die Behauptung, die Mitteilung, die Meinung, die Prophezeiung, der Wunsch, die Ahnung. U. s. w.

„Gleichem Prophezeiung, dass die Gestapo eines Tages auch in Wolfgans Haus kommen würde, traf tatsächlich ein“ (Kellermann)

Der Konjunktiv der berichteten Rede kennzeichnet vor allem die literarische, publizistische und wissenschaftliche Prosa. In der Umgangssprache und dementsprechend in der Figurensprache der literarischen Werke überwiegt der Indikativ.

Ruth: Unser Klassenlehrer sagt, ich soll vorerst nicht mehr zur Schule kommen. (Wolf)

„De habe ich gesagt fuhr Ernst fort, nachdem er rasch ein paar Löffel Suppe verschluckt hatte, „in meiner Familie ist das Schäferhandwerk erblich seit den Tagen der Wiligis“ (Segher)

In der Regel ist für die berichtete Rede des Konjunktivs I charakteristisch, d. h. Präsens, Perfekt, 1. und 2. Futur. Die modusambivalenten Formen des Konjunktivs I werden durch synonymische Tempusformen des Konjunktivs II ersetzt. Formen des Konjunktivs I und II werden ohne grammatischen oder Stilunterschied nicht selten in ein und demselben Satz gebraucht: *Nach dem Stand der Sonne war es Mittag, als ich auf eine solche Herde stieß, und der Hirt, ein freundlich blonder junger Mensch, sagte mir: der große Berg, an dessen Fuß ich stände, sei der alte weltberühmte Brocken. (Heine)*

Konjunktiv II kommt in der berichteten Rede auch dann vor, wenn die Formen des Konjunktivs gegenüber den Indikativ markiert sind:

„General Pichergu erhob Einwände. Die angeforderten Reserven wären noch nicht eingetroffen. Für acht Geschütze fehlten die Bedienungsmannschaften“ (Bredel)

Im vorstehenden Beispiel ist der Ersatz des präsentischen *sei eingetroffen* durch das präteritale



wäre *eingetroffen* inhaltlich neutral. Behaghel erklärt solche Ersatzfälle durch die Analogieausdehnung des Konjunktivs II [24, III], Gelegentlich aber wird der Konjunktiv II als Ausdrucksmittel geringeren Geltungsgrades der wiedergegebenen Äußerung angewandt. Flämigs Beispiele:

Direkte Rede: Er trinkt Petroleum. Abhängige Rede ohne besondere Stellungnahme: ..., er trinke Petroleum. Abhängige Rede mit der Stellungnahme des Sprechers: ..., er tränke Petroleum. Der Sprecher stellt mittelbar fest, dass der Besprochene natürlich kein Petroleum trinkt [71]

Doch sagt Flämig weiter über den Ausdruckswert des Konjunktivs II in der berichteten Rede: „Deutlicher treten urteilende Momente beim Konj. II hervor; ablehnende Stellungnahme, Bezeichnung der bloßen Vorstellung und der Irrealität“. Ein durchgehender systematischer Gebrauch läßt sich jedoch nicht feststellen“ (ebenda).

In der Duden-Grammatik heißt es ebenfalls „Der Konjunktiv II kann gebraucht werden, wenn der Sprecher die berichtete Aussage und Ä. für zweifelhaft hält, wenn er spektisch ist: *“Karl erklärte (zwar), er hätte alles getan, was in seiner Macht gestanden hätte(aber ich glaube nicht). Einige sagen, er wäre 120 Jahre alt(aber ich glaube es nicht)“*

Ähnlich bei Jäger: „Der Konjunktiv II muss in indirekter Rede stehen, wenn eine nicht eindeutige Konjunktiv –I-Form nicht stehen kann. Der Konjunktiv II kann auch als Mittel besonderer Redeabsicht verwendet werden, wenn dadurch keine Missverständnisse entstehen“

Die Literature

1. Flämig W. Zum Konjunktiv in der deutschen Sprache der Gegenwart. Berlin 1959
2. Grebe P. Der große Duden. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. Mannheim, 1959
3. Jäger S. Empfehlungen zum Gebrauch des Konjunktivs. Düsseldorf, 1971
4. Moskalskaja O.I. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache Moskva, 2004
5. Behaghel Ø. Deutsche Syntax, — Heidelberg, 1923—1932. — Bde. I—IV
6. Flämig W. Zur grammatischen Klassifizierung des Wortbestandes im Deutschen Beiträge zur Klassifizierung der Wortarten/ Hrsg. von G. Heibig. —Leipzig, 1977.



CHO‘L PONNING “YORQINOY” DRAMASI HAQIDA

Tolmasov Shahriyor Hasan o‘g‘li
SamDu Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulhamid Cho‘lponning “Yorqinoy” dramasi, uning milliy dramaturgiyadagi o‘ziga xos o‘rni, Drama va teatr, Dramaning tasvir predmeti- harakati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: “Yorqinoy” dramasi, teatr, Po‘lat botir, Nishobsoy begi, Cho‘lpon, spektakl.

O‘zbek dramaturgiyasining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Abdulhamid Cho‘lpon ijodining dastlabdi yillaridanoq dramalar yoza boshlagan. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, 1914 yildayoq, ya‘ni 16-17 yoshlarida “Boy” nomli drama yozgan. Lekin bizgacha bu asar yetib kelmagan. Bu drama haqida qaysi hujjatlarda aytib o‘tilgani ham noma‘lum. Cho‘lponning “Yorqinoy” drama-sidagi voqealar 5 joyda: O‘lmas botirning qo‘rg‘on boqchasi, boshqa bir boqcha, Nishobsoy be-gining boqchasi shu bekning haram uylaridan biri, Po‘latning qarorgohi va xon saroyida kichadi. Pyesaning markazida Yorqin va Polat, O‘lmas botir, xizmatchi qiz Qumri, Nishobsoy begi, Momo xotin, Kal, Xonzoda kabi personajlar ularning atrofida harakat qilishadi. Odatda bir parda davom-ida sodir bo‘luvchi voqealarning bitta joyda kechishi, sujet voqealari ayni shu joylar bilan bog‘liq holdagina rivojlanishini e‘tiborga olsak, bu narsa dramatik asarning sujet qurilishini belgilaydigan asosiy omil bo‘lib qolishi anglashiladi. Cho‘lponning dramaturgiya sohasidagi ilk asarlari 20-yil-lar arafasida maydonga kelgan bo‘lsa-da, ular shuningdek, 1920-yilda yozilgan “Yorqinoy” dra-masi ham kichik sahna asarlari edi. Shuning uchun ham Moskvadagi o‘zbek drama studiyasida sahnalashtirish uchun mahalliy mavzudagi asarlarga ehtiyoj tug‘ilganidan Cho‘lpon mazkur pye-esani qayta ishlab uni 1926-yilda kitob holida nashr etdi.

Pyesada Cho‘lponning bag‘ishlov so‘zlari ilova etilgan: “Totli va boy tili bilan ertak aytib berib, shu asarning yozilishiga sabab bo‘lgan KAMPIR ONAga hurmat bilan bag‘ishlayman”.

Bu so‘zlardan ma‘lum bo‘lishicha, “Yorqinoy” pyesasi zaminida Cho‘lponning “kampir onasi”dan eshitgan xalq ertagi yotadi. Ayrim manbalarda esa “Yorqinoy” pyesasida Andijondagi Po‘latxon qo‘zg‘oloni bilan bo‘g‘liq voqealar aks ettirilgan, degan fikr ham mavjud. Bizningcha ham, Cho‘lpon yoshligida “kampir onasi”dan Po‘latxon qo‘zg‘oloni haqidagi ertaknamo voqeani eshitgan va mazkur asarni yaratishda shu ertak-voqeadan foydalangan bo‘lishi mumkin.

O‘lmas Botir ismli sarkardaning qarorgohida bog‘bonlik qilgan Po‘lat bilan uning Yorqinoy o‘rtasida muhabbat shabadasi esa boshlaydi. Po‘lat bu uyning oddiy xizmatkori, Yorqinoy esa xonzodalarga mos qayliq bo‘lgani uchun bog‘bon yigit o‘z sevgisining baxtli natija bilan tugashi mumkinligiga ishonmay O‘lmas Botir xonadonidan ketmoqchi bo‘ladi. Shu payt Po‘latni Yorqi-noy bilan tanholikda uchratib qolgan Botir uni benomuslikda, ko‘rnamaklikda ayblaydi. Yorqi-noyni ham or-nomusni unutib, faqir bir xizmatkor bilan uchrashgani uchun o‘ldirishga tayyor ekanligini aytadi. Yorqinoy esa haq yo‘lida o‘limga ham tayyor.

O‘lmas Botir va unga o‘xshash kimsalar uchun haq ikki xil bo‘lgan: o‘zlari uchun va o‘zgalar uchun. O‘zlari uchun mavjud bo‘lgan haq uni o‘zining yolg‘iz qizini jazolashga imkon bermay-di, lekin o‘zgalar uchun haq tushunchasi uni shu lahzaning o‘zida Po‘latni qatl etish uchun yo‘l ochadi. Ana shunday e‘tiqod bilan yashagan O‘lmas Botirning halol inson emas, balki zolim va qonxo‘r sarkarda ekanligi ma‘lum bo‘ladi. U bilan ilk bor to‘qnashgan va yuzma-yuz olishishga majbur bo‘lgan Po‘lat o‘zining va otasining kim ekanligini undan so‘rab bilmoqchi, o‘z ajdodlar-ining taqdiri to‘g‘risida xabar topmoqchi bo‘ladi. Lekin kutilmaganda bu narsa O‘lmas Botirning eng dahshatli siri ekanligi oshkor bo‘lib qoladi.

Agar biz Cho‘lpon ijodi va ijtimoiy faoliyatining negiz-negiziga nazar tashlasak, uning uchun faqat bir sajdagoh bor ekanligini ko‘ramiz. Bu xalqdir. Xalq qayerda bo‘lsa, haq ham o‘sha yerda bo‘ladi. Shuning uchun ham Cho‘lpon otasi orzu qilgan mudarrislik kasbini tanlamay, o‘zini xalq baxt-saodati yo‘lida mashaqqat va azoblar bilan to‘la kurashga bag‘ishlagan edi. Yorqinoyning ham “hunari go‘rkovnikidan ham yomon” otasidan voz kechib, Po‘lat sarkardasi bo‘lgan xalq bag‘riga otilishida Cho‘lpon tushungan hayot ma‘nosi yotadi.

Yorqinoy Po‘latga ruhan yaqin bo‘lgani, uni nafaqat or-nomusli, irodali yigit, balki haqiqat yo‘lida kurashga tayyor bo‘lgani uchun ham sevadi. Yorqinoy otasining qonli ishlaridan xabar-dor bo‘lgach, undan voz kechib, Po‘lat olib borgan kurashga qo‘shiladiki, biz uning vujudida



To‘marisning qoni jo‘sh urib turganiga ishonch hosil qilamiz.

Po‘lat o‘z do‘stlari – qashshoq xalq vakillari bilan birga hamda yoshlikdan jangovarlik an‘analari asosida tarbiya ko‘rgan Yorqinoy yordamida xon qo‘shinlarini yengib, saltanat tepasiga keladi. Ammo Yorqinoy uchun toju taxt emas, uni sevuvchi, unga butun hayotini bag‘ishlovchi Po‘lat kerak edi. U Po‘latning saltanat ishlaridan ortgan daqiqalarinigina huzurida, yana horigan holda o‘tkazayotganini ko‘rib g‘azablanadi, toju taxtdan ham nafratlanib ketadi. Shunda Po‘lat Yorqinoyga bunday javob beradi: “Toju taxt... toju taxtning orqasida yurt bor, el bor, xalq bor... uni o‘ylash kerak... uning g‘amini yeyish kerak...”

Bu alangali so‘zlar asarda tasvirlangan voqealardan kelib chiquvchi mantiqiy xulosadir. Ko‘ramizki, Cho‘lpon ushbu asarida xalq – qahramonlik dostonlari an‘analaridan istifoda etgan holda zamonaviy muhim g‘oya bilan sug‘orilgan asarni yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Karimov “O‘zbe adabiyoti”,
2. Behbudiy Tanlangan asarlar,
3. A.Avloniy Tanlangan asarlar,
4. A.Fitrat “Abulfayzxon”,
5. H.H.Niyoziy “Maysaraning ishi”,
6. H.Qodiriy “Otam to‘g‘risida”,
7. A.Qodiriy “Kalvak Mahzumning xotira daftaridan”, A.Qodiriy “Toshpo‘lat tajang nima deydi?”, A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”, A.Qodiriy “Mehrobdan chayon”, Cho‘lpon “Hikoyalar to‘plami”, Cho‘lpon “Yorqinoy” dramasi



SEMANTIC ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH THE COMPONENTS OF ANIMALS

Turaboyeva Sitora Zokir qizi

2nd year Master of Arts

Uzbek State World Languages University

+998-90-327-77-41

Annotation: The English term "idioms" is used to define original features and peculiarities of the language. It's used in its narrow meaning to define such kind of peculiarities of the language especially Phraseological Units which are considered to be anomaly in speech breaking either laws grammar or the laws of logic.

Key words: idioms, semantic point, phraseological unit, metaphorical picturesque, semantic analysis

Peculiar expressiveness of English idioms is created by different devices. One of them is the absurdity of the idea. For example:

When pigs fly - когда рак на горе свиснет - qizil qor yoqqanda

Pigs might fly - бывает что коровы летают- hamma narsa bo'lihi mumkin Have rats in the attic - винтика не хватает- no'xotii kat, tomi ketgan

The Phraseological units may belong to a number of comparisons which are often met in oral speech and as well as in the written speech.

For example:

As tender as a chicken - нежное, как курятина - nozik, nimjon, nozikoyim

Gentle as a lamb - кроткий, как ягненок, как овечка - qo 'noq qo 'yday yuvosh

Like a fish without water - как рыба без воды- suvsiz qolgan baliqday

Many sayings and proverbs came into colloquial and literary speech so firmly that they are considered to be idioms.

From the semantic point of views phraseological units and idioms with zoo names may be investigated and divided according to the frequency of their usage. To a linguistically conscious mind most phraseological units tend to keep their history. It remains in them as an intrinsic force and the awareness of their history can yield rewarding pleasure in using or hearing them. And very many examples of Phraseological units are connected with the animals of course. There are, of course, other cases when set expressions loose their metaphorical picturesque, having preserved some fossilized words and phrases, the meaning of which is no longer correctly understood. For instance, the expressions to buy a pig in a poke may be still used, although poke pag (cf. pouch, pocket) does not occur in other contexts. Expressions taken from obsolete sports and occupations may survive in their new figurative meaning.

By semantic analysis we came across Phraseological units meaning and their usage in speech. As we have told Phraseological units consist of at least two words which give different meaning from dictionary meanings. But in word-form they make new inseparable meaning. Mostly we use Phraseological units instead of simple word in order to make the meaning more expressive. For example, we use alone wolf, instead of to act alone.

In the English language Shakespeare took second place after Bible using Phraseological units. Every Phraseological unit was created under some circumstances in order to describe a person or action make more impressible. If it is used by people in everyday speech, it becomes common, if not, it loses its meaning. Besides this, some Phraseological units are depended on some time, period or some society. However after some time they also lose their meanings or we use new, modern form instead of them.

According to semantic analysis Phraseological units with the components of animals may be divided into:

1. Relationship of leading word with the Phraseological units.
2. Expressing a person's character with the help of characters of animals.
3. Describing a person's state with the help of features of animals.

The meaning of every Phraseological unit, word-form depends on the meaning of a leading word, and the word can change its meaning entirely.



Leading word and its meaning Ph. U and its meaning

A fox—tulki an old fox -Qari tulki; ayyor (Insonga nisbatan)

A dog- it a dump dog – kamgap, muloqatga tez kirishmaydigan odam

But always the leading word coincide with the meaning of Phraseological unit, there may be entirely difference between two forms.

Ex: a rat – kalamush smell a rat – biron narsadan shubhalanmoq,
yomonlikni sezmoq

When I smell a rat, this stolen child, was no other than Paul

Ha, men noxushlikni sezyapman; O'g'irlangan bola Pauldan boshqa emas...

A cat – mushuk Killkenny cats (fight like KillKenny
cats) o 'lguncha (o 'ldirguncha) urishmoq;
Xun olmoq

They tight among each other like the famous Killkenny cats. Ular bir- birlari bilan guyoki xun uchun olishayotgandek edilar

A snake—ilon snake in the grass—

Birovga qarshilik bildirmasdan ish ko'rmq

A cow - sigir a fair cow — yoqimsiz, bo'lmag'ur ish

Besides this there are such Phraseological units which have two or more meanings which sometimes contradict each-other in meaning.

A dog—it 1 Sad dog — g'amgin odam
2. Xushchaqchaq, hazilkash

He was pleased that she should think that he had been a sad dog, and he changed the conversation, so as to make her believe, he had all kinds of romantic things to conceal

Uni yahshi qabul qilishdi. Ayol uni xushchaqchaq kishi deb o'ylashi uchun suhbat mavzusini uzgartirib, go'yo barcha ishqiy sarguzashtlarini o'zida yashiringanligiga ayolni ishontirmoqchi bo'lar edi.

He is quiet well able to take care of himself; he has seen the elephant

U o'zini ehtiyot qilishni yaxshi biladi, u hayotning achchiq-chuchigini tatib ko'rgan.

We must be very attentive in finding the meaning of such Phraseological units, because it's difficult to find out Phraseological units meaning even in the sentences. In order to find the meaning we must get acquaintance with phraseological unit.

Naturally, there is somehow similarity between human being and animals in their characters. Authors are often transfer animals characters to persons to describe his character or vice-verse. Mostly we transfer bad characters of animals to persons to describe their bad behavior or we use kind of persons' characters to animals to show kindness of animals.

He gets angry as a lion. U sherday darg'azab buldi

This puppy is as nice as a baby. Bu kuchukcha ажойиб ширингина экан

Such usage of word form is so popular we met them not only in authors work but in common, everyday speech.

When we use Phraseological unit to describe somebody's state it would be easily understood. It also helps to emphasize the meaning of the Phraseological unit

Tired as a dog – itdek charchamoq

God, I'm tired. I haven't done a thing all day and I am tired as a dog.2

EyHudoyim charchadim. Kип bo'yi hech ish qilmadimu, lekin itdek cahrchadim.

Like a rat in a trap - to 'rga tushgan baliqday

Qopqondagi sichqonday

I am like a rat in trap. If only there were some ways out

Men to'rga tushgan baliqqa o'xshab qoldim. Qani endi muammolarimning yechimi bo'lsa3

Like a drowned rat — suvga tushgan mushukday

You are as wet as a drowned rat. Sit down and dry yourself and speak straight forward4. Xuddi suvga tushgan mushukday bo'libsan. O'tirib qurinib ol va gapning dallosini (po 'st kalasini)gapir.

Reference:

1. Barsov S. B. In the language of Shakespeare. To be or not to be. English sayings. Moscow: ZAO Tsentrpoligraf, 2007.

2. Lyasota Yu. L. English zoosemia. Vladivostok: Publishing house of the Far East. un-ta, 1984.



ОҒАҲИЙНИНГ “ЮСУФ ВА ЗУЛАЙХО” ДОСТОНИНИНГ МАСНАВИЙ ТАРЖИМАСИ

Турсуналиева Муслимабону Абдувосит қизи
Тошкент давлат шарқшунослик университети
Араб филологияси кафедра ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада Огаҳийнинг “Юсуф ва Зулайхо” достонининг маснавий таржимаси орқали маҳорати очиб берилган.

Калит сўзлар: маснавий, байт, бахр, қофия, сўз, маҳорат

Маснавий таржимони ҳар бир байтни алоҳида назарда тутиб, унинг вазни, қофияси, радифи, ички оҳангдошликлари, сўзнинг образлари, мазмуннинг маъноси- ҳаммасини бир пайтнинг ўзида ҳисобга олгани ҳолда таржима қилишга бошлайди. Шу аснода у ҳар бир байтнинг қайси томонини олиб қолиш, нимасини қурбон қилиш, қандай қилиб асл нусхага мувифиқ келувчи байт яратишни узил-кесил ҳал қилиб олади. Шундай қилиб, ўзгаришлар, қуърбон” лар ҳар бир байт доирасида амалга ошади, таржимоннинг асарга муносабатати, “рақиблик” ёки “содиқлиги” шунда намоён бўлади.

Маълумки, Огаҳий “Юсуф ва Зулайхо” асарини байтларни сўзма сўз таржима қилган. Масалан:

*Агар хуршед рўй ман бубенад,
Чу маҳаз хирмани ман хўша чинад (ЎЗАЖ 344)
Мани кўрса агар хуршед ногоҳ,
Юзимдин касб этар нур ўйлаким моҳ. (ЎЗОТ 86)
Гирифти дамбадам пирохани ў,
Ки рўзе суда буди бар тани ў (ЎЗАЖ 345)
Кўлига олибон пироханини,
Ки ул кучмиш эди ҳар кун танини (ЎЗОТ 106)*

Бу байтларнинг мазмуни ва образларигина эмас, балки синтаксистик тузилиши ҳам таржимада акс этган. Шарт эргаш гапли қўшма гапдан ҳосил бўлган байт (I мисол) шарт эргаш гаплиқўшма гап билан, тўлдирувчи эргаш гапли қўшма гапдан тузилган байт (II мисол) тўлдирувчи эргаш гапли қўшма гапдан иборат байт билан таржима қилинган. Эргаш ёки бош гаплар асл нусхада қайси мисрани ташкил этган бўлса, таржимада ҳам ўша ўринда келган.

Огаҳийнинг байтни байтга тўғрилаб таржима қилганлигини, ҳар бир байтнинг ички ва ташқи белгиларини ўзбекча байт биланнинг ички ва ташқи белгиларини ўзбекча байт билан ифодалашга интилганлигини “Юсуф ва Зулайхо”дан олинган тубандаги таржима яққол кўрсатиб турибди:

*Занони Миср кон гулзор диданд,
Зи гулзораш гули дидор чиданд.
Ба як дидор кор аз дасташон рафт,
Зимоми ихтиёр аз дасташон рафт.
Зи зебо шакли у хайрон бимонданд,
Зи ҳайрат чун тани бе чон бимонанд.
Чу ҳар якро дар он дидор дидан,
Таанно шудтурунчи худ буридан.
Надониста турунч аз дасти худ боз,
Зи дасти худ буридан кард оғоз. (ЎЗАЖ 341)
Ҳама хотун очуб дидориға кўз,
Назар солғоч анинг гулзориға кўз
Ҳама бўлди анинг хайрону зори,
Бориб кўлдин инони ихтиёри.
Анингдек бўлдилар шаклиға хайрон,
Ки қолдилар нечунким қисми бежон
Чу ҳар бири ани айлаб тамошо,*



Турунжин тўғрамоқ қилди тамонно.

Турунжу илкини идрок қилмай,

Кесо бошладилар илкини билмай. (ЙЗОТ 89)

Жомийнинг “Юсуф ва Зулайхо” достони- ҳазажи мусаддаси мақсурда ёзилган. “Нухани вазни бирла маснавий эт”, дея олдиға қатъий вазифа қўйган Огаҳий “Юсуф ва Зулайхо”.

Достоннинг асл нухаси ва таржимасидан мисоллар олиб, вазн схемасига солиб кўрайлик:

Ма	нон	мур	ғам	ки	до	мам	до	на	и	туст
Фу	су	ну	вақ	ша	там	аф	со	на	и	туст
V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-
Ма	фо	и	лун	ма	фо	и	лун	фа	у	лун

Байт таржимасининг тақтеъи:

Ма	нул	куш	ман	ки	до	мим	до	ни	нгўл	миш
Ра	мим	аф	су	ни	хуш	аф	со	ни	нгўл	миш
V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-
Ма	фо	и	лун	ма	фо	и	лун	фа	у	лун

Бахрнинг номи ва шоҳобчаси: Ҳазажи мусаддаси маҳзуф

Огаҳийнинг назм таржимасидаги маҳоратининг кучи ва ҳам шундаки, у достонларнинг аксарият байтларидаги жумлаларни, образли ифодалар ва шеърӣ санъатларни ўзбекча аниқ эквивалентлари билан асар вазни доирасида тиклай олган. Унинг таржимасидан ҳосил бўлган байтлар айни вақтда бадий мукамал, равон, ва етук шеър намунаси ҳамдир.

Жомий:

Чунон дар луччаи ишқи туам ғарқ,

К-аз ў ҳоли наям аз пой то фарқ.

Зи ман фассод ҳар рагро ки кояд,

Ба чой хун гамат берун таровад (ЙЗАЖ 327)

Огаҳий:

Бўлибман ўйла ишқинг баҳриға ғарқ.

Ки ҳоли эрман андин пой то фарқ.

Рагим гар неш ила фассод очғай,

Ғаму дардингни қон ўрниға сочғай. (ЙЗОТ72)

Огаҳийнинг бу байтларини бирма-бир аслига солиштириб чиққан киши унда бирорта ҳам четдан сўз ёки ибора қўшилмаганлигини кўради. Таржимонбайтлардаги жумлаларни бутун сўзлари билан ўзбекча қофиялар билан ажойиб тарзда жаранглаб турибди. Охири байтдаги муболағали образли ифода ҳам ўзбекча қофиялар билан ажойиб тарзда жаранглаб турилди.

Фойданилган адабиётлар:

1. Огаҳий “Юсуф ва Зуҳайхо” таржима асари Ўзбекистон Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институтида №7787 инвентар рақами билан сақланади, 1876. –143 б.

2. Огаҳий “Юсуф ва Зуҳайхо” таржима асари Ўзбекистон Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институтида №6728 инвентар рақами билан сақланади, 1905. –143 б.

3. Огаҳий “Юсуф ва Зуҳайхо” таржима асари Ўзбекистон Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институтида №809 инвентар рақами билан сақланади, 1905. –145 б.

4. Абдурахмон Жомий. Юсуф ва Зулайхо. – Т.: Ўзбекистон, 1983.

5. 540.ص. كينورت كفال هخسن: رشان "اخيلز و فسوي" ىماج



ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATINING LINGVOPOETIK TAHLILI

Хайталиева Шохруза Шерали қизи
ММ ва ТХ yo'nlishi 207-guruh talabasi

Annotatsiya: O'zbek she'riyati tarixidan bizga shu narsa ma'lumki, har bir shoir ijodi o'ziga xos mahorat maktabi sanaladi. Har qanday yozuvchi yoki shoirning ijodiy kamolotga erishuvi, eng avvalo, uning milliy g'oya va qadriyatlarga sadoqati hamda ularni o'z ijodida poetik jihatidan nechog'lik mahorat bilan yuksak darajada ifodalay olish imkoniyatiga bog'liq. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri, Navoiy mukofoti sovrindori Abdulla Oripovning el qalbiga yo'l topib uning mehru muhabbatiga sazovor bo'lganligining ham sababi shunda. Abdulla Oripov ijodi nafaqat o'zbek adabiyotida, balki umumturkiy adabiyot kontekstida o'ziga xos mavqega ega. Mazkur tadqiqot ichida ana shu betakrorlikni, o'ziga xoslikni, shoir mahoratini namoyon qiluvchi, yuzaga chiqaruvchi til vositalarining qay darajada qo'llanganligini yuzaga chiqaruvchi til vositalarining qay darajada tadqiq etishga harakat qilangani uning dolzarbligini ifodalaydi.

Kalit so'zlar: Badiiy, muallif, individual, tadqiqot, manba, merosimiz, chinakam, metaforik, yaxlit, falsafa, metafora.

Mavzuning dolzabligi. Badiiy asarning bosh unsuri so'z, umuman, til ekan, ana shu asarning chinakam san'at darajasiga ko'tarila olishida uning tili muallifning til vositalarini qay darajada qo'llay olishi asosiy omildir. Adabiyotimizda iz qoldirgan har qanday ijodkor asarlarining tilini o'rganish, birinchidan, adibning mahoratini o'rganish, shu bilan birga tilimiz rivojiga uning asarlari tili ta'sirini, tadqiqotning esa tilshunosligimiz taraqqiyotiga qay darajada ta'sir ko'rsatayotganini aniq belgilash ehtiyojidan kelib chiqadi[2].

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Keyingi yillarda badiiy asar tili, badiiy asar nutqining individual xususiyatlarini o'rganishda hamda badiiy asarni lingvopoetik tadqiq qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Abdulla Oripov she'rlari e'lon qilina boshlashi bilan adabiy jamoatchilik e'tiborini tortdi. Ham adabiy tanqidchilar, ham she'riyat muxlislari shoir ijodining ilk davridanoq o'zbek nazmi osmonida yana bir "mitti yulduz" paydo bo'lganligini payqagan edilar. Adabiyotshunos olim Matyoqub Qo'shjonovning "Yillar armoni" to'plamiga yozgan "Kamalakdek serjilo" nomli so'zboshisida shoir ijodining tadrijiy rivoji, g'oyaviy ko'lamlarini juda aniq ko'rsatib beradi[1].

ABDULLA ORIPOV SHE'RLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Tadqiqot manbai bo'lmish Abdulla Oripov she'riyati o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega ekanligi bilan ajralib turadi. "Shoirlik iste'dodining muhim bir qirrasini shundaki shoir So'z sehrining mukammal egallagan, uning barcha sir-u asroridan xabardor"1 bo'lishi zarur. Abdulla Oripov she'riyatiga o'zgachalik baxsh etgan omillarning eng asosiysi – uning o'ziga xos tili, o'ziga xos tasvir usuli, xalqona ruh edi[5].

O'zbek xalqi ko'p asrlik og'zaki va yozma madaniy merosga ega bo'lgan xalqdir. Birinchi bobning birinchi bo'limida xalqimiz madaniy merosining ajralmas bo'lagi sanalgan maqol va iboralarning shoir she'riyatidagi o'rni o'rganildi. Gap tarkibida iborani qo'llash orqali nutqning ta'sirchanligi, jozibaliligi oshiriladi, ma'naviy qiyofa shakllantiriladi. Maqol va iboralar qisqa va ma'nodor bo'lganligi uchun muallifning o'z oldiga qo'ygan maqsadni yorqinroq ifodalashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, maqol va iboralarning qo'llanishi asarning xalqchilligidan dalolat beradi. Qadimda ayni shu maqol iboralarni she'r tarkibida qo'llanishi alohida san'at sifatida o'rganilgan va bu san'at irsoli masal deb atalgan. Atoullah Husayniy bu san'atga "mashhur qavlga ko'ra bir baytga kiritmakdur" deb ta'rif beradi[6].

Umuman asrlar davomida she'riyatimiz uslubini bezab, unga o'ziga xos jilo bag'ishlab kelgan maqol, metal, hikmatli iboralardan foydalanish san'ati – irsoli masal she'riyatimiz hozirgi bosqichida ham keng qo'llanishga loyiqdir. Abdulla Oripovning butun ijodi badiiy til mahorati borasidagi ulkan va betakror ibrat maktabidir.

Abdulla Oripov ijodida sinonim so'zlarning qo'llanishi va ularning lingvopoetik tahlili.

Abdulla Oripov she'rlarida ko'zga tashlanib turadigan muhim hususiyatlardan biri shoirning



har bir soʻzni qadrlagani, uni oʻz va koʻchma maʼnolarini topib oʻz oʻrnida qoʻllay olganligidir. Bunday usul sheʼrlarning rang-barangligini taʼminlab, ularning xalq qalbi va ongiga muhrlanib qolishi uchun imkon yaratgan[7].

Abdulla Oripov sheʼriyatida koʻp uchraydigan hodisalardan yana biri antiteza sanaladi.

Antiteza – qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, gʻoya kabilarni qarama- qarshi qoʻyishdan iborat uslubiy qoʻllanishdir. Uning mohiyati ikki tushunchani qarshilantirishdan iboratdir. Biroq bu shunchaki qarshilantirish boʻlmay, maʼlum bir maqsadga xizmat qiladi, yaʼni, qarshilantirish orqali ikki obyektidan birining xususiyati boʻrttirilib, aniqroq, yorqinroq ifodalanadi.

Shoir sheʼriyatida nafaqat leksik, balki kontekstual antonimlar ham keng qoʻllanilgan. Jumladan, bahor va kuz oʻrtasidagi ziddlik. Zohiran qaraganda yilning ikki teng huquqli fasli oʻrtasida ziddiyat yoʻqday. Ammo, bu ikki fasl oʻrtasidagi tafovut kuyga solingan satrlar xalq ogʻzaki ijodida ham, mumtoz va qadimgi adabiyot namunalari ham koʻp uchraydi. Bu ikki faslni oʻzaro qarshilantirish juda qadim tarixga ega. Abdulla Oripov ham ana shu anʼanani davom ettirdi. “Oʻrmon” sheʼrida:

Yaxlit bir manzara: kuz fasli. Sargʻaygan, kuzgi dovullar yalangʻochlashtirayozgan oʻrmon. Daraxtlar xazonrezgi shamollari qoʻynida guvillaydi. Ammo bu toʻkilish alami emas. Shoir bu qoʻshiqda yasharish, koʻkarish, qayta uygʻonib-gullash ohanglarini tuyadi. Bu oʻrinda bahor-kuz qarshilantirishidan asosiy maqsad tiriklikning manguligiga ishoradir[3].

Maʼlumki, sheʼr tarkibida maʼno koʻchishi, soʻzlarning oʻz maʼnolaridan tashqari koʻchma maʼno ifodalashi keng kuzatiladigan holat. Konnotatsiyani yuzaga chiqarishda maʼno koʻchishining har beshshala usulidan ham keng foydalaniladi. Soʻzlarning oʻz maʼnosidan tashqari matn tarkibida, mazmuni yoritish uchun qoʻllanadigan konnotativ maʼnolari oʻz navbatida ifodalanayotgan fikrning taʼsirini teranligini, emotsional boʻyoqdorligini taʼminlaydi.

Abdulla Oripov sheʼriyatining gʻoyat taʼsirli, tushunarli, ishonarli va umrboqiy boʻlib, oʻquvchi qalbidan chuqur joy egallashida shoir mahorati bilan bir qatorda uning ha r bir soʻzni , tushunchani oʻz oʻrnida, teran mushohadali shaklda qoʻllay olganligi sabab boʻlib xizmat qilmoqda[2].

Sheʼr tarkibida koʻp qoʻllanuvchi maʼno koʻchirish vositalaridan biri – metafora sanaladi. Metafora bir predmetning nomini boshqa biror predmetga biror tomondan oʻxshashligini eʼtiborga olgan holda koʻchirishdir. Metafora soʻzlarning yangi maʼnolari hosil boʻlishida qatnashadigan omillardan biridir. Sheʼr tarkibida soʻzlarni metaforik usulda qoʻllashdan asosiy maqsad, sheʼrda obrazlilik, tasviriylkni oshirish, maʼno nozikliklarini aniq va ravshan ochib koʻrsatishdir. Obrazlilik va tasviriylk asosida matnda yuzaga keluvchi koʻchma maʼno konnotativ maʼno sanaladi. Soʻzlarni metaforik qoʻllash koʻchma maʼno- konnotatsiyani yuzaga chiqaruvchi vositalardan biri sifatida ahamiyatlidir. Abdulla Oripov ham nutqning obrazlilikini oshirishda, sheʼr taʼsirchanligini kuchaytirishda metaforalardan unumli foydalangan.

Metaforik qoʻllashda biror bir narsa-buyumning shakli belgisi, harakatining oʻxshash tomoni boshqa bir narsa-buyumga koʻchiriladi. Metaforaning qoʻllanishiga koʻra ikki guruhga ajratish mumkin: lingvistik va xususiy metaforalar. Lingvistik metaforalar obrazlilik va tasviriylkdan xoli boʻlsa, xususiy metaforalar obrazlilik va tasviriylk asosida quriladi.

Abdulla Oripovning “Dorilfunun” sheʼridagi konnotativ maʼnoni yuzaga chiqarish oʻziga xos jozibalidir. Bu yerda shoir insonlar uchun mehr-muhabbat timsoli boʻlgan ona siymosini dorilfununga koʻchiradi[1].

Otashin doʻstlikdan bergansan saboq,

Ey, sen dorilfunun- munis onajon.

Bu oʻrinda shoir inson umrining eng shirin damlari - talabalik yillari oʻtadigan dargoh-dorilfununni Onaga qiyoslaydi, talabalar nomidan uni onajon deb nomlaydi. Ona bagʻri- mehr maskani, shodliklar oʻchogʻi, taʼlim-tarbiyaning boshlangʻich nuqtasidir. Ayni shu taʼrif dorilfununga ham mos keladi. Bu metaforik qoʻllash talabalarining oʻzi oʻqigan oliygohiga nisbatan meh-ru muhabbati, sadoqatining izhori sifatida yuzaga chiqadi[7].

Metaforalarning mazmuniy jihatidan biri sanaluvchi jonlantirish sanʼati ham badiiy matnga obrazlilik, hissiy- taʼsiriy boʻyoqdorlik baxsh etuvchi vositalardan biridir. Metaforik qoʻllashning ushbu turida insonga xos xususiyatlar, holat va harakatlar jonsiz narsalarga koʻchiriladi. Bu bilan nutq taʼsirchanligini oshirishga, konnotativ maʼno yuzaga chiqishiga erishiladi. Abdulla Oripov sheʼriyatida bu kabi oʻxshatishlarni koʻplab kuzatish mumkin.

Abdulla Oripov ijodida takrorning oʻrni va roli

Sheʼrning joziba kuchi, badiiyiligini oshirishda takror alohida oʻrin tutadi. “Shoir va yozuvchilar tasviriyotgan voqea-hodisaning nazarda tutilgan tomoniga oʻquvchining diqqatini tortish, uni



boʻrttiribroq koʻrsatish uchun yoki maʼlum narsalarni sanab koʻrsatish niyatida koʻproq sheʼriy asarlarda ayrim tovush yoki tovushlar birikasiga, gaplarga alohida urgʻu beradi, takrorlaydi”. Soʻz takrori nazmda bir qancha sanʼatlarning vujudga kelishiga asos boʻladi.

Abdulla Oripov sheʼrlarida juda koʻp takror qoʻllanadi. Ularni kontakt holatdagi va distant holatdagi takror koʻrinishlarida oʻrganish maqsadga muvofiqdir[6].

Abdulla Oripovning bir qator sheʼrlarida, jumladan, “Ziyo “, “Ikar”, “Malomat toshi “, “Shoshmaslik haqida ballada” larida takror qoʻllangan. Biz distant takrorning eng xarakterli namunasi boʻlgan “Ikar “ sheʼrini tahlil qilamiz. Sheʼr oʻn besh toʻtlik banddan iborat boʻlib , unda oʻn olti marta ikar soʻzi qoʻllangan. Uch bandda ayni soʻz qoʻllanmagani holda, toʻrt bandda soʻz ikki martadan takrorlangan. Demak, shoir sanʼatning soʻzni har misra yoki baytda (bandda) qoʻllash qoidasiga qattiy amal qilmagan. Sheʼrning birinchi bandi kommunikativ xarakterda boʻlib, ikar soʻzi oʻz maʼnosida qoʻllangan[5].

Hatto baʼzi oʻrinlarda shoir hikmatlari , xalq maqollariga sinonimik xarakter kasb etadi. Chunonchi, “asragay har kas nomin faqat xalqning hayoti” aforizmi “bor qilsa ham xalq qiladi , yoʻq qilsa ham xalq qiladi” maqoliga , “otang ketsa agar ota boʻlarsan, onang oʻrnini bosgay qiz, singil” aforizmi “ot oʻrnini toy bosar , ota oʻrnini oʻgʻil “maqoliga “ ona oʻgʻlin ardoqlar u boʻlsa ham oʻgʻri” aforizmi “qoʻngʻiz ham bolasini oppogʻim der” maqoliga mazmunan hamohang. Bunday maʼnodoshlik hatto xalq maqollari oʻrtasida ham mavjud. Demak , shoir aforizmlari xalq durdonalari xazinasiga alohida ganj boʻlib qoʻshiladi[5,6].

Abdulla Oripov aforizmlariga xos yana bir xususiyat ularda xalq maqollaridan farqli oʻlaroq, inversiyaning kuchliligidir. Bu ayni hikmatlarining sheʼrning tarkibiy qismi ekanligi bilan izohlanadi. “ Bir hovuch kul emish otash qismati” , deb yozadi shoir. Grammatika qoidasiga koʻra : “ Otashning qismati bir hovuch kul emish” tarzida boʻlishi kerak. Bunday inversiya progressive xarakterda boʻlib , aforizmning tez yodda qolishini taʼminlaydi[7].

Xalq maqollarida boʻlganidek Abdulla Oripov aforizmlarini ham oʻz maʼnosidagi va koʻchma maʼnodagi aforizmlarga ajratish mumkin . “Hargiz iltimosga kuning qolmasin” , “Dayr dengizida yakka inson-zarra qum” , “ uyda tinchi boʻlsin yigitning avval, soʻngra butun boʻlsin doʻstning iymoni” ,”Ota yurt vayron esa , farzandga jahon abas”, “Jasorat atalmas ilojsiz bardosh”, “Botirni tan olmas soʻqir fojia , charchash ham mardlikka keltirmagay shak”, “Qayda xasad urugʻ qoʻysa , oʻsha joyda baland boʻlgay igʻvo hosili” singari oʻnlab hikmatlar oʻz maʼnosida. Ularning anchaginasi esa majoziy xarakterdadir. Masalan “Qora bulut yogʻmay ketsada magar , tiniq koʻzgularga tushib oʻtar nam” aforizmi oʻz maʼnosidan tashqari “Yomon odam yaxshi, pok, sofdil odamlarga yovuzlik istab, biror zarar, shikast yetkaza olmasa ham koʻnglida qandaydir xijillik, yoqimsiz his qoldiradi” degan koʻchma maʼnoga ham ega . Aslida maqsad ham ana shu koʻchma maʼnodir. Shuningdek, “ oqmagan daryoning nomidir taqdir “ deyish orqali kishi qanchalik isteʼdodli boʻlmasin, koʻrmasa , bunyod etmasa , iqtidori, qudrati bir puldir, degan maʼnoni ; “ Norning it oldida tiz choʻkkanin koʻrdim” deyish orqali hayotda shunday lahzalar boʻladiki, baʼzan sofdil, yaxshi odamlar ham yovuzlar oldida hech narsa qilolmay qoladilar , degan maʼnoda; “qumursqa yaralgan yoppa talarga “ deyish orqali olamon qavmida boʻlgan patkashning xususiyatini “ Oʻra bersang gʻayur tortar eng yuvvosh it ham” deyish orqali har qanday zulm pirovard-oqibatda mazlumlarning isyoniga olib kelishini ifodalaydi. Bunday xalqona majoziylik aforizmlarga badiiy baquvvatlik, ixchamlik baxsh etgan[2].

Abdulla Oripovning sheʼriy asarlarida boʻlgani kabi nasrida ham aforizm shaklidagi quyma fikrlar uchraydi.

Demak, aforizmlar zoʻr fikrning oddiygina , joʻn bayoni emas, balki ichki ohang , sintaktik yaxlitlik, xalqona ravonlikka asoslangan uchun ham har qanday ijodkor ham yaratavermaydi. Abdulla Oripovda murakkab maʼnaviy sanʼatlar sirasiga kirishayotganimiz hikmatli soʻzlar anchagina. Ular ezgulikni ulugʻlab , gʻayriinsoniylik illatlarini qoralaydi, tabiat va jamiyat haqidagi falsafiy aqidalarni ixcham ijodga eta oladi[3].

Til jamiyat taraqqiyotining koʻzgusi ekan, maʼlum maʼnoda Abdulla Oripov sheʼrlari ham hozirgi tilimiz imkoniyatlari, uning nozik maʼno qirralarini, jumladan soʻzni mohirona qoʻllash, yangi birliklar hosil qilish, xalq tilidan ijodiy foydalanish va boshqalar orqali uning sheʼrlarida oʻz aksini topganligi; xususan, shoir sheʼrlaridagi yangi yasalmalar oʻzining gʻayriodatiligidan tashqari, obrazlilikni yaqqol taʼminlaganligini belgilash.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Адабиётга эътибор-маънавиятга, келажакка эътибор.– Тошкент, “Ўзбекистон”, 2009. -40 б.
2. Султон И. Адабиёт назарияси. . –Тошкент, “Ўқитувчи”, 2005. -410 б.
3. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. –Тошкент, “Шарқ”, 2004. - 640 б. 4.Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. –Тошкент, “Ўзбекистон”, 2002. – 560 б.
4. Норматов У. Қодирий мўъжизаси. –Тошкент, “Ўзбекистон”, 2010. – 272 б.
5. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. –Тошкент, “Шарқ”, 2002. – 380 б.
6. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. –Тошкент, “Шарқ”, 2007. – 336 б.
7. Карим Б. Абдулла Қодирий: Танқид ва таҳлил. – Тошкент, “Фан”, 2006. – 232 б.



ABDULLA ORIPOV MILLAT G'URURI

Xo'jamqulov Javlonbek Baxtiyor o'g'li

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti

Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti talabasi

Xojamqulovjavlonbek@gmail.com

Annotatsiya: Buyuk shoirimiz Abdulla Oripovning hayoti yo'li, yozgan asarlari va biz yoshlar uchun katta xazina bo'lmish she'rlarini chuqur o'rganish va tahlil qilish orqali yoshlarimiz ma'naviyatini boyitib borish va ularda vatanga, oilaga bo'lgan muhabbat tuyg'ularini yuksaltirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Filologiya, muharrir, qasida, dostonnavis, dramaturg, mentalitet, Qur'oni Karim.

O'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan atoqli shoir, taniqli jamoat arbobi, O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi muallifi, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning betakror ijodiy merosi, uning Vatanga muhabbat, vafo va sadoqat tuyg'usini, olijanob insoniy fazilatlarini madh etgan yetuk badiiy asarlari, sermazmun hayoti va ijtimoiy faoliyatining xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, yosh avlod tarbiyasidagi beqiyos o'rni va ahamiyatini tushungan holda keng targ'ib etish lozim. Abdulla Oripov - noyob iste'dod egasi. Chuqur falsafiylik, milliy ruh, diniy-axloqiy mentalitetimizga sadoqat shoir she'riyati asoslarini tashkil etadi. O'zbek xalqining milliy tiklanishi, hurfikrlilik va mustaqillik uchun kurashida Abdulla Oripov she'riyati katta o'rin tutadi.

O'zbekiston xalq shoiri, taniqli jamoat arbobi Abdulla Oripov 1941 yili Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Neko'z qishlog'ida dunyoga keldi. O'rta maktabni 1958 yili oltin medal bilan tugatgach, Toshkent Davlat universiteti filologiya fakultetining jurnalistika bo'limiga kirib, uni 1963 yili muvaffaqiyat bilan bitirdi. 1968 yildan buyon turli nashriyotlarda muharrir, Yozuvchilar uyushmasida kotib vazifalarida xizmat qilib keldi. Mualliflar huquqini himoya qilish agentligining raisi. Keyinchalik O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi vazifasida ishlagan. Abdulla Oripovning ijodi talabalik yillarida boshlangan bo'lib, uning birinchi she'rlar to'plami «Mitti yulduz» 1965 yili chop etilgan. Keyin shoirning «Ko'zlarim yo'lingda» (1967), «Onajon» (1969), «Ruhim» (1971), «O'zbekiston», «Qasida» (1972), «Xotirota» (1974), «Yurtim shamoli» (1974), «Hayrat» (1979), «Najot qal'asi» (1981), «Yillar armoni» (1983) she'riy to'plamlari bosilib chiqdi. Mazkur to'plamlarga kirgan she'rlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, ularda shoirning she'rdan-she'rga, to'plamdan-to'plamga, yildan-yilga o'sib, ijodi barkamollashib borganligiga guvoh bo'lamiz. Kuchli ehtirosli tuyg'ular ularda o'zining yuksak talqinini topib boradi. Bu, bora-bora teran fikr bilan yuksak badiiylikning omuxtasiga aylanib, shoirning ijodiy kamolotga erishganidan darak beradi. Bunga Abdulla Oripovning «Saylanma» (1996) to'plamini o'qib amin bo'lishimiz mumkin. Ayniqsa, istiqlol g'oyasi, el-yurt mustaqilligi, ona Vatanni ozod va obod ko'rish istagi satrdan-satrga parvarish topib, ajib bir porloqlik hosil qiladi. Shoirning «Men nechun sevaman O'zbekistonni», «O'zbekistonda kuz», «Kuz» kabi 60-yillarda yozilgan she'rlaridayoq istiqlol nurlari jilva qilgandek bo'ladi. Xullas, Vatan va xalqqa mehr-muhabbat, tabiatni sevish, ardoqlash, imonli, vijdonli insonlarga madhiyalar o'qish, goh yig'lab, goh quvonib kuylash shoir tuyg'ulari ummonini tashkil etadi. Abdulla Oripov ijodining hozirgi bosqichi yana ham tuyg'ularga boy, fayzli va serbarakadir. Jumladan, «Haj daftari» (1992) turkumiga kirgan she'rlarida endi shoir ma'naviyatimiz manbalarini kashf etish yo'lidan boradi. Qur'oni Karim, Hadisi shariflardan zamonaviy ma'nolar izlaydi va topadi. U dostonnavis va dramaturg sifatida ham ma'lum va mashhurdir. Xususan, «Jannatga yo'l» dostoni va «Sohibqiron» (1996) she'riy dramasi shoirga katta shuhrat keltirgan asarlardir. Abdulla Oripov iste'dodli tarjimon sifatida Dantening «Ilohiy komediya» asarini o'zbek tiliga yuksak mahorat bilan o'g'irgan. Nekrasov, L.Ukrainka, Shevchenko, R.Hamzatov, Q.Quliyev asarlarini ham ona tiliga tarjima qilgan. U O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining muallifi hamdir. 2000-2001 yillarda Abdulla Oripov asarlarining to'rt jildi nashr qilinib, keng kitobxonlar ommasiga manzur bo'ldi. Ijodkorning she'riy majmualari qator xorijiy tillarga tarjima qilingan va alohida kitob holda nashr etilgan. Abdulla Oripov - noyob iste'dod egasi. Chuqur falsafiylik, milliy ruh, diniy-axloqiy mezonlarga sadoqat shoir she'riyati asoslarini tashkil etadi. O'zbek xalqining milliy tiklanishi, hurfikrlilik va



mustaqillik uchun kurashida Abdulla Oripov she'riyati katta o'rin tutadi. O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotining laureati, Kaliforniya (AQSH) Fan, Ta'lim, Sanoat va San'at xalqaro akademiyasining haqiqiy a'zosidir. Mustaqilligimizning yetti yilligida unga birinchilardan bo'lib «O'zbekiston Qahramoni» degan yuksak unvon berildi.

Buyuk shoir davlat arbobi bo'lmish Abdulla Oripov haqida qancha gapirsak, ardoqlasak shuncha oz negaki u kishini ijodlarini o'rganish orqali inson manaviyati va vatanga bo'lgan muhabbati ortib boradi. Bejiz aytilmagan "She'r inson ruhiyati va qalbini poklovchi vositadir" haqiqatda ham shoir o'z she'rlari orqali xalqimiz orasida tanildi, ardoqlandi. Endi bu merosni to'laligicha kelajak avlodga yetkazish, ularning qalbiga she'riyat orqali kirib borish va vatanga bo'lgan muhabbatlarini oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Oripov. Yuzma-yuz. — G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1978.
2. Abdulla Oripov. Yillar armoni. — G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1984.
3. *uz.wikipedia.org*



MEDIA URUSHMI YOKI G'ОYA?

Zulfizar Mamadaliyeva

O'zDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi

Annotasiya: Media bozori tushunchasining shakllanishi axborot urushining kirib kelishi va rivojlanishiga zamin yaratdi. Ushbu maqolada media makonda axborot urushari xususida so'z boradi. Aniq tahlil va mazkur muammoni oldini olishga doir taklif va tavsfiyalar keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Media makon axborot urushi, geosiyosat, mediasavodxonlik, axborot tahdidlari

Urush deganda albatta har birimizning ko'z oldimizga harbiy yurishlardagi miltiq ko'targan askarlar, katyushalar, sovuq qurollar, avtomatlar keladi. Urush nafaqat harbiy sohada balki, boshqa sohalarda ham bo'ladi. Masalan, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarda ham urushlar ko'zga tashlanadi.

Media sohasida axborot urushlari degan so'z kundan kunga ko'payib bormoqda. Xo'sh, media urushi o'zi nima? Uning kelib chiqishiga sabab bo'ladigan asosiy omil nimada?

Media bozori tushunchasining shakllanishi axborot urushining kirib kelishi va rivojlanishiga zamin yaratdi. Ma'lumotlarga ko'ra, XX asrning ikkinchi yarmida "Axborot urushi" tushunchasi paydo bo'ladi. 1976- yilda uni birinchi marta fizik Tomas Ron harbiylar haqidagi nutqida ishlatgan. Rasmiy ravishda ushbu atama AQSh Mudofaa vazirligining 1992 -yil 21- dekabrda MO-DODD 3600 yo'riqnomasida ishlatilganligi qayd etilgan.¹ O'sha davrlarning o'zida axborot urushlari bir-birini inkor etar, ba'zilar o'rtasida chinakam janglar ketar edi. "Axborot urushi" atamasi endi ko'proq jurnalistik xarakterga ega va hali keng tan olinmagan. Bunga ushbu kontseptsiya asosida aslida nimani yashirishi, shuningdek, ushbu atamaning to'g'riligi va amaliy qo'llanilishi to'g'risidagi bahslar, odatda ijtimoiy tizimlarning axborot sohasidagi axborot qarama-qarshiligi yoki manfaatlar to'qnashuvi deb ataladigan ijtimoiy munosabatlar sohasiga nisbatan keng ishlatiladi. Yevropalik olimlar axborot urushi va axborot mojarosini bir-biriga nisbatan juda yaqin qo'llashadi. Ya'ni sinonimlar sifatida. Aslini olganda axborot urushi va mojarosi bir-biridan tubdan farq qiladi.

"Axborot mojarosi" tushunchasi axborot texnologiyalari yordamida amalga oshiriladigan, qarama-qarshi yo'naltirilgan maqsadlar va manfaatlar (nizo shakllaridan biri sifatida), pozitsiyalar va fikrlar to'qnashuvini anglatadi. Axborot mojarosining ishtirokchilari axborot tarqatish manbalari va vositalariga ega bo'lgan subyektlar bo'lishi mumkin. Media bozorda axborotni buzadigan, uning sofligiga putur yetkazadigan yetarlicha subyektlar bor. O'rinli savol tug'ilishi mumkin! Bu subyektlar kimlar? Dunyoni boshqarish uchun media bozorni egallasang, shuni o'zi yetarli deya, ta'rif keltirishadi ayrim "Aqlli" insonlar. Aslini olganda ham hozirda harbiy to'qnashuvlarning aksari qismi media olamga ko'chgan. Chinakam urushlar hozirgi kunda media makonda kuza-tilmoqda. Masalan, Rossiya Tashqi ishlar vazirligi mutaxassislari zamonaviy axborot makonidagi mojaroni "axborot tizimidagi davlatlar o'rtasidagi qarama-qarshilik, axborot tizimlari, jarayonlari va manbalariga, muhim tuzilmalarga zarar etkazish, shuningdek, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarga putur etkazish" deb tushunadilar.²

Media olamida berilayotgan axborotlarning ko'pchiligi gegemon davlatlarning o'z qarichlari bilan o'chab chiqishda, bundan tashqari berilayotgan axborot o'sha mansabdor tashkilot, davlatning manfaatlariga muvofiq berilishi so'zimizni tasdiqlaydi. Media bozorini qo'lga olish strategiyasini har bir davlat o'zicha reja asosida tuzib chiqan. Ushbu jang hududi har kimga ham abadiy qo'lib ketish huquqini bermagan. Jang maydonida har doim ham bir taraf g'olib bo'lavermaydi, deganlaridek, mazkur hududda ham qonunlar o'zgarib turadi. Bilamizki, jang maydonida zaxirasi, askar soni ko'p, yaxshi qurollangan taraf g'olib keladi. Biroq aqlli g'oya egalari jangga qo'mondonlik qilsa, uddaburonlik bilan urushda g'alaba nashidasini suradi. Media olamidagi urushda ham yaxahi g'oyaga tayangan axborot albatta yutib ketadi. Bejizga aksariyat olimlar media urushini, g'oya urushi deya unga ta'rif berishmaydi. Media olamida axborotni uzatish dunyo auditoriyasiga yedirish uchun mukammal g'oyaga asoslangan axborotlarga yutib chiqa oladilar.

Masalan, Iyun oyida Bishkekda bo'lib o'tgan tadbirda mahalliy maktab o'quvchilari rus shoiri Pushkin kunini nishonlamodalar sarlavhasi bilan maqola chop etildi. Bu borada Bishkekda

¹ Grinyaev S.N. Axborot urushi: tarix, hozirgi kun va istiqbol. <http://www.infwar.ru/article>.

² Bartosh A.A. Axborot urushining adaptiv strategiyalari - Moskva: Harbiy fanlar akademiyasining Axborotnomasi - № 2 va 3 - 2016



mazkur maktabga ko‘plab jildlarda rus tilidagi va madaniyati jamlangan kitoblar taqdim etilgan edi. Yuqoridegi so‘zimiz tasdig‘i ya‘niyki, g‘oya urushi. Rossiya hukumati har bir xalqqa madaniyatini tanishtirishdan boshlaydi. Madaniyat va qadryatlar hamnafasligida uning ortidan ketma-ket yangiliklarni ham qabul qilib boorish, uddaburon g‘oya.

Yana bir misol, gegemon davlatlar qatoridan joy olgan Rossiyaning manfaatlarini ilgari surish g‘oyasini bir misolda olaylik.

2010-yilda tashkil etilgan Aleksandr Gorchakov nomidagi ommaviy diplomatiyani qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi ham Rossiyaning “yumshoq kuch” siyosatining yana bir agenti hisoblanadi, dedi Xarshiladze. Ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi sifatida faoliyat olib boruvchi mazkur tashkilot Rossiya tashqi siyosati bilan shug‘ullanadi, ilmiy tadqiqotlar olib boradi va ommaviy diplomatiya sohasidagi ekspertlar va jamoatchilik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq, fond beradigan bilimlar o‘ziga xos nuqtai nazarga asoslanadi, deydi Xarshiladze.

“Fondning bir nechta bitiruvchisi o‘quv materiallarining kamligi va ta‘lim jarayonida mafkuraviy tashviqotga keng o‘rin berilganini aytganlar”, dedi u.

“Rossotrudnichestvo” hukumat agentligi ham Rossiya ta‘limi va madaniyatini xorijga eksport qilishda faol ishtirok etmoqda, deb qayd etdi Xarshiladze.

Uning aytishicha, agentlik Qozog‘istondagi turli ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari bilan hamkorlikda Rossiyaning ta‘sirini mustahkamlashga qaratilgan qo‘shma tadbirlarni o‘tkazib kelmoqda. Sovet ittifoqining fashist Germaniya ustidan qozongan g‘alabasiga bag‘ishlangan har yilgi bayram tadbirlari shular jumlasidandir.

Media muhitdagi axborot urushlari turli davlatlardagi yirik tashkilotlar o‘rtasida ham uchrab turadi. Masalan, Rossiyaning yangiliklar dasturi va Amerika televideniyasidagi yangiliklar dasturlari o‘rtasida. Ayniqsa xalqaro munosabatlar boshlangan davrda, yangilikni uzatish tartibi ham o‘zgarib ketadi. Berilayotgan ma‘lumotlar albatta maxsus topshiriq asosida tayyorlanadi.

Har qanday sohada talab doirasidagi mahsulot bozori chaqqon bo‘lganidek, media makonda ham auditoriya talab qilgan axborot tez ketadi. Buni ko‘plab journalist tadqiqotchilar amalda sinab ko‘rganlar. Axborot tezligiga erishilgan bo‘lsada, lekin uning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi tekshirilmayotgani achinarli hol. 21 asrda media biznesi rivojlanishi oqibatida dunyo auditoriyasiga axborot yetkazishda yolg‘on xabarlar ko‘payib ketdi. Raqobatchi tashkilotlarning pul ketidan yugurishi, shuningdek auditoriyani o‘zimga jalb qilaman deya ko‘plab “utka”, “fake”, “troll”, “xameleon”, “chorniy piar” kabi xabarlar dunyoga keldi. Rossiyaning matbuotida bu atamalar o‘z o‘rnini topgan bo‘lsa, Aqsh televideniyasi rivojlanish bosqichi shu atamalarga to‘ldi. OAVlari auditoriya bizning mahsulotni o‘qisin, bizning axborotga qul bo‘lsin qabilida, jurnalistikani shuncha atamalar bilan to‘ldirib tashladi. Axborot oluvchilar ko‘plab yolg‘on axborotlarga aldandilar. Amerikada fake xabarlar dastlab, ommani fikrini chalg‘itish uchun paydo bo‘lgan bo‘lsa, Rossiya-da esa qiziqtirish maqsadida qo‘llangan.

Feyk odatda ochiqdan-ochiq yolg‘on faktlar, uydirma raqamlardan tashkil topadi. Shu sababdan ularni aniqlash va inkor etish professional nuqtai nazardan qiyinchilik tug‘dirmaydi. Aksariyat feyklar shov-shuvli, vahimali sarlavhalar ostidaberiladi. Bu ham Amerikaga xos hislatlardan biri. Ammo feyklarning keng tarqalgan yana bir turi mavjudki, ular har tomonlama puxta tayyorlanadi. Go‘yoki muallif rasmiy hujjatlar, tekshiruv-tahlil xulosalariga tayanadi. Ko‘rinishidan haqiqiy materialdan farq qilmaydi. Ularni umumiy yangiliklar oqimi orasidan payqab olish qiyin. Shunday ekan tanganing bir tomoni bo‘lgani kabi, uning ikkinchi tomoni borligini unutmashlik lozim. Amerika matbuotida fake ommalashgan bo‘lsada, unga qarshi vakcina ham topilgan. Fake atamasiga antonim so‘z sifatida faktchecking iborasi qo‘llaniladi. Lekin ko‘p davlatlar ushbu so‘zga yechim sifatida qarashmaydi. Ko‘rinib turibdiki AQSH va Rossiya jurnalistikasida qator oxshashliklar, va bir-birini inkor etuvchi tomonlar ham bor. Jurnalistika va OAVlari rivojlanish davrida qancha qiyinchiliklarni boshdan o‘tkazgan bo‘lsada, bu uning faqatgina rivojlanishiga zamin bo‘lib kelmoqda.

Axborot bozorining ma‘lum bir turdagi yolg‘on xabarlar bilan boyitilishi va uning oqibatida kelib chiqadigan mojarolar, tashkilot yoki davlat manfaati va shaniga putur yetkazib qolmaydi. Tanganing yana bir tarafiga nazar tashlanadigan bo‘lsa, axborotni sof talqinda yetkazib beradigan media tashkilotlar yo‘q emas. Shunday ekan sof va uydirmalardan, g‘arazli niyatlardan xoli bo‘lgan axborot har qanday maydonda g‘olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Grinyaev S.N. Axborot urushi: tarix, hozirgi kun va istiqbol. <http://www.infwar.ru/article>.
2. Bartosh A.A. Axborot urushining adaptiv strategiyalari - Moskva: Harbiy fanlar akademiyas-



ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ И СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКУ

Абдуллаева ГулчехраМерджалиловна,
Старший преподаватель кафедры русского языка
Технического института Ёджу в г. Ташкент

Аннотация: Основная идея при написании статьи заключалась в том, что каждая возрастная группа должна использовать действие определенным образом, в зависимости от стадии развития учащихся. Каждая группа начинается с краткого психологического описания, поскольку этап развития влияет на то, как преподаватели работают со своими студентами во время занятий изучения языка. Затем основное внимание уделяется физическим действиям при обучении четырем навыкам: чтению, письму, разговорной речи и аудированию.

Ключевые слова: смешанные способности, язык, группа, деятельность, стратегии, учащийся, уровень, разный, потребность учащегося, мотивация, интерес,

Обычно группа со смешанными способностями означает случайно выбранных студентов, собранных в одной группе, независимо от их способностей или достижений по соответствующему предмету. В определенной степени все группы имеют разные способности, и вы найдете более сильных и более слабых студентов в каждой группе. Учащиеся различаются по своей компетенции, мотивации к изучению языка, потребностям, интересам, стилям обучения и опыту. У учащихся разные потребности и разные стили обучения. Есть студенты, которые одарены и легко понимают и студенты, которые с трудом понимают основную информацию, и те, которые находятся где-то между этими двумя крайностями. [1] В группе преподаватель может найти учащихся, у которых есть мотивация, что является важным фактором в овладении языком, а также тех, кто не заинтересован в изучении нового языка. Учащиеся различаются по уровню владения языком и даже по своему отношению к изучению языка, а также по самодисциплине.

Учащиеся по-разному извлекают пользу из групп со смешанными способностями. Продвинутое учащиеся получают удовлетворение от помощи студентам более низкого уровня. Несмотря на то, что учащиеся сгруппированы в соответствии с их результатами тестирования, их успеваемость обязательно будет на разных уровнях. В связи с указанными различиями студенты индивидуально реагируют на учебный материал и методы обучения. Трудно найти занятия, в которых участвуют все учащиеся, чтобы одни не скучали, а другие были сбиты с толку, неуверенно или обескуражены.

Самая большая проблема для учителей - это, безусловно, поиск подходящих учебных материалов и занятий. Учителю необходимо найти правильный баланс материалов, которые будут одновременно интересными и сложными для учащихся. Это может быть сложно из-за разных способностей учеников и их разного уровня подготовки. Вы можете обнаружить, что продвинутые ученики начинают плохо успевать, если задачи, поставленные в группе, не соответствуют их уровню. Другие учащиеся могут даже запугать их, если они будут более интроспективными. Более слабые студенты также могут чувствовать давление в группе, поскольку задачи могут выходить за рамки их возможностей. [2] Также может потребоваться время, чтобы определить потребности каждого. Осведомленность о проблемах, с которыми сталкиваются смешанные группы, помогает преподавателю быстро решать любые проблемы.

Анализ потребностей - лучший способ определить, как более эффективно преподавать в группе с разными способностями. Вы можете узнать сильные и слабые стороны учащихся, языковые потребности, стили обучения и стратегии.

С другой стороны, группировка способностей - это возможный способ дифференцировать виды деятельности. Разделенным друг от друга группам более слабых и более сильных студентов даются разные задания. Другой способ сгруппировать учащихся может быть основан на их стилях обучения. Таким образом, техника работы над групповыми заданиями становится очень важным оружием в арсенале преподавателя. [3]

Способы помочь более слабым студентам:

- давать четкие инструкции с помощью жестов,
- убедиться, что они понимают задачу, в противном случае попросите более сильных учеников объяснить ее на их родном языке,
- дать время подумать и сделать заметки перед разговорной деятельностью,
- сократить лимит слов в производственной деятельности,



- приводить примеры в качестве модели перед написанием заданий,
- предварительно обучить лексике с помощью наглядных пособий,
- предоставить широкий выбор языковых и визуальных стимуляторов,
- разрешить использование словарей в задачах на понимание прочитанного,

Вот несколько различных идей для преподавания в группах со смешанными способностями.

Руки вниз

Руки вниз - очень полезная техника, которая выравнивает группу и способствует большему участию студентов. Это займет немного времени и потребует постоянства, но награды огромны, особенно в сочетании с техникой мини-доски. [4]

Разделить группу: равные способности

Насколько вы можете, разделите группу на более мелкие с равными способностями для разных занятий, а затем установите разные действия для каждой группы. Это не означает совершенно разных действий для каждой группы, скорее, вы просите каждую группу получить разные результаты от одного и того же действия. Например, если вы просите каждую группу написать короткий текст на определенную тему, вы можете попросить более сильную группу сделать его длиной 100 слов, большей части - 75 слов, а более слабой группы - 50 слов.

Хотя вы не стали бы объяснять это всей группе. Скорее всего, вы бы составили группы, поставили задачу, а затем обошли бы каждую группу и объяснили бы их конкретную цель.

Преимущество здесь в том, что вы можете ходить по разным группам и помогать там, где вы больше всего нужны.

Домашнее задание

Это та область, в которой, возможно, вы сможете добиться наибольших результатов. Когда вы раздаете домашнее задание, убедитесь, что оно ориентировано на способности каждого учащегося.

Таким образом, вы можете легко дать более сильным учащимся домашнее задание, отличное от более слабых, чтобы убедиться, что обе группы имеют правильный уровень для стимулирования и продуктивности. [5]

Также полезно побуждать учащихся размышлять о своих способностях путем самооценки. Портфолио / листы записей / дневники / страницы самопроверки - эффективный способ работы с группами со смешанными способностями. Преподаватель может попросить учащихся сохранить все, что они делали в течение семестра, включая аудиторную работу и самостоятельную работу. Эта запись также показывает потребности учащегося в дальнейшем продвижении. В результате каждый учащийся записывает свой прогресс в течение семестра. Портфолио следуют за успехами учащегося, а не за его неудачей, и поэтому добавляют мотивации к обучению. Это означает, что нужно ценить их хорошие стороны, помогая им улучшить их слабые стороны. Эти работы, основанные на критериях учебной программы, помогают учащимся записывать свои достижения, размышлять о трудностях и находить способы их преодоления. Это также может заставить их улучшить свое время. Этот гибкий инструмент обучения поддерживает их долгосрочные усилия, повышает их уверенность в своих способностях изучать язык и способах его изучения, поэтому они разрабатывают стратегии, чтобы стать более компетентными учениками. Таким образом, изменение содержания, процесса и продукта базовой учебной программы должно отвечать разнообразным академическим потребностям групп со смешанными способностями. Разнообразие типов рабочих групп с учетом предпочтений учащихся, выровненных материалов, выбора форматов презентаций - это дифференцированные стратегии обучения, которые сделают класс гостеприимным и вдохновляющим местом для мотивации изучающих язык, вовлекут всех учащихся в занятие и гарантируют их прогресс.

Литература

1. Гиньон, А. (2017) Множественный интеллект: теория для всех.
2. Келли, А.В. (2012) Смешанные группы способностей. Лондон: Издательство Harper&Row.
3. Клут, П. (2005) Дифференцирующая инструкция: 5 простых стратегий для инклюзивных классов.
4. Продромоу Л. (2011) Класс со смешанными способностями и плохо изучающий язык. 27/4, 2-8.
5. Томлинсон, К. (2015) Дифференциальные инструкции для продвинутых учащихся со смешанными способностями.



SPORT TURIZIMI JARAYONIDA EKOLOGIK MADANIYATNING MOHIYATI

Азизов Маъруфхўжа Аҳматхонович

Наманган муҳандислик қўрилиш институти,
Жисмоний маданият ва спорт
кафедраси ўқитувчиси

Annotatsiya: "sport turizmi" ta'rifiga bir qancha yondashuvlar mavjud. An'anaga ko'ra, "sport turizmi" tushunchasi sport turi sifatida tushuniladi, boshqa yondashuvga ko'ra esa sport turizmi turizmning mustaqil yo'nalishi sifatida ajralib turadi.

Kalit so'zlar: "Sport turizmi", madaniyat, turizm, ekologik madaniyat, ekologik bilim

Sport turizm - bu mustaqil va ijtimoiy yo'naltirilgan soha, jamiyatning muhim qatlamining turmush tarzi; insonning ma'naviy va jismoniy rivojlanishining samarali vositasi, tabiatga nisbatan hurmatli munosabatni, xalqlar va millatlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni va o'zaro hurmatni tarbiyalash; xalq ijodiyotining o'ziga xos shakli, maktabgacha yoshdagi bolalardan tortib nafaqaxo'rlarga qadar o'z faoliyatining shaklini erkin tanlash bilan ajralib turadigan, xalqlarning hayoti, tarixi, madaniyati, urf-odatlarini bilan haqiqiy tanishishga asoslangan dam olishning eng demokratik turi, "xalq diplomatiyasi" shakli.¹

Sport turizmi nafaqat sport bilan shug'ullanadi. Bu sayohat mintaqasida yashovchi xalqlarning madaniyati bilan tanishish, hayratlanarli manzaralar tafakkuridan bahramand bo'lish va kashshof kashfiyotchining hayajonini his qilish imkonini beradi. Albatta, umuman aerofotosuratlar davrida geografik kashfiyotni amalga oshirish mumkin emas, lekin siz hali ham bironta odam oyoq bosmagan joylarga tashrif buyurishingiz mumkin. Va nihoyat, sport turizmi - bu donolik maktabi. Bu kuchlarni aniq hisoblash, hodisalarni oldindan ko'rish qobiliyati va ular tomonidan hosil bo'lgan jarayonlarning borishini taxmin qilish.

"Sport turizmi" ta'rifiga bir nechta yondashuvlar mavjud. An'anaga ko'ra "sport turizmi" tushunchasi sportning bir turi sifatida tushuniladi, boshqa yondashuvga ko'ra sport turizmi turizmning mustaqil yo'nalishi sifatida ajralib turadi va sayohat maqsadiga qarab ikki turga bo'linadi: faol va passiv. Birinchi holda, turistning asosiy maqsadi sportning har qanday turi, shu jumladan sport turistikasiga o'xshash, ammo raqobatdosh tarkibiy qismi bo'lmagan sport va sog'lomlashtirish turizmi bilan shug'ullanish imkoniyatidir. Ikkinchidan, sayohatning maqsadi sport tadbirlari va musobaqalariga tomoshabin yoki muxlis sifatida tashrif buyurishdir.

"Sport turizmi" quyidagi sport turlarini o'z ichiga oladi: piyoda yurish, bu marshrutlar bo'yicha musobaqalar, tabiiy muhitdagi toifadagi to'siqlarni engib o'tish va tabiiy muhitda va sun'iy relyefdagi masofalarda. Sport turizmining asosiy maqsadi - sayyohlik mahoratini oshirish, marshrutlardan o'tish texnikasi va taktikasini takomillashtirish, sug'urtalashning turli usullarini ishlab chiqish, turistik jihozlarning yangi turlarini o'zlashtirish, shuningdek, turizmni faol ravishda targ'ib qilish. Sport toifalari va turizm bo'yicha sport ustasi unvoni tugatilgan yurishlarning soni va murakkabligi hamda ularni mustaqil boshqarish tajribasi hisobga olingan holda beriladi. Zammning qiyinligi marshrutning qiyinchiliklar toifasi bilan belgilanadi.

Sport turizmi uchun doimiy ravishda o'z-o'zini takomillashtirish xarakterlidir: piyoda yurish va uzoq va tobora qiyinroq yo'nalishlarda sayohat qilish - sportchi sayyohlarning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligini doimiy ravishda oshirib borishni talab qiladi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, sport turizmi sport turlaridan olingan, ammo sport musobaqalarida (kategorik bo'lmagan yoki ko'ngilochar sayohatlar) tayyorgarlik ko'rish va bajarish bilan bog'liq bo'lmagan shakllar, vositalar va shu mazmundagi turistik faoliyatning bunday turlarini o'z ichiga oladi. Ular jismoniy rivojlanish va tarbiya, sog'liqni saqlash va mustahkamlash, faol dam olish va inson tanasining funktsional tiklanishiga qaratilgan.² Voqealar sport turizmi bu juda keng va jadal rivojlanib kelayotgan sport turizmi bo'lib, unda sayohatlar har qanday sport tadbirlari

¹ Ganopolskiy V.I. Turizm darslari / O'qituvchilar uchun qo'llanma. - Minsk: NMTsentr, 1998. - 216s. - (Maktabda turizm).

² ИНТЕГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ НАУКИ И ПРАКТИКИ Сборник статей по материалам II международного научного симпозиума апреля 2014 года Орел 2014 УДК (082)



va tadbirlariga (turistning turli chempionatlar va musobaqalarda muxlis sifatida ishtirok etishi yoki uning havaskorlar yoki sahnalashtirilgan musobaqalarda bevosita ishtirok etishi) bilan mos keladi. "sarguzasht turizm" deb nomlangan). Ushbu turdagi turizm passiv sport turizmi deb ataladi. *Maqsadli auditoriya* - bu sport muxlislari, musobaqa ishtirokchilari va sport menejerlaridir. Musobaqaning darajasi va ahamiyati ular uchun muhim: Olimpiya o'yinlari, Jahon yoki Evropa chempionatlari, saralash o'yinlari yoki professional sport ligalarining final bosqichi. Bu juda katta va xilma-xil maqsadli auditoriya, shuning uchun ba'zan sport tadbirlari turizmi tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan alohida turizm turi sifatida qaraladi. Ekologik madaniyat – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va ma'suliyatli yondashuvdir.¹ Ekologik bilim va ekologik madaniyatning tayanch fazilatlarini:

1) axloqiy-ekologik onglik shaxsning muhim madaniyatlilik sifati bo'lib, uning atrof – muhitni hissiy bilish jarayoni atrof – muhitdagi obyektlar va hodisalarni sezishi, idrok etishi, tasavvur qilishi, ziyoratlik va teranlik asosida tabiat muhofazasi bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligini nazarda tutadi;

2) ekologik ma'suliyatlilik shaxsda munosabat va ma'sullikni tarbiyalashda namoyon bo'ladi, bunday munosabat shaxsning bilib-bilmay, uzoqni o'ylamay tabiatga ko'rsatgan salbiy ta'siri oqibatlarini anglash va bunday ta'sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi;

3) ekologik irodaviylik shaxsning o'zi va o'zgalarning atrof – muhitdagi hatti-harakatlarini baholashi va nazorat qilishi shaxsdagi qat'iyatlilik, tejamkorlik, ozodalik va pokizalik bilan bog'liq.

Shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirishda ekologik qadriyatlar alohida ahamiyatga ega, ularga tabiatni asrab-avaylashga intilish, tashabbuskorlik, izchillik, mehnatsevarlik va ongli faollik kabilar kiradi. Masalan, ekologik qadriyatning bir turi, ya'ni global, mintaqaviy va lokal ekologik muammolarni bilish yer, suv, energetik muammolar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash, cho'llanish jarayoni, atmosfera havosining ifloslanishi kabi tushunchalar bilan chambarchas bo'g'liq. Ekologik ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash bog'chalar, maktablar, lisey, kollejlari, oliygohlarda mutaxassislar tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq.

Aholining boshqa tabaqalarida esa O'zbekiston ekologik partiyasi va boshqa ko'ngillilar, tashkilotlar tomonidan targ'ibot ishlari yo'lga qo'yilishi mumkin. Ekologik ta'limning nazariy asosi - atrof muhit muhofazasiga oid ta'limni bog'cha, maktab, katta-kichik o'quv yurtlari, oliy o'quv yurtlarida ma'lum o'quv reja va dasturlari asosida olib borish hamda malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Yig'ilgan tajribalar umumlashtirilib bir pedagogik shaklga keltirilib o'quv dasturi darsliklari tuzilishi lozim.

Sport Turizmi Turlari²

1. Ganopolskiy V.I. Turizm darslari / O'qituvchilar uchun qo'llanma. - Minsk: NMTsentr, 1998. - 216s. - (Maktabda turizm).

2. З.С. Тинькова, К.Е. Токарева, Т.Н. Мостовая «Туризм, рекреация и спорт» ФГБОУ ВПО «Госунiversитет УНПК» УДК (082) ББК 75я я ФГБОУ ВПО «Госунiversитет УНПК», 2014

3. М.А. Соломченко, В.В. Бойко, С.Ю. Махов, Физическая культура, спорт и туризм. интеграционные процессы науки и практики Сборник статей по материалам II международного научного симпозиума апреля 2014 года Орел 2014 УДК (082)

4. Худойкулов Х.Ж. Касб таълимда экологик муаммонинг замонавий талқини. // «Касб-Хунар таълими» журнали, 2016, № 4. -14-16-б.

5. Qandov, B. Yoshlar ekologik ongini shakllantirish <http://geografiya.uz/ekologiya/755-yoshlar-ekologik-ongini-shakllantirish.html>

¹ ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА, СПОРТ И ТУРИЗМ. ИНТЕГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ НАУКИ И ПРАКТИКИ Сборник статей по материалам II международного научного симпозиума апреля 2014 года Орел 2014 УДК (082)

² <https://svastour.ru/articles/putesstviya/vidy-turov/vidy-sportivnogo-turizma.html>



БLENDED ТАЪЛИМ МУҲИТИДА РАҚАМЛИ ЎҚУВ ДАСТУРЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА СИФАТ ВА МАЗМУН КАТЕГОРИЯЛАРИ

Азизов Солижон Ўчмас ўғли

таянч докторант, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

E-mail: solijonazizov1@gmail.com, +99893 392 47 78

«Бугун ҳар бир ўқитувчи ва тарбиячи, олийгоҳ домласи таълим ва илм-фан соҳасидаги энг сўнги ижобий янгиликларни ўқув жараёнларига татбиқ эта оладиган, чуқур билим ва дунё қараш эгаси, бир сўз билан айтганда, замонамиз ва жамиятимизнинг энг илғор вакиллари бўлишлари керак».

Ш. Мирзиёев

Аннотация. Рақамли таълим шароитида олий таълимда таҳсил олаётган талабаларни бўлажак мутахассис кадрлар сифатида тизимли тайёрлашда амалиётга татбиқ этилаётган замонавий таълим технологиялари ва воситаларининг сифат ва мазмун категориялари кундан кунга долзарб аҳамиятга эга бўлиб бормоқда. Ушбу мақолада blended таълим муҳитида чет тилларни ўқитишнинг рақамли дастурларини шакллантиришдаги муҳим омиллар назарий ва амалий асосларга кўра батафсил таҳлил этилган.

Калит сўзлар: blended таълим, рақамли ўқув дастури, ёзув компетенцияси, сифат категорияси, онлайн таълим, мазмун категорияси, узвийлик, узлуксизлик.

Blended таълим шакли ўзида анъанавий (оффлайн) ва масофавий (онлайн) таълим шакллари ўзаро бирлаштирган жараёндир. Зеро, ҳар икки таълим шакли учун ўқитувчи алоҳида-алоҳида таълим методи, технологияси ва ёндашувидан фойдаланади ва дарс жараёнларини ташкил этади. Бироқ, бугунги замонавий ахборот-коммуникация технологиялари (АКТ) жадал ривожланиб бораётган бир даврда таълимда олиб борилаётган ислохотлар бевосита инновацион қарашлар замирида амалга оширилиши замон талабига айланди. Таълим жараёнига инновацион технологияларни босқичма-босқич жорий этишдан кўзланган асосий мақсад ўқитувчи ваталабалар (ўқувчилар)нинг узвий ва узлуксиз таълим олишларидаги мавжуд муаммоларни назарий ва амалий асосларга таянган ҳолда самарали ҳал этишдир. Ҳозирги замонда қарийб бутун инсоният юзлашаётган COVID-19 пандемияси жамиятнинг деярли барча соҳалари ривожига маълум бир даражада чекловлар қўйди, натижада АКТга бўлган талаб ва эҳтиёж сезиларли даражада ортди. Хусусан, таълим соҳасида ҳам бир қатор муҳим инновацион ўзгаришлар содир бўлди. Blended таълим муҳитида дарс жараёнларини ташкил этиш орқали ҳар икки таълим платформаларида ўқитувчи ва талабаларни узлуксиз ва узвий таълим билан тизимли таъминлаш имконияти мавжуд. Масофавий таълим шакли ўз номи билан фақат виртуал дарс жараёнларини қамраб олса, blended таълим эса ҳам масофавий, ҳам анъанавий дарс жараёнларини ўзаро уйғунлаштирилганлиги билан ўзига хос муҳим аҳамиятга эгадир. Таълимнинг узвийлиги ва узлуксизлиги ундаги сифат ва мазмун категорияларининг қай тартибда шакллантирилганлиги ва қайси самарали таълим воситалари билан таъминланганлиги билан белгиланади. Узлуксизлик ва узвийлик категориялари blended таълим муҳитида дарс жараёнларида ўқитувчи томонидан қўлланилаётган метод, технология ва ёндашувга бевосита боғлиқ. Шу сабабли ушбу мақолада филологик олий таълим муассасаларида бўлажак мутахассисларга чет тилларни ўқитиш тизимида (ёзув компетенцияси мисолида) blended таълим жараёнининг сифат ва мазмун категорияларини ташкил этишда муҳим аҳамиятга эга бўлган жиҳатлар таҳлил этилади.

Илмий адабиётларда blended таълим ёндашуви асосида чет тилларни ўқитиш амалиётини ташкил этишнинг долзарблиги хусусида тўрт муҳим омил қайд этиб ўтилган ва улар **мақсад, мувофиқлик, мултимодаллик ва барқарорлик**дир [2]. Ушбу муҳим омиллар blended таълим муҳитида рақамли таълим дастурларини яратиш ва шакллантиришда ҳам ўз долзарблигини сақлаб қолади. **Биринчидан**, мақсадтушунчаси таълимда замонавий педагогик ва АКТнианиқ бир муаммони ҳал этишни кўзлаган ҳолда олдиндан мукамал ишлаб чиқиш жараёнини ўзида акс эттиради. Мисол учун, филологик олий таълимда талабаларнинг узвий ва узлуксиз таълим олишларини ўзида тўлиқ акс эттирувчи ўқув дастурларининг шакллантирилганлиги ҳам профессор-ўқитувчилар, ҳам бўлажак мутахассислар учун амалда ҳар томонлама қулайлик яратади. Зеро, электрон таълим платформасида ўқув дастурларини шакллантиришда соҳа мутахассислари (ўқитувчилар ва ушбу жараёнга маъсул ходимлар)



талабаларнинг бўлажак мутахассис сифатида такомиллаштиришлари лозим бўлган малака ва кўникмаларга асосий эътиборларини қаратишлари мақсадга мувофиқ. Натижада дарс жараёнларида талабалар дуч келаётган муаммо ва қийинчиликлар ўқитувчилар томонидан ўрганилади ва уларни ҳал этишда айнан blended таълим технологияларидан фойдаланиш мақсад сифатида белгилаб олинади. Бу ёндашувнинг энг муҳим жиҳати барча муаммоларнинг ўз ўрни ва вақтида ҳал этилишидир. Бундан ташқари, мақсад омили ўзида «**принципиаллик**», «**бошқарувчилик**», «**ҳамкорлик**», «**жавобгарлик**» ва «**таҳлилийлик**»[2] каби концепцияларни, яъни тушунчаларни қамраб олади ва улар қуйидаги жадвалда ёзув компетенциясини такомиллаштириш дастури мисолида батафсил ёритилган:

Концепция	Изоҳ
Принципиаллик	Бутун бир ўқув дастури ёки курсни ташкил этишда педагогик технологиялардан фойдаланишнинг ўз принциплари ишлаб чиқилади ва унга барча амал қилади. Хусусан, ёзув компетенцияси доирасидаги blended таълим муҳитида ўқитувчи талабалар билан биргаликда умумий принципларга асосланган дарсларни олиб боради. Бу меъёр амалда бир маромда кўзланган мақсадларга эришишга имкон беради.
Бошқарувчилик	Blended таълим муҳитида ўқитувчи ва талабалар амалиётга тадбиқ этилган технологияларни деярли тўлиқ ўзлари бошқариш имкониятига эга бўлишади. Ўз ўрнида ушбу меъёр ўқитувчининг ёзув компетенцияси доирасидаги дарс жараёнларини мустақил ва самарали ташкил этишдаги потенциалини ошириш билан бўлажак мутахассис сифатида талабаларнинг амалда босқичма-босқич тажриба орттиришларига замин яратади. Зеро, олий таълимда чет тилда ёзув компетенциясини такомиллаштириш талабаларнинг узлуксиз ўқитувчи назорати остида топшириқларни бажаришларини талаб қилади.
Ҳамкорлик	Ҳар томонлама интеграциялашган blended таълим муҳити ўқитувчи ва талабаларнинг ҳамкорликда дарс жараёнларини олиб боришларини тақозо этади. Натижада амалий жараёнда ҳар бир дарс ёки мавзу юзасидан эгалланган натижалар яққол намоён бўлади. Шунингдек, талабаларнинг бевосита ўқитувчи билан ҳар иккитаълим платформасида олиб борган ҳамкорликдаги дарс машғулотлари соҳанинг бўлажак мутахассислари сифатида уларнинг ўзларига бўлган ишончи ва мотивациясини янада оширишда хизмат қилади.
Жавобгарлик	Blended таълим шароитида икки томонлама (ўқитувчи ва талабалар) ҳамкорликда фаолият бир маромда олиб борилмас экан, амалда муаммо ва қийинчиликларга ҳеч қандай ечим топилмайди. Шу боис ушбу таълим шакли дарс жараёнларида ҳисобдорлик ҳолатини яққол ва шаффоф юзага чиқариб беради ва ундаги эҳтимолий салбий ҳолатларнинг олдини олиш учун ҳам ҳар икки томон ўз жавобгарлигини тўлақонли ҳис қилган ҳолда узлуксиз ҳаракатда бўлади.
Таҳлилийлик	Дарс жараёнларига тадбиқ этилаётган ҳар қандай технология ўз самардорлигини қачонки фойдаланувчилар (ўқитувчи ва талабалар) у орқали амалда ўз муаммоларини ижобий ҳал этишда фойдалана олганларидагина ўз тасдиғини топиши мумкин. Blended таълим муҳитида ҳам талабаларнинг эгаллаётган натижалари ўқитувчи томонидан мунтазам таҳлил қилиб борилади ва баҳоланади. Хусусан, чет тилларни ўқитиш ва ўрганиш, айниқса, ёзув компетенциясини такомиллаштиришдаги ютуқ ва камчиликларнинг ўз вақтида аниқланганлиги уларнинг самарали ҳал этилишида муҳим омилдир.

Иккинчидан, филологик олий таълимда амалиётга тадбиқ этилаётган педагогик технологиялар ҳар томонлама барча талаб ва тақлифлар билан ўзаро мувофиқликда бўлиши лозим. Бў ўринда ўқитувчининг талабаларнинг ёзув компетенциясини такомиллаштиришдаги имкониятлари, қизиқишлари, уларнинг бўлажак мутахассис сифатида ўзлаштиришлари лозим бўлган кўникма ва малакаларни ҳисобга олган ҳолда рақамли ўқув дастурларини шакллантириши назарда тутилади. Акс ҳолда, натижада ҳеч қандай амалий ютуқларга эришиб бўлмайди. Бундан ташқари, мувофиқлик омили ҳам ўзида «**аниқлилик**», «**мослашувчанлик**», «**тушунарлилик**», «**ўзаро мувофиқлик**» ва «**аутентивлик**» (ишончлилик)[3] каби жиҳатларни акс эттирган:



Концепция	Изоҳ
Аниқлилик	Ўзув компетенцияси бўйича blended таълим муҳитида дарс жараёнлари-га технологияларни тадбиқ этишда барча ички ва ташқи омиллар тўлиқ инобатга олинади. Бу ёндашув ўқитувчи ва талабаларнинг қулай таълим муҳитида фаолият олиб боришларига хизмат қилади.
Мослашувчанлик	Технологияларнинг ҳар бир ўқитувчи ва талабанинг имконияти ва эҳтиёжига мослашувчанлиги амалда қўрилган натижаларга эришиш имкониятини беради. Мисол учун, бошқа чет тил компетенцияларида бўлгани каби ўзув компетенциясини такомиллаштиришда ўқитувчи гуруҳда таҳсил олаётган ҳар бир талабанинг шахсига индивидуал ёндашган ҳолда амалдаги технологияларни самарали мослаштира олиши муҳим аҳамият касб этади.
Тушунарлилик	Blended таълим муҳитида жорий этилган технологиялар ҳар томонлама ўқитувчи ва талабаларнинг фойдаланишлари учун осон ва қулай бўлиши мақсадга мувофиқ. Масалан, ўзув компетенциясини такомиллаштириш юзасидан тадбиқ этилган рақамли таълим дастурларидан талабаларнинг тўғри ва самарали фойдаланишларини ўқитувчи мунтазам назорат қилиб боради ва керакли жараёнда талабаларга қўшимча маълумотлар беради. Бу жараёндаги энг муҳим жиҳат – фойдаланиш ва ишлатишда тушунарлилик ва осонлик.
Ўзаро мувофиқлик	Blended таълим муҳитидаги барча жараёнлар (ёндашувлар, методлар ва технологиялар) филологик олий таълимнинг ўқув дастурида белгиланган мақсад ва вазифалар билан ўзаро мувофиқ бўлиши лозим. Бу ўринда blended таълим технологияси ва рақамли ўқув дастурларининг ўзаро қай даражада интеграциялашганлиги амалда эгалланиши мумкин бўлган муваффақиятли натижаларни белгилаб беради.
Аутентивлик (Ишончлилик)	Ўзув компетенцияси мисолида амалда ўқитувчи томонидан тайёрланган топшириқлар ва вазифалар реал ҳаёт билан ўзаро боғлиқ бўлиши талабаларнинг бўлажак мутахассис сифатидаги назарий ва амалий потенциалларининг сезиларли даражада ошишига хизмат қилади. Аслида олий таълим реал амалий меҳнат фаолияти билан талабаларни бевосита боғлаб турувчи жараёндир. Шу сабабли, аутентив материаллар талабаларнинг билимларини янада мустаҳкамлашда муҳим аҳамият касб этади.

Учинчидан, ўзув компетенциясини такомиллаштириш юзасидан blended таълим муҳитида шакллантирилган рақамли ўқув дастурларидаги технологиялар, ёндашувлар ва методлар мултимодаллик жиҳатини (мувозанатлилик, хилма-хиллик, кенг қўламлилик, тематик ва мақбуллик каби концепциялар билан биргаликда)ўзида акс эттириши лозим, яъни улар ҳар икки таълим платформасида ҳам тадбиқ этилиш имкониятига ва қўламага эга бўлиши амалда узлуксиз ва узвий таълим хизматларини ташкил этишда ўз аҳамиятига эга бўлади. **Тўртинчидан**,ушбу таълим шаклидаўзув компетенциясини такомиллаштириш бўйича ўқитувчи томонидан тайёрланган ўқув материаллари ва манбалари фойдаланиш учун **барқарор** (тадрижийлик, оммабоплик, такрорийлик, ўзгарувчанлик ва турғунлик каби концепциялар билан биргаликда)бўлиши лозим, яъни ўқитувчи ва талабаларнинг амалда барча техник манбалар билан таъминланганлиги, жорий этилган технология ва методларнинг бошқа таълим жараёнларида ҳам қўлланилиш даражасининг кенглиги чет тилларни blended таълим муҳитида ўқитишнинг барқарорлик жиҳатини белгилаб беради.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, рақамли ўқув дастурларини шакллантиришда юқорида тилга олинган тўрт асосий омил филологик олий таълим шароитида blended таълим муҳитини яратишда долзарб аҳамиятга эга. Шу боисбугунги таълим шароитида интеграциялашиш омили нисбатан устун омил сифатида ўрганилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи – “Халқ сўзи” газетаси № 207 (7709), 01.10.2020.
2. GrubaP., HinkelmanD. Blending technologies in second language classrooms, ed. 1.– London: Palgrave Macmillan, 2012.
3. Hinkelman D. Blending technologies in second language classrooms, ed. 2. – London: Palgrave Macmillan, 2018.



КОШИФИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ.

Ғойипов Азизбек Рахматилла ўғли
Тошкенткимё-технология институти.
Мансурова Юлдузхон Махамат қизи
Наманган давлат университети
тел: +998 91 9944777
Эл.почта: gayipovuz@gmail.com

Аннотация: Маълумки, тарбия ҳамма вақт таълим билан чамбарчас боғлиқ ҳолдагина мавжуд бўла олади. Чунки, таълим ва маълумот олиш жараёнида ёш авлоднинг нафақат билими кўпайибгина қолмасдан, балки маънавий-ахлоқий сифатларининг ҳам қарор топиши тезлашади. Шу сабабли, азалдан ота-боболаримиз бебаҳо бойлик бўлмиш илму-маърифат, таълим ва тарбияни инсон камолоти ва миллат равнақининг энг асосий шартлари ва гарови деб билганлар.

Калит сўзлар: Таълим ва тарбиянинг ўзаро боғлиқлиги; аждодлар тажрибасидан фойдаланиш; ёшларнинг буюк сиймоларни билиш кўрсаткичлари; Кошифий таълимнинг моҳияти; Кошифий таълимнинг тарбиявий аҳамияти.

Юртбошимиз таъбири билан айтганда, “таълим-тарбия тизимини ва шу асосда онгни ўзгартирмасдан туриб, маънавийтни ривожлантириб бўлмайди. Шу боис бу соҳада юзаки, расмий ёндашувларга, пухта ўйланмаган ишларга мутлақо йўл қўйиб бўлмайди” [1].

Айни масала, сўнгги беш йилда мамлакатимизда миллий тарбияни амалга оширадиган ўқув муассасалари ва умумтаълим мактабларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлашга эътиборни кучайтириш энг муҳим ва жиддий масалага айланди [2]. Аслини олганда, бугун мактабларимизда кенг миқёсда ташкил этилаётган “Тарбия дарслари” дан кўзланган асосий мақсад ҳам мана шу.

Мазкур дарсларни ёшларга ўргатишда ўтмишдаги буюк хорижий методларни қўллаш билан бирга, аждодларимизнинг тажрибаларидан кенг ва тўлақонли фойдаланиш мақсадга мувофиқ [3]. Бунинг учун эсв, улар қолдирган бой илмий-адабий меъросини чуқурроқ ўрганиш ва аждодлар хотирасини ёш авлод онгига сингдира олиш талаб этилади. Бу борада, ўрганилиши шарт бўлган буюк сиймолар ҳамда илмий-адабий меърослар ҳам бир талай [4].

Айни мақсадда, юртдошларимиз (аксарият қисми ёшлар) орасида “буюк сиймоларни биласизми?” мавзусида ижтимоий сўровнома ўтказишга муваффақ бўлдик. Мазкур сўровномада беш юз нафарга яқин юртдошларимиз иштирок этишди. Унга кўра, қарийб 100% иштирокчилар қуйидаги аждодларимиз: Амир Темур, Алишер Навоий, Захриддин Муҳаммад Бобур сиймоларини аниқ суратларидан таний олсалар, 62,5% иштирокчилар Фаробий, Беруний ҳамда Абу Али ибн Сино боболаримизни кўрсатилган суратлар орқали таний олишлари маълум бўлди. Бундан ташқари, Махмудхўжа Бехбудий сиймосини 11% иштирокчи, Исоқхон Тўра ибрат сиймосини эса, 6,5% иштирокчилар аниқ топа олганликларини таъкидлаш жоиз.

Энг ажабланирлиси шундаки, сурати кўрсатилган яна бир буюк аждодимиз: Ҳусайн Воиз Кошифий ҳазратларининг сиймосини ҳеч бир иштирокчи аниқ айтиб бера олмадилар. Кимдирлар ушбу суратни Хоразмий десалар, бошқалар янақайсидир фикрий уламолар билан адаштириб юборганлари ҳам бор гап.

Бу борада уларни ҳам айблаб бўлмайди. Мисол учун шахсан ўзим ҳам ушбу буюк аждодимиз ҳақида тасодифан, яъни Навоийнинг ўз асарларида у киши ҳақидаги илиқ ва самимий фикрини ўқиганимдан сўнг бохабар бўлганман. Шу билан, айнан “Ҳусвйн Воиз Кошифий ким?” деган савол пайдо бўлди ва ул ҳазратнинг ҳаёт йўли ва бой адабий меъросини ўрганишга бўлган қизиқиш пайдо бўла бошлади.

Айни Мир Алишер Навоий билан тенгдош бўлган, Кошифийнинг шахсиятини таърифлаш бирмунча мушкул иш [5]. Чунки, Ҳусайн Воиз Кошифий ғоят ноёб истеъдод соҳиби дейиш мумкин. бунинг, ўша даврда Навоий ўз олдида жамлаган зиё эгалар қаторида айнан Кошифий ҳазратларининг ҳам бўлгани ва Навоийнинг ҳар жабҳада Ҳусвйн Воиз Кошифий билан баамаслаҳат иш кўргани хвм яна бир бор исботлай олади. Шунингдек, Воиз Кошифий



ўша даврдаги талабаларга диний ва дунёвий билимларни халққа улашиш билан бир қаторда, масжид ва мадрасаларда шаръиятдан ваъз ўқиб, инсонларни ҳалоллик ва яхшиликка даъват этиб, халқ орасида “Воиз” тахаллуси билан халқни ўз маърифати нуридан баҳраманд этиш олганлар. Хусайн Воиз Кошифий ўз даврининг юксак маънавиятли сиймоларидан бўлганидан далолат беради.

Мухтасар қилиб айтганда, Кошифий таълимотининг ўзига ҳослиги, унда илгари суриладиган инсонийлик, ўзаро меҳр-оқибат туйғулари барча замонларда бирдек кадр-қимматини сақлаб қолаверади. Бундан ташқари, Воиз Кошифий сиймоси, ҳаёт йўли ва яратган ҳар бир асарлари бутун бир тарбия ҳамда маънавият дарсларини ташкил этишда дастури-амал бўла олади дейиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Олий мажлисга ва ўзбек халқига йўлланган “Мурожаатномаси” Тошкент 29.12.2020-й. УзА.
2. Каримов И.А “Тарихий хотирасиз келажак йўқ” Шарқ-1998 й.
3. Абдуллаев М. «Маданиятшунослик асрслари» Фарғона-1998 й.
4. Гулметов Э. «Маданиятшунослик» (маъруза матни) Тошкент-2000 й.
5. Каримов Ш. Шамсуддинов Р. “Ватан тарихи” (биринчи нашр) Тошкент-1997 й.



ЖИЗЗАХ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ ЧИЛЛА БИЛАН БОҒЛИҚ УРФ-ОДАТЛАРИ

Жуманазарова Дилноза Умирзоқовна

Жиззах ДПИ доценти, педагогика фанлари номзоди.,

Давлатова Ҳакима Бабайдавлатовна

Жиззах ДПИ, Ижтимоий-гуманитар фанлар ўқитиш
методикаси (тарих) 1-курс магистранти

Аннотация: Ушбу мақолада Жиззах воҳасининг чилла билан боғлиқ маҳаллий аҳолининг дунёқараши ва бугунги кунгача сақланиб келинаётган урф-одатлари этносоциологик тадқиқотлар ҳамда қиёсий таҳлиллар асосида очиб берилган.

Калит сўзлар: Жиззах воҳаси, микроэтнографик минтақа, муқаддас қадамжо ва зиёратгоҳ, чилла ўтириш, чилла сақлаш, чилтон, қирқчилтон.

Ўзбек халқи маданий мероси, анъаналари, урф-одатлари фақат ўтмишдан бизгача етиб келаётган ёдгорликгина эмас, балки барча маънавий бойликларнинг таркибий қисми, инсон ақл-идроки ва тафаккурининг буюк ютуғи ҳамдир. Дарахт ўз илдизлари билан заминдан сув, озиқ-овқат олиб вояга етганидек, инсон ҳам ўз аждодларидан қолиб келаётган бебаҳо бойликлардан руҳий озиқ, куч-қувват олади ва уларга таянади. Ҳар бир миллат ва элат аждодлари томонидан яратилган бойликларидан, тажриба ва тарихий сабоқларидан, одоб-ахлоқ, таълим-тарбияга оид ўғитлари ва йўл-йўриқларидан фойдаланади, буларсиз яшай олмайди.

Урф-одат ва маросимлар ҳам ўзбек менталитетининг шаклланишига таъсир кўрсатгани каби, этнология ва маданий антропология назариясига асосан жамоа-этнос-миллатнинг тарихий шаклланиш жараёнида асосий ҳисобланган биологик, географик, иқтисодий, тил ва маданият каби омилларнинг мужассам таъсири натижасида минг йиллар давомида шаклланади.

Ўзбекистоннинг бошқа тарихий-этнографик минтақалари каби Жиззах воҳаси ҳам ўзига хос, муҳим микроэтнографик минтақа ҳисобланиб, воҳанинг минг йиллар мобайнида қулай географик ўрни ва қадимдан катта қарвон йўллари чорраҳасида жойлашганлиги сабаб ғоят хилма-хил маданиятлар ва анъаналар туташган, ўзаро уйғунлашган ҳолда шаклланган макон сифатида қайд этиш мумкин. Шундан келиб чиққани ҳолда Жиззах воҳаси аҳолисининг маросимий қарашларида “чилла ўтириш” ва “чилла сақлаш” билан боғлиқ ҳолатлар ҳам кенг тарқалган бўлиб бу маросимлар асосан муқаддас қадамжо ва зиёратгоҳларда малга ошириб келинади.

Воҳа зиёратгоҳларида бажариладиган исломи (чилла ўтириш) ва исломи деб талқин қилинадиган (чилла сақлаш) одатлардан ҳисобланиб, халқона ислом анъаналарига мувофиқ, қоришиқ тарзда бажарилиши кенг тарқалган.

Биринчи кўринишда ҳақиқий дин йўлига кирган киши (сўфий, мурид, муршид) қирқ кун чилла сақлаши шарт ва у ерда тез-тез “Ёсин” сурасини ўқиб турган. Манбаларда “Кимки мақбараларга кирганда “Ёсин” сурасини қироат билан ўқиса, Аллоҳ ўша куни уларга енгиллик беради ва унга ўша ердаги нарсалар ададича ҳасанотлар бўлади”¹, дейилади.

Ахборотчиларнинг айтишларича, одатда, илгарилари чилла амаллари хонақоҳ, масжид, мақбара, чиллахона ва шу каби жойларда амалга оширилган. Яъни зиёратга келган киши 40, 20 ёки 7 кун мобайнида бу жойларда мазкур амалларга риоя қилган ҳолда, чин эътиқод ва ихлос билан ибодат қилган². “Чилла ўтириш” жараёнида у билан боғлиқ амаллар тасаввуф тариқати амаллари асосида хилватхоналар, масалан, ёлғиз уй, хонақоҳ, мақбара, масжид, ғор, чиллахона, муқаддас дарахтлар тагида, муқаддас, деб ҳисобланган булоқ бўйларида ёки муқаддас тепаликларда бажарилса, инсон руҳияти тезроқ покланади. Бундай хилват жойлар танланишида инсон тасаввурлари янада бойиши, инсон бундай жойларда ёлғиз қолиши орқалиунинг эътиқоди янада мустаҳкам бўлиши қайд этилади. Хилватхона ва унга кириш, чиқиш жойлари тор ва қоронғу бўлиши керак бўлган³.

¹ Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Зикр ахлидан сўранг... – Б. 222.

² Дала ёзувлари. Янгиобод тумани Чилмаҳрам ота, Зомин тумани Форбобо зиёратгоҳлари ва Фориш тумани Тешиктош чиллахонаси. 2017 йил.

³ Дала ёзувлари. Жиззах тумани, Қирқчилтон зиёратгоҳи. 2014 йил.



Ваҳоланки, ислом динидаги сўфийлар ва муридларга хос диний одатга кўра, мурид 40 кун мобайнида тоат-ибодат қилиши, йирик сўфий намояндаларининг қароргоҳлари, масалан, Туркистон шаҳридаги Аҳмад Яссавий, Бухоро яқинидаги Баҳовуддин Нақшбанд зиёратгоҳларида чилла ўтириш учун алоҳида хужралар бўлган¹. Бундан ташқари, оғир аҳволга тушиб қолган беморларни ҳам яқинлари чиллага солишади. Бу жараёнда уларнинг ёнида ўтирган киши ҳар куни қирқ марта Қуръони каримнинг “Ёсин” сурасини ўқиб туриши талаб қилинади. Маҳаллий аҳоли орасида сақланиб қолган юқоридаги каби ҳолатлар халқона ислом анъаналарига кўра бугунги кунгача етиб келган.

Чилтон (*форс-тожикча* “чихилтон”) – диний тасаввурларга кўра, ғайритабиий кучга эга бўлган афсонавий 40 та руҳ ёки “қирқта одам” деган маънони билдириб, улар кўзга кўринмайдиган, бир-биридан ажралмайдиган афсонавий махлуқотлардир². Халқ орасида тарқалган ривоятга кўра, “... ер юзида чилтонлар бор. Булардан юқори мартабада турадиган ҳафтан бор. Улардан ҳам юқори мартабада турадиган ситанлар бор. Буларнинг устидан Кутби Абдол каттадурлар. Қачонки кутб оламдан ўтса, ситанлардан бир кишини кутб қилиб сайлайдилар, ҳафтанлардан биттасини ситанларнинг ўрнига сайлайдилар, чилтонлардан биттасини ҳафтанларга қўшадилар ва ер юзидаги солиҳ кишилардан бирини топиб, чилтонларга аъзо қиладилар. Буларнинг ададлари қиёмат кунигача кам бўлмас. Буларни рижолул ғайблар дерлар. Буларнинг дуоларини барокотидин инсонлар вояга етадилар ва кўп кишилар тўғри йўлни топадилар³, дейилади. Янгиобод туманидаги Баятсойнинг жанубий қирғоғидаги қабристон ичида жойлашган Чилмахрам ота зиёратгоҳининг пайдо бўлиши билан боғлиқ қарашларда ҳам юқоридаги каби ривоят сақланиб қолган⁴.

Вилоятнинг Шароф Рашидов туманида жойлашган “Қирқчилтон” ва Малик ота зиёратгоҳи ҳудудидаги чиллахона ҳақидаги қарашлар бевосита чилтонлар билан боғланади. Ахборотчиларнинг маълумотларига кўра, ушбу зиёратгоҳлар ҳудудида чиллада ўтириш⁵ ёки чилла сақлаш билан боғлиқ маросимлар ўтказилиб, зиёратчиларнинг аксариятини шу жойдан шифо топган кишилар ташкил этади. Уларнинг айтишларича, қирқ кун чилла амаллари-га риоя қилиш орқали ўз мушкулларини осон қиладилар⁶.

Хулоса қилиб айтганда, воҳадаги зиёратгоҳларда ўтказиладиган ислом дини билан боғлиқ маросимлар, расм-русумлар ва унинг коидаларини ўрганиш натижасида мазкур маросимлар ислом дини билан боғлиқ ҳолда ёки ислом динига оид, деган қарашлар асосида шакллангани ва улар халқона ислом анъаналари, коидалари асосида ҳамда воҳа аҳолисининг асрлар давомида аждодлардан авлодларга мерос сифатида ўтиб келаётган маросимлари орқали ривожланганлиги далилланди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ақчаев Ф.Ш. Жиззах воҳаси муқаддас қадамжолари ва зиёратгоҳлари. тар. фан. фал. док. (PhD) учун ёзилган дисс. – Тошкент, 2020.
2. Арифхонова З. Ҳ. Тошкент маҳаллалари: анъанавийлик ва замонавийлик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002.
3. Арнольд ван Геннеп. Обряды перехода. – М.: Изд. «Восточная литература» РАН, 1999.
4. Аширов А. Этнология: ўқув қўлланма.– Тошкент: Yangi nashr, 2014.
5. Дала ёзувлари. Жиззах вилояти Ғаллаорол ва Фориш туманлари. 2020 йил.
6. Дала ёзувлари. Зомин ва Ш.Рашидов туманлари. 2020-2021 йй.

¹ Ислом // Справочник. – Тошкент: Ўзбекистон энциклопедияси, 1989. – Б. 276.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2008. Т.4. – Б. 485.

³ Ҳазрати Башир тарихи. “Шарофнома” фонди. –Тошкент, 1994.–Б. 67.

⁴ Дала ёзувлари. Янгиобод тумани Чилмахрам зиёратгоҳи. 2016 йил.

⁵ Чиллада ўтириш –нафси тарбиялаш ва руҳни тасфия қилиш мақсадида хилватга кириб, маълум муддат Аллоҳ билан яккама-якка, дунёвий машғулот ва ўй-фикрлардан узоқ ҳолатда ибодат ва зикр билан шуғулланиб, вақт ўтказилади. Бунинг маълум муддати йўқ. Аммо қирқ кун ўтириш анъанадир. Шу боис хилватга «қирқ» маносини берувчи форсча «чеҳил»дан келиб чиққан «чилла» ва арабча «арбаин» (қирқ) сўзлари қўлланади. Қадимда зиёратгоҳларда чилла ўтириш учун алоҳида хужралар бўлган.

⁶ Дала ёзувлари. Жиззах тумани Равот қишлоғи. 2016 йил.



СЎНА АСАРИ ТАҲЛИЛИ

Зиёда Турдибоева

ФарДУ филология факултети
ўзбек тили йўналиши 4-босқич
талабаси

Аннотация: Мазкур мақола Этел Лилиан Войничнинг "Сўна" асари структурал таҳлилига масаласига бағишланган бўлиб, унда диний мифология символистик талқини моҳиятини очиб беришга қатилган.

Калит сўзлар: сарлавҳа, қул бўлиб яшаш, моҳият, теология, роман.

Бадий адабиётда сарлавҳа композицион қурилишнинг бир бўлаги бўлиб, ундан турли хил мақсадларда фойдаланилади: баъзан бутун бир асар моҳиятини ўзида мужассамлаштиради, баъзан яширин маъно юкланган бўлади.

Сўна - икки қанотли паразит (бў сўз “бировга қарамлик”, “бошқалар ҳисобидан кун кўриш” каби маъноларни англатади) ҳашаротдир. Биология фанидан билимларимга таяниб айтишим мумкинки, шу ва шу турдаги ҳашаротлар, гарчи, ботқоқликда туғилиб, гўнгни ҳуш кўрсалар-да, лекин тозалikka риоя қиладилар. Сўналар табиатда қон сўриш, касаллик тарқатиш билан бир қаторда, гул нектарлари билан ҳам озиқланади.

Бизнинг “Сўна” миз, яъни Этел Лилиан Войничнинг шу номдаги роман бош қаҳрамони Артур нима учун ўзига бу лақабни раво кўрди экан?

Маълумки, сўналар асосан уй ҳайвонларига - қорамолларга - ҳужум қиладилар. Тинч ҳолатда турган ҳайвон сўна чаққандан сўнг ҳаракатга келади. Асар қаҳрамони ҳам тинч ҳолатдаги оммани ҳаракатга келтириш мақсадида жамиятдаги кўзга кўринган “қорамоллар”га ҳужум қилиб туради.

Жамиятни ҳаракатлантиришдан мақсад нима эди?

Мақсад: одамзотни янги ҳаёт, янги келажак ва янги динга даъват этиш. Артурнинг наздида, бу янги дин - озодлик, эрк, ҳурлик дини эди ва нурафшон ҳаёт қафолати бўла оларди.

Тан олиш керакки, табиатан ҳар бир инсон кимгадир ёки нимагадир қарам, қул бўлиб яшайди: кимдир ҳис-туйғуларига, кимдир нафсига, яна кимдир бошқаларнинг фикрига... ва ҳоказо. Асар қаҳрамонлари ҳам бундан мустасно эмас. Масалан: Монтанелли (Артурнинг ҳақиқий отаси) ўз афсус-надоматларига қарам, Жемма ўтмишида юз берган хатоси учун пушаймонликка қарам, Ренни жавобсиз муҳаббатига қарам... Асардаги ягона озод шахс, шубҳасиз, Артур эди. Албатта, бир мунча вақт нафрат туйғуси асир олганига қарамай, Артур унинг панжараларини арралай олди. Гарчи асар бош қаҳрамоннинг ҳалокати билан яқунланган бўлса-да, у ўз яқинларини озодликка чиқаришга эришди: Монтанелли ўзи сиғиниб келадиган афсус-надоматдан воз кечган ҳолида руҳи эркинликка чиқди, Жемма пушаймонлик туманидан ҳалос бўлди, Ренни ўзини-ўзи боғлаб ташлаган ҳис-туйғулар тугунини парчалаб кетишга журъат топди.

Асар моҳиятини очиб беришда яна бир муҳим жиҳат шуки, Артурнинг озодлик йўлида тўқилган қони Ийсо пайғамбар қони билан қиёсланади: “Инжилда Лонн авлиё: «Парвардигори олам ўз бандаларини шундай севадики, бандаи мўминларим ҳалок бўлмасин, абадий ҳаёт кечирсин деб, ўз пушти камаридан бўлмиш ўғлини қурбон қилди», деган... ...ўзимнинг ўғлимга, унинг кўзларига тикилдим, кўзларидан гуноҳини қон билан ювганини кўрдим-у, уни ўз тақдирига ҳавола қилиб, йўлимга кетавердим.

Ана, гуноҳни ўтишнинг қандайлигига қаранг. У сизларни деб ўлди, уни зимистон бағрига олди; у ўлди, энди ҳеч вақт тирилмайди; ўлди, мен ўғилсиз қолдим... Сизларнинг руҳларингизни кутқазингиз учун шунча ҳақ тўланди; арзийдими шу ҳаққа у ифлос руҳларингиз? Қаранглар: тахт зинасидан буғланиб турган қайноқ қон оқаяпти. У қон ўғлимнинг қалбидан оқиб чиқаяпти, у сизлар учун тўқилган! Балчиққа ётиб олиб яланг энди уни, башараларингизга суртинг энди уни! Танига ёпишинг, талант, йенг”.

Энди ўз-ўзимизга савол берайлик: биз-чи, ҳозир яшаётган бахтли кунларимиз учун тўқилган қонлар ҳаққини адо эта олдикми, ёки буни суистеъмол қиляпмизми?! Эркпарвар инсонлар тўққан қонни сўриб яшаётган сўна ўзимиз эмасми?! Инглиз адибаси Этел Лилиан Войничнинг айтиши шу буюк романи юқоридаги саволларга жавоб топишингизга



кўмаклашади.

Асарнинг аҳамиятли жиҳати шундаки, олмос тошидан математик олим мураккаб бурчакларни, кимёгар олим углероддан ташкил топганини, заргар эса ажойиб заргарлик буюми ясай олишини кўрсатиб беролгандек, бу романга ҳам сотсиологик, теологик, фалсафий, сиёсий нуқтаи назарлар бўйича ёндашиш мумкин. Мен бўлсам, ўз нуқтаи назарим билан ёндашдим. Сиз ҳам бу асарни ўқиб кўргач, ўз назариянгизни топарсиз...

Фойдаланилган адабиётлар:

1. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, ТОШКЕНТ (С харфи. Манбага: ziyo.uz.com)
2. Этел Лилиан Войнич, Сўна, Т.: "Ўзбекистон" 2015.



ЎЗБЕКИСТОНДА ЯНГИ УЙҒОНИШ ДАВРИНИ БУНЁД ЭТИШ

Мадалиева Хонзода Абдувоҳидовна
ЎзХИА таянч докторанти

Аннотация. Ушбу тезисда педагогик касбининг масъулиятли касб эканлиги ҳамда Қуръони карим ва ҳадиси шарифда бу касбнинг улуғ даражаси ҳақида сўз юритилади. Сўнг Ўзбекистонда ўқитувчиларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш бўйича олиб борилаётган ишлар босқичма босқич кўрсатиб берилган. Шунингдек, юртбошимизнинг Учинчи Ренессанс даври ҳақидаги фикрлари келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: муаллим, ўқитувчи ва мураббийлар куни, устозларни қўллаб-қувватлаш, иқтидорли ёшлар билан ишлаш, учинчи ренессанс.

Дунёда турли-туман касблар кўп. Аммо шу касблар орасида энг шарафлиси ҳам масъулиятлиси ҳам муаллим ва мураббийлик касби десак муболаға бўлмайди.

“Муаллим” сўзи араб тилида “илм” сўзи ўзагидан ясалган бўлиб, “ўргатувчи, таълим берувчи, илм берувчи” каби маъноларни англатади. Инсон олган илми туфайли улуғланди ва юқори чўққиларга кўтарилди. Бунда албатта устозларнинг ўрни бекиёс. Илм ўргатувчи, инсонларни, тўғри йўлга бошловчи олимларни бежизга пайғамбарларнинг меросхўрлари сифатида эозлашмайди. Қуръони каримнинг Мужодала сурасида: “...Аллоҳ сизлардан иймон келтирганларнинг ва илм берилганларнинг даражаларини кўтарадир” (11-оят). Пайғамбаримиз алайҳиссалом ҳам улар ҳақида шундай марҳамат қилганлар: “Албатта, Аллоҳ таоло, Унинг фаришталари, осмонлару ер аҳли, ҳатто ковагидаги чумоли ва ҳаттоки балиқгача одамларга яхшилиқни таълим берувчига салавот айтадилар” (Имом Термизий ривояти). Улар берган таълим орқали келажакка пойдевор қўйилади. Улар берган билим билан турли ёт ғояларга қарши тура оладиган мафкуравий иммунитет шаклланади ва бу билан ёшларда соғлом эътиқод мустаҳкамланади. Динимиз таълимотларига кўра, таълим берган инсон икки дунёда ҳам азиз бўлади. У қолдирган манфаатли илми, ёзган асарларидан фойдаланилиши туфайли вафот этганидан кейин ҳам номаи аъмолига савоб ёзилиб туради.

Тарих зарварақларидан ҳам маълумки, ота-боболаримиз устозларга доимо ҳурмат билан муносабатда бўлишни уқтириб келганлар. Уларнинг насиҳатлари ҳатто кундалик турмушимизда тез-тез ишлатилганидан мақолга айланиб улгурган. “Устоз –отангдек улуғ”, “Устоз кўрмаган шогирд ҳар томонга йўрғалар” кабилар шулар жумласидандир. Аждодларимиз таълим- тарбия, илм бериш соҳасида ўз ишининг етук мутахассислари бўлишган, ҳаттоки бутун дунёга ўзининг асарлари билан ҳали ҳам маънан устозлик қилиб келаётган Муҳаммад Хоразмий, Абу Али ибн Сино, Аҳмад Фарғоний, Абу Райҳон Бериунийдек буюк аждодларимиз бор.

1997 йилнинг 1 октябрь санасидан бошлаб юртимизда “Ўқитувчи ва мураббийлар куни” сифатида кенг нишонланиб келмоқда ва ушбу кун дам олиш куни сифатида эълон қилинган. Бу эса мустақилликнинг илк кунлариданоқ илм-маърифатга, ёш авлоднинг таълим-тарбиясига катта эътибор қаратилганидан далолат қилади. Абдулла Авлоний айтганларидек: “Фикр тарбияси энг керакли, кўп замонлардан бери тақдир қилинуб келган, муаллимларнинг диққатларига суялган, виждонларига юкланган муқаддас бир вазифадур”. Ана шу муқаддас вазифа эгаларини муносиб тақдирлаш мақсадида ҳар йили бир гуруҳ истеъдодли, жонкуяр, фидойи устоз ва мураббийлари давлатимизнинг фахрли унвон, мукофотлари билан тақдирланиши гўзал бир анъанага айланган. Шунингдек, турли фан олимпиадаларида юқори натижаларни қайд этган ёшлар билан бирга муносиб шогирд тайёрлаган устозларимизга ҳам рағбатлантирувчи пул мукофотлари бериб келинади.

Давлатимиз раҳбари томонидан сўнгги йилларда устоз ва мураббийларнинг обрўсини ошириш, уларни моддий рағбатлантириш бўйича қатор ишларни амалга оширилди. Президентимизнинг 2019 йилнинг 3 май санасида “Иқтидорли ёшларни аниқлаш ва юқори малакали кадрлар тайёрлашнинг узлуксиз тизимини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорлари эълон қилинган, фан олимпиадалари ғолибларини рағбатлантиришнинг янги тизими жорий этилди. Унга кўра, қарорда келтирилган халқаро олимпиадаларда ғолиблиқни қўлга киритган ўқувчилар ва уларнинг ўқитувчилари базавий ҳисоблаш миқдорининг қуйидаги миқдорларида бир марталик пул мукофотлари билан тақдирланиши белгилаб



қўйилди:

1-ўрин (олтин медал) учун — 500, ўқитувчисига — 450 баравари; 2-ўрин (кумуш медал) учун — 300, ўқитувчисига — 250 баравари; 3-ўрин (бронза медал) учун — 200, ўқитувчисига — 150 баравари. Бундан ташқари, халқаро фан олимпиадалари ғолибларини тайёрлаган ўқитувчилар ва таълим муассасаси директорлари навбатдаги ўқув йили учун директор жамғармасидан 1-ўрин (олтин медал) учун — 200 фоиз, 2-ўрин (кумуш медал) учун — 175 фоиз, 3-ўрин (бронза медал) учун — 150 фоиз миқдориди қўшимча устама олади. Шунингдек, асосий олимпиадалар республика босқичи ғолибларининг ўқитувчилари базавий ҳисоблаш миқдорининг қуйидаги миқдорларида бир марталик пул мукофотлари билан тақдирланади:

1-ўрин учун — 50 баравари; 2-ўрин учун — 35 баравари; 3-ўрин учун — 30 баравари. Таълим муассасаларида ўқитувчи бўлиб фаолият юритаётган халқаро олимпиадалар ғолиблари лавозим маошига 150 фоиз, фан олимпиадаларининг республика босқичи ғолиблари лавозим маошига ҳар ой 100 фоизлик устама ҳақи тўланиши белгилаб қўйилди.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқларида қуйидагиларни алоҳида таъкидлаб ўтдилар: “Кейинги тўрт йилда мактаб ўқитувчиларининг ойлик маоши бир ярим баробар қўпайтирилди. Давлат мукофотлари билан тақдирланаётган устозлар сони ошиб борапти. Ўқитувчи тайёрлайдиган ҳисоботлар, қоғозбозликлар сони кескин камайтирилди. ...Биз кенг кўламли демократик ўзгаришлар, жумладан, таълим ислохотлари орқали Ўзбекистонда янги Уйғониш даври, яъни Учинчи Ренессанс пойдеворини яратишни ўзимизга асосий мақсад қилиб белгиладик”¹. Президентликни бошлаган кунлариданоқ, ўқитувчиларнинг ҳуқуқлари давлат ҳимоясида бўлишини, уларнинг касбий фаолиятига ноқонуний аралашув, бошқа ишларга жалб қилиш жавобгарликка тортиш асос бўлиши лозимлиги ҳақидаги ташаббусларни илгари сурдилар. Натижада ўқитувчиларни турли мажбурий ишларга жалб этиш кескин камайди ва Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 21 июлдаги ЎРҚ-629-сонли Қонунига асосан “Маъмурий жавобгарлик тўғрисида”ги кодексига 197-модда киритилди. Ушбу модда “Таълим муассасаси педагог ходимининг касбий фаолиятига қонунга ҳилоф равишда аралашуш ёки ўз хизмат вазифаларини бажаришига тўсқинлик қилиш”, -деб номланиб, унга кўра ходимининг хизмат вазифаларини бажаришига тўсқинлик қилиш жарима солишга сабаб бўлиши таъкидланган.

Мамлакатимиз раҳбари таъкидлаганларидек: “Бугун ҳар бир ўқитувчи ва тарбиячи, олийгоҳ домласи таълим ва илм-фан соҳасидаги энг сўнгги ижобий янгиликларни ўқув жараёнларига татбиқ эта оладиган, чуқур билим ва дунёқараш эгаси, бир сўз билан айтганда, замонамиз ва жамиятимизнинг энг илғор вакиллари бўлишлари керак”.

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда, хулоса қилиб айтиш мумкинки, юртимизда жадал амалга оширилаётган таълим ислохотлари, хусусан ўқитувчиларни ҳам маънан ҳам моддий жиҳатдан қўллаб-қувватланиши, уларни турли қоғоз ишларидан озод қилиб, ўқувчиларга яхши таълим беришларига, салоҳиятларини янада юксалтириш учун шароит яратиб бериш орқали юртимиздан яна Имом Бухорийлар, Термизийлар, Хоразмийлар, Ибн Сино-ю, Беруний ва Фаробийлар етишиб чиқишига ишонамиз ва юртбошимиз истаганларидек Учинчи Ренессанс даври яқин келажакда амалга ошишига умид қиламиз. Бунинг учун эса “Учинчи Ренессанснинг мазмун-моҳиятини ҳар биримиз, бутун жамиятимиз чуқур англаб олиши керак”².

¹ <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020>

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. <https://president.uz/uz/lists/view/3864>



АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИЕ ПОСЛОВИЦЫ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ИЗУЧЕНИЯ

Маджидова Раъно Уришевна,
DSc, профессор УзГУМЯ

В статье проанализированы предпосылки исследования пословиц и поговорок в аксиологическом аспекте на материале русского и узбекского языков, а также изучена онтологическая трактовка антропоцентризма в языкознании. Выяснено, что на формирование антропоцентрической парадигмы оказало важное влияние развитие когнитивно-дискурсного направления лингвистических исследований.

Ключевые слова: антропоцентризм, лингвистика, языковая картина мира, аксиология, онтология, языковая личность.

Конец XX – начало XXI вв. ознаменовался сменой структурного подхода к изучению языковых явлений антропоцентрической парадигмой. Антропоцентризм (от греч. *ἄνθρωπος* – человек и лат. *centrum* – центр) – учение, согласно которому любое знание о природе, обществе и само познание характеризуется наличием человеческого измерения, то есть «человек есть мера всех вещей»; антропоцентризм основывается на том, что научный результат зависит «не только от положения субъекта-наблюдателя и характеристик его инструментальной и целеполагающей деятельности, но и от самого факта его присутствия во вселенной» [6, с. 11]. Антропоцентрический подход в научных исследованиях предполагает учет человеческого фактора во всем.

Антропоцентризм как учение о проявлении человека в языке и языка в человеке представлен в антропоцентрической лингвистике, которая занимается изучением таких проблем, как: проявление человеческого фактора в языке; воздействие языка на поведение и мышление человека; взаимоотношение языка и общества; взаимосвязь языка и духовной культуры народа; взаимосвязь народного менталитета и народного творчества и т.п.

Как нам представляется, в самоутверждении человека в этом мире немаловажную роль играет сформированность его лингвопрагматической компетентности, которая проявляется в способности человека осуществлять коммуникативно-прагматическую реализацию когнитивно-дискурсивного потенциала языковых единиц в соответствии с коммуникативной ситуацией, целей и задач общения, интенцией говорящих и т.п.

Человеческая речь порождается, по Г.В. Никитченко, пересечением двух интенций внутри понятийного объема категории «сознание»: 1) интенция сознания вовне, позволяющая человеку активно ориентироваться во внешнем мире, познавать реальную действительность; 2) интенция сознания внутрь, вглубь духовного бытия личности, порождающая духовный мир субъективного, духовного, внутреннего бытия человека. Человеческое сознание при этом выступает философской категорией, которая, являясь предельно широкой и глубокой по своему объему, обозначает «субъективную реальность, всю глубину внутреннего духовного мира человека, его осознанное переживание собственного бытия, отношение к внешнему миру» [4, с. 70].

В связи с этим человек проявляет себя в двух аспектах: 1) человек как «личность в себе»; 2) человек по отношению к другим личностям. Мы считаем, что оба аспекта проявления человеком себя непосредственно связаны с лингвокогнитивными, лингвокультурологическими и прагмалингвистическими формами и механизмами освоения деятельности, которые способствуют формированию мировоззрения человека [3, с. 10].

Реализацию антропоцентрического принципа можем наблюдать в лингвистических исследованиях разного характера. Например, Е.В. Каламбет изучает проявление антропоцентризма в современной лексикографии России. Проанализировав материал лингвистических словарей, автор приходит к выводу, что антропоцентризм в современном языкознании употребляется в двух значениях: 1) как свойство языка, имманентно присущее ему; 2) как способ описания, представления, моделирования языковой системы [2, с. 11].

Антропоцентризм проявляется в четырех типах:

1) имманентный эндогенный антропоцентризм – антропологически обусловленные свойства структуры и содержания словаря заложены, с одной стороны, в самой природе



словаря и, с другой стороны, имеют своим источником «внутренний» антропоцентр, то есть автора словаря. Имманентный эндогенный антропоцентризм накладывает особый отпечаток на формирование списка включаемых в словарь слов, систематизацию материала, расположение значений, систему помет, текст определения, иллюстрации и примеры;

2) имманентный экзогенный антропоцентризм – антропологически обусловленные свойства структуры и содержания словаря заложены в самой природе словаря, но имеют своим источником «внешний» антропоцентр, то есть адресата словаря либо говорящую личность;

3) методологический эндогенный антропоцентризм – антропологически обусловленные свойства структуры и содержания словаря возникают в результате сознательной методологической установки и имеют своим источником «внутренний» антропоцентр, то есть автора словаря;

4) методологический экзогенный антропоцентризм – антропологически обусловленные свойства структуры и содержания словаря возникают в результате сознательной методологической установки, но ориентированы на «внешний» антропоцентр, то есть адресат словаря, пользователя [2, с. 11].

Таким образом, создание словаря базируется на антропоцентрическом принципе, обусловливается проявлением в словаре языковой личности лексикографа и ориентированностью на читателя как на говорящую личность. Антропоцентризм может выражаться в дискурсивном тексте на трех уровнях:

1 уровень – абсолютный: репрезентантами антропоцентризма на этом уровне служат личные местоимения, глагольные формы, обращения, имена;

2 уровень – относительный: в качестве средств выражения антропоцентризма в дискурсивном тексте выступают другие части речи;

3 уровень – условный: на этом уровне в дискурсивном тексте являются значимыми все «остальные языковые средства, репрезентирующие те или иные объекты, признаки, действия, явления окружающей действительности. Косвенно они также служат для выражения антропоцентризма» [6, с. 10].

Антропоцентрические фразеологизмы сопоставляемых Г.А. Багаутдиновой языков базируются на образах, которые являют собой отражение способа мировидения и содержат в себе культурные коды: 1) антропоморфный культурный код, репрезентирующий образ человека и частей его тела; 2) биоморфный, репрезентирующий образы животных, птиц, насекомых, растений; 3) объектный, репрезентирующий образы предметов обихода, построек, жилища, его деталей; одежды; пищи; веществ, металлов, минералов и т.д.; 4) анимический, репрезентирующий образы явлений природы; 5) мифологический культурный код, репрезентирующий образы религиозных представлений человека, сказочных персонажей и т.п. [1, с. 4].

Картина мира – это «глобальный образ мира, который лежит в основе мироощущения человека, репрезентирующего сущностные свойства окружающей действительности в понимании ее носителей, и который является результатом духовной активности человека» [5, с. 374]. Картина мира выступает как концептуальное образование, она обладает рядом свойств и развивается по определенным законам». Картина мира формируется под влиянием таких социальных факторов, как язык, традиции, природа и ландшафт, воспитание, обучение и др. и имеет пространственные, временные, этические параметры.

Итак, языковая картина мира вбирает в себя наряду с научными знаниями систему мировоззренческих взглядов и установок, богатейший социальный и бытовой опыт народа, обуславливающие особенности мировосприятия и поведения человека в социуме. Являясь «исторически сложившейся в обыденном сознании данного языкового коллектива и отраженной в языке совокупностью представлений и мире, определенным способом концептуализации действительности», языковая картина мира складывается из множества разнообразных концептов, одним из основополагающих которых выступает сам человек, который хранит, обрабатывает и передает все свои знания о самом себе и окружающем мире от поколения к поколению с помощью языка. Таким образом, человек занимает центральное место в языковой картине мира, которая формируется под влиянием социальной памяти и опыта человечества.



Литература:

1. Багаутдинова Г.А. Человек во фразеологии: антропоцентрический и аксиологический аспекты: Автореф. дисс ... докт. филол. наук. – Казань, 2007.
2. Каламбет Е.В. Проявления антропоцентризма в современной лексикографии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2007. – С. 11.
3. Лингвистика и аксиология: этносемиотика ценностных смыслов: коллективная монография. – М.: ТЕЗАУРУС, 2011. – С. 9-10.
4. Никитченко Г.В. Некоторые аспекты интенционального подхода при философском анализе сознания. // Межвуз. сб. науч. тр. – Ташкент, 2002.
5. Новая философская энциклопедия / Под ред. В.С. Стёпина. – М., 2001.
6. Покачалов Г.А. Проблема формирования мировоззрения личности в процессе освоения всего человеческого мира. // Межвуз. сб. науч. тр. – Т., 2001.



ТАЪЛИМДА ОҒЗАКИ НУТҚ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРУВЧИ ОМИЛЛАР

Наширова Дилноза
Фармонов Баходир
ҚарМИИ “Хорижий тиллар”
кафедраси ўқитувчилари

Аннотация: Ушбу мақолада таълимда оғзаки нутқ кўникмаларини шакллантиришда “Мулоқот” технологиясининг ўрни ва ундан фойдаланишнинг амалий натижалари хусусида фикр юритилган.

Калит сўзлар: технология, усул, метод, услуб, амалий натижа, мулоқот, инновацион усуллар, мавзу, босқич, баҳс-мунозара, муаммо, мулоқот ечими, матн, матн билан ишлаш, матн яратиш, оғзаки нутқ, ёзма нутқ.

Республикамизда бўлаётган туб ислохатларнинг асосида комил инсонни вояга етказиш ва тарбиялаш масалалари турибди. Тарбиянинг негизи бўлган таълим тизимидаги ўзгаришларнинг барчаси ёш авлодга мукамал билим бериш ва республикамиз ривожига ўзининг муносиб ўрнини эгаллашларига кўмаклашишдан иборатдир. Таълим соҳасидаги бундай ўзгаришлар ёш авлод тарбиясида таълим берувчиларнинг сифати, ўқитиш тизимидаги янги қарашлар асосида дарс беришлари ҳам назарда тутилган. Шунинг учун ҳам республикамизда ўқитиш сифатини янада яхшилаш учун таълим берувчиларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш курсларида замон талабларига мос ҳолда билим олишларига барча шарт-шароитларнинг яратилиши, бежиз эмас. Таълимда интерфаол усуллар ва инновацион технологиялардан фойдаланган ҳолда дарс ўтиш бугунги кунда янгилик ҳисобланмайди. Чунки ривожланиш даврида барча соҳаларда бўлгани каби таълимда ҳам дарс ўтишнинг замонавий методларидан, ўқитишнинг барча усулларида ўринли фойдаланган ҳолда олиб бориш, таълим берувчиларнинг доимий амалга ошириб келаётган ишларидан биридир. Бугунги кунда барча таълим йўналишларида ўқити-даётган фанлар бўйича интерфаол усуллардан фойдаланган ҳолда дарс олиб борилмоқда. Ўқитиш тизимида бунга етарлича шарт-шароитлар яратилган ва яратилмоқда. Ўқитувчилар шиддаткорона ҳаёт тарзига мос ҳолда дарс бериш лозимлигини онгли равишда англаб етишган. Шунинг учун ҳам дарсларда инновацион педагогик технологиялар ва интерфаол усуллардан фойдаланган ҳолда дарслар ташкиллаштирилган. Бундай жараён ўқитиш тизимидаги энг муҳим вазифалардан бири сифатида эътироф ҳам этилган. Чунки бугунги кун ўқитувчиси дарс самарадорлигига эришишда “Ақлий ҳужум”, “5 минутлик эссе”, “Чархпалак”, “Ассесмент”, “Буме-ранг”, “Тушунчалар таҳлили”, “Резюме”, “Балиқ склети”, “Домино”, “Бешинчиси ортиқча”, “Муаммо”, “Хаёлий харита”, “Зинама- зина”, “Билиц-сўров” каби турли хил интерфаол усуллар ва педагогик технологиялардан ўринли фойдалана олиш техникасига эга бўлишлари замон талабига айланган.

Ушбу мақолада “Нутқ маданияти”, “Ўзбек тилининг амалий услубияти”, “Ўзбек тили” фанларида мавзу таҳлилида фойдаланиш мумкин бўлган инновацион технологиялар ва турли хил интерфаол усулларнинг талабалар оғзаки нутқини шакллантиришдаги амалий ўрни хусусида фикр юритмоқчимиз.

“Нутқ маданияти” фанида “Нотиқлик маҳорати синови” дарсларидан кўпроқ фойдаланиш ва бу жараёнда замонавий педагогик технологиялар асосида дарс ўтиш ўқитувчи учун ҳам талаба учун ҳам қизиқарли ва самарали натижа беради. Масалан, замонавий педагогик усуллардан бири “Мулоқот” технологиясидан ҳам ўринли фойдаланиш мумкин. Бу технологиянинг ўқитиш тизимидаги ўрни ва қулайлиги талабаларнинг оғзаки нутқини эркин ифодалашга амалий ёрдам беришидир {1: 45}

“Мулоқот” технологиясининг мақсади талабаларда мулоқот учун танланган мавзуни ўз фикрлари орқали оғзаки сўзлаб беришларига қаратилган. Бу технология талабаларнинг оғзаки нутқини шакллантириш ва эркин фикр ифодалаш кўникмасига эга бўлишлари учун ёрдам беради. Шунингдек, ўз нутқи устида ишлашларига кўмаклашади. Кўпроқ адабий тилда оғзаки фикр ифодалашга ундайди. Ўқитувчи дарсларда “Мулоқот” технологиясини қандай ташкил этиши мумкин?



Биз биламизки, “Мулоқот” технологиясини ўтказишнинг босқичлари мавжуд {1: 46}. Шунинг учун ҳам ундан фойдаланишнинг кетма-кетлиги таълим берувчи томонидан режа асосида шакллантирилган бўлиши керак. Агар ўқитувчи “Мулоқот” технологиясидан фойдаланишнинг режасини шакллантириб олмаса, унда кўзланган мақсадга эришиши қийин бўлади. “Мулоқот” технологиясидан фойдаланишни бир мавзу юзасидан таҳлил этиб кўрамиз.

“Мулоқот” технологиясини ўтказишнинг **биринчи босқичида** ўқитувчи гуруҳ талабаларини икки кичик гуруҳга ёки (*агар гуруҳда 15 тадан ортиқ бўлса*) уч кичик гуруҳга бўлиши керак. Бунда талабаларнинг кичик гуруҳлардаги сони кам бўлганлиги сабабли гуруҳ таркибидаги талабаларнинг барчаси ўз фикр-мулоҳазалари билан иштирок этиш имкониятига эга бўлишади. “Нутқ маданияти” фанида “Нотиклик санъати турлари” мавзусини ўтишдан олдин талабаларга шу мавзу бўйича саволлар берган ҳолда аудиторияни жонлантириб олиш керак. Бу жараёнда ўқитувчи:

1. Ғарб нотиклик вакиллари биласизми?
2. Шарқ нотиклик вакиллари биласизми?
3. Уларнинг нотикликка кўшган ҳиссаси хусусидаги фикрларингиз?
4. Кўзга кўринган ва нотик сифатида эътироф этилган нотикларни санаб беринг?
5. Уларнинг нотиклик хусусидаги қайси фикрларини келтира оласиз?

6. Сиз билган нотикнинг қайси асарлари бор ва унда нотиклик хусусида қандай фикр берган? Каби саволларни беради. Бу саволларни ўқитувчи тарқатма материаллардан фойдаланиб ёки доскага ёзган ҳолда ҳам бериши мумкин. Бундай саволлар тизимини янада кенгайтириб бориш мумкин.

Шунда гуруҳ ўртасида ўзаро сўров-жавоб шаклланади. Талабалар ўзаро ўртоқлашган ҳолда ўқитувчи томонидан ўртага ташланган саволлар юзасидан бермоқчи бўлган фикрларини аниқлаштириш мақсадида бир-бирларидан сўрашади. Бу жараён ҳам **ўйла-излан-топ-фикр бер** шаклида бўлади. Бунда ўқитувчи томонидан берилган саволга талаба, аввало, ўйлайди, ақлий тафаккурида мавжуд манбаларни тиклайди, фикр юритади, иккиланган ҳолатларда ёнидаги ўртоғидан сўрайди ва яна мавзу юзасидан билимларини кенгайтиради ва бир тўхтамга келгач, оғзаки нутқи орқали жавоб беради. “Мулоқот” нинг биринчи босқичида мавзу юзасидан берилган саволларга талабаларнинг ақлий тафаккуридаги мавжуд билимлари тикланади, тўлдирилади ва нутққа чиқаришга тайёрланади. Дафтарига фикрларини ёзма шакллантириб олишлари ҳам мумкин. Бу жараён ёзма саводхонлиги учун ҳам муҳим ҳисобланади.

“Мулоқот” технологиясининг **иккинчи босқичида** ўқитувчи томонидан берилган саволлар асосида талабалар турли материалларни тўплайди. Агар бериладиган саволлар кейинги дарсда таҳлил этиладиган мавзу юзасидан бўлса, унда уйга вазифа сифатида ҳам бериш мумкин. Шунда талабалар турли слайдли кўринишларни ҳам шакллантириш имкониятига эга бўлади. Берилган мавзу юзасидан айтмоқчи бўлган фикрларини аниқ далиллар, мисоллар асосида презентация шаклида тайёрлаб келади ва оғзаки нутқи орқали ҳимоя қилади. Гуруҳнинг қолган иштирокчилари ҳам ўз фикрларини айтишлари ва тўпланган маълумотларга қўшимча сифатида киритишлари ҳам мумкин.

“Мулоқот” нинг **учинчи босқичида** гуруҳлар томонидан тайёр бўлган материални бир талаба ҳимоя қилади. Биринчи талаба томонидан айtilмай қолган манбаларни гуруҳнинг қолган вакиллари тўлдиришлари ҳам мумкин. Гуруҳ талабалари томонидан айtilган ҳар бир фикр (маъкул топганларини) умумлаштиришади ва яхлит бир матнга айланттиришади.

“Мулоқот” нинг **тўртинчи босқичида** ўқитувчи гуруҳларнинг бошқасига мавзу юзасидан саволларга тайёрлаган жавобларини тинглайди (чунки кичик гуруҳлар сони 2 ёки 3 та бўлиши мумкин) ва талабаларнинг фикр-мулоҳазаларини эшитади. Мавзу юзасидан тўпланган материалларни умумлаштиради.

“Мулоқот” нинг **бешинчи босқичида** эса мавзу юзасидан гуруҳ талабалари ўзаро бир-бирларига саволлар беришади. Ҳимоя қилган кичик гуруҳларнинг жавоблари тўлдирилади. Ўқитувчи бу жараёнда фақат кузатади ва аудиторияда ортиқча шовқин бўлмаслигини назорат қилади. Дарснинг сифатини ҳам инobatга олиши керак бўлади. Талабалар томонидан айtilган фикрлар, таҳлиллар, мақсадга йўналтирилган бўлиши керак.

“Мулоқот” нинг **олтинчи босқичида** эса ўқитувчи ҳар икки (ёки уч) гуруҳларнинг саволларини, айтган фикрларини умумлаштиради. Шунингдек,



“Мулоқот” технологиясидан фойдаланганда ўқитувчи ўз фикри билан иштирок этган талабаларнинг қарашларини мавзу томон мақсадли йўналтириб боради. Чунки талабалар мавзу чегарасидан чиқиб кетишлари ҳам мумкин. Шунинг учун ўқитувчи талабалар томонидан берилган ҳар бир жавобни йўналтириб боради ва кичик гуруҳлар томонидан мавзу юзасидан берилган жавобларга ўз муносабатини билдиради, тўлдиради ва яқунлайди. **Энг яхши жавоб берган талаба (ёки гуруҳ), мавзунинг ёрита олган талаба (ёки гуруҳ), мавзудан чиқиб кетган талаба (ёки гуруҳ), соф адабий тилда фикр ифодалаган талаба (ёки гуруҳ)** каби жавобларни таҳлил этади. Шунингдек, ҳар бир талабани (*гуруҳни*) баҳолайди, уларнинг берган фикрларини қўйган баҳосига қараб изоҳлайди. Бу эса гуруҳлар ўртасида баҳолашга бўлган норозиликнинг олдини олади.

“Мулоқот” технологиясининг афзаллиги шундаки, ўқитувчи ўтилган мавзунинг мустаҳкамлаш учун ҳам ёки ўтмоқчи бўлган мавзунинг талабаларга эслатиш учун ва назарий маълумотларни бериш олдида ҳам ташкил этиши мумкин. Агар ўтилган мавзу юзасидан ташкил этилса, унда ўқитувчи томонидан мавзу юзасидан берилган назарий билимлар мустаҳкамланади. Агар ўтилмоқчи бўлган мавзу юзасидан фойдаланилса, унда талабаларнинг ўқитувчи томонидан бериладиган назарий маълумотларни тўғри англаб олишларига ёрдам беради. Чунки ўтиладиган мавзу юзасидан улар уйда тайёрланиб келишади ва олган назарий билимларни мустаҳкамлайди. Оғзаки нутқи орқали ўз фикрини адабий тилда ёритиб бериш имкониятига эга бўлишади. Дарс ҳам ўзаро мулоқотга асосланган ҳолда олиб борилади.

Бизнингча, “Мулоқот” технологиясининг асосида **шахс, муаммо, муносабат, савол, жавоб, нутқ, эркинлик назарияси** мавжуд. Демак, **шахс – талаба, муаммо-ўтилиши керак бўлган мавзу, муносабат – эркин фикрлашга ундаш, савол-талабани мавзуга жалб этувчи саволлар, жавоб- талабанинг эркин мулоҳазаси, нутқ- адабий тилда эркин, оғзаки фикрлаш** каби назарий ва амалий қарашлар тизими мавжуд бўлиб, буларнинг барчасида комил инсонни камолга етказиш, тарбиялаш мужассамдир {2: 123}. Шундай экан ўқитувчи ҳар бир дарсини мунозараларга бой тарзда ўтказишга ҳаракат қилиши ва шунга эришиши зарур. Қизиқarli ва эркин мулоҳазаларга бой дарснинг самарадорлиги ҳам кенгрок бўлади ва талабаларнинг фанга бўлган қизиқишлари ортади, оғзаки нутқ кўникмалари шаклланиб боради.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, “Мулоқот” технологиясидан “Нутқ маданияти”, “Ўзбек тилининг амалий услубияти”, “Ўзбек тили” фанларида фойдаланилса, мақсадга мувофиқ бўлади, шунингдек, барча мавзуларни ёритишда самарали натижа беради. Талабаларнинг оғзаки нутқи шаклланади ва ўз фикрини эркин бериш имконияти туғилади. Ҳар қандай мунозараларда тортинмасдан фикр бера олишларига эришилади. **Эркин фикрлаш, эркин қарашлар, эркин нутқ** эгаси келажакда ўз иш фаолиятини мустақил ҳолда эркин олиб бориши, жамиятнинг қайсидир соҳасига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшиши мумкин. Буларнинг барчаси эса таълим соҳасида қилинаётган туб ислохатларнинг натижаларидан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Р.Ишмухамедов, М.Юлдашев. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. Тошкент, 2013 йил.
2. Н.Жиянова, О.Мўминова. Нутқ маданияти, Тошкент, “Наврўз” нашриёти, 2019 йил.
3. Саодат Султонсаидова, Ўлмас Шарипова. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент, 2009 йил.
4. Э.Қиличев, Б.Қиличев. Нутқ маданияти ва услубият асослари. Бухоро, 2002 йил.



ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ КОНЦЕПТОВ В КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Нишанова Гуллола Файзуллаевна,
преподаватель УзГУМЯ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы изучения концептов в когнитивной лингвистике. Отмечается, что языковая картина мира представляет собой не зеркальное отражение действительности, а определённую её интерпретацию.

Ключевые слова: концепт, лингвистика, языковая картина мира, языковые номинации, интерпретация, человек, лексика.

«Языковая картина мира – выработанное многовековым опытом народа и осуществляемое средствами языковых номинаций изображение всего существующего как целостного и многочастного мира. В своём строении и в осмысляемых языком связях своих частей, представляющих; во-первых, человека, его материальную и духовную жизнедеятельность и, во-вторых, всё то, что его окружает: пространство и время, живую и неживую природу, область созданных человеком мифов и социум» [1, 5].

Термин «картина мира» был выдвинут в рамках физики в конце XIX– начале XX в. Одним из первых этот термин стал употреблять В. Герц применительно к физическому миру. Он трактовал это понятие как совокупность внутренних образов внешних объектов, которые отражают существенные свойства объектов, включая минимум лишних отношений, хотя полностью избежать их не удаётся, так как образы создаются умом.

Современные авторы картину мира определяют, как «глобальный образ мира, лежащий в основе мировоззрения человека, то есть выражающий существенные свойства мира в понимании человека в результате его духовной и познавательной деятельности» [6, 21]. Но «мир» следует понимать не только как наглядную реальность, или окружающую человека действительность, а как сознание-реальность в гармоничном симбиозе их единства для человека. Это понимание не согласуется с укоренившимся материалистическим представлением о вторичности сознания. В.Н. Манакин склонен к понятию картины мира, близкому М. Хайдеггеру, который писал: «Что это такое – картина мира? По-видимому, изображение мира. Но что называется тут миром? Что значит картина? Мир выступает космосом, природой. К миру относится и история. И всё-таки даже природа, история и обе они вместе в их подспудном и агрессивном взаимопроникновении не исчерпывают мира» [7, 25].

Картина мира представляет собой центральное понятие концепции человека, выражает специфику его существования. Картина мира есть целостный образ мира, который является результатом всей активности человека. Она возникает у человека в ходе всех его контактов и взаимодействий с внешним миром. Это могут быть и бытовые контакты с миром, и его предметно-практическая активность.

Так как в формировании картины мира принимают участие все стороны психической деятельности человека, начиная с ощущений, представлений и заканчивая мышлением человека, то сложно говорить о каком-либо процессе, связанном с формированием картины мира у человека. Человек созерцает мир, осмысливает его, познаёт, отражает. В результате этих процессов у человека возникает образ мира, или мировидение.

Что касается отражения картины мира в языке, то введения понятия «картины мира» в антропологическую лингвистику позволяет различать два вида влияния человека на язык – влияние психофизиологических и другого рода особенностей человека на конститутивные свойства языка и влияние на язык различных картин мира – религиозно-мифологической, философской, научной, художественной.

Язык непосредственно участвует в двух процессах, связанных с картиной мира. Во-первых, в его недрах формируется языковая картина мира, один из наиболее глубинных слоёв картины мира у человека. Во-вторых, сам язык выражает и эксплицирует другие картины мира человека, которые через посредство специальной лексики входят в язык, привнося в него черты человека, его культуры. При помощи языка опытное знание, полученное отдельными индивидами, превращается в коллективное достояние, коллективный опыт.

Языковая картина мира – это отражённый средствами языка образ сознания – реальности, модель интегрального знания о концептуальной системе представлений, репрезентируемых языком. Языковую картину мира принято отграничивать от концептуальной, или когнитивной модели мира, которая является основой языкового воплощения, словесной концептуализации совокупности знаний человека о мире [5, 46].



Языковую картину мира так же принято интерпретировать как отражение обиходных, обывательских представлений о мире. Идея наивной модели мира состоит в следующем: в каждом естественном языке отражается определённый способ восприятия мира, навязываемый в качестве обязательного всем носителям языка. Ю.Д. Апресян языковую картину мира называет наивной в том смысле, что научные определения и языковые толкования не всегда совпадают по объёму и даже содержанию [1, 357].

Вопрос концептуализации мира языком при помощи слов, очень важен. В своё время Р. Ладо, один из основоположников контрастивной лингвистики, заметил: «Существует иллюзия, свойственная порой даже образованным людям, будто значения одинаковы во всех языках и языки различаются только формой выражения этих значений. По сути же, значения, в которых классифицируется наш опыт, культурно детерминированы, так что они существенно варьируются от культуры к культуре» [4, 34]. Варьируются не только значения, но и состав лексики. Специфика этого варьирования составляет существенную часть специфики языковых картин мира.

При оценке картины мира следует понимать, что она – не отображение мира и не окно в мир, а она является интерпретацией человеком окружающего мира, способом его миропонимания. «Язык – отнюдь не простое зеркало мира, а потому фиксирует не только воспринятое, но и осмысленное, осознанное, интерпретированное человеком» [4, 95]. Это означает, что мир для человека – это не только то, что он воспринял посредством своих органов чувств. Напротив, более или менее значительную часть этого мира составляют субъективные результаты осуществлённой человеком интерпретации воспринятого. Поэтому говорить, что язык есть «зеркало мира», правомерно, однако это зеркало не идеально: оно представляет мир не непосредственно, а в субъективном познавательном преломлении сообщества людей.

Существует много интерпретаций понятия «языковая картина мира». Это обусловлено существующими расхождениями в картинах мира разных языков, так как восприятие окружающего мира зависит от культурно-национальных особенностей носителей конкретного языка. Каждая из картин мира задаёт своё видение языка, поэтому очень важно различать понятия «научной (концептуальной) картины мира» и «языковой картины мира».

Понятие «языковая картина мира» соотносится не только с понятием «картина мира», но и с понятием «концептуальная картина мира». Язык играет активную роль в процессе концептуализации действительности, следовательно, языковая картина мира вербализует концептуальную картину мира. Концептуальная картина мира реализуется посредством языка, а часть ее закрепляется в психике человека через ментальные репрезентации иного типа – образы, схемы, картинки. При этом образы понимаются как нечто абстрактное, некие идеальные объекты, инварианты класса предметов, в которые человек переводит получаемые знания [3, 18].

Концептуальная картина мира представляется шире и богаче языковой; сфера языковой картины мира изображается как подчиненная концептуальной картине мира, внутри которой следует различать разные зоны языкового воздействия. Прежде всего, выделяется зона непосредственного влияния языка на формирующиеся концепты и понятия. С одной стороны, знания и сведения проходят вербальную обработку говорящими и облекаются в языковую форму [2, 4].

Языковая картина мира формируется за счет существования двух указанных зон – зон прямого и опосредованного влияния языка на концептуальную картину мира. Концептуальная и языковая картины мира находятся в тесной взаимосвязи на вербальном этапе.

Литература:

1. Апресян Ю.Д. Избранные труды, том I. – М., 1995. – С. 357.
2. Колшанский Г.В. Объективная картина мира в языке. – М., 1990.
3. Кубрякова Е. С. Краткий словарь когнитивных терминов. – М., 1996.
4. Ладо Р. Лингвистика поверх границ культур. – Вып. XXV. – М., 1989.
5. Манакин В.Н. Сопоставительная лексикология. – К., 2004. – С. 46.
6. Постовалова В. Картина мира в жизнедеятельности мира. – М., 1988.
7. Хайдеггер М. Время картины мира. – М.: Республика, 1993. – С. 25.



ЛЕКСИКОГРАФИЯ ТАРАҚҚИЁТИ МАСАЛАЛАРИ ХУСУСИДА

Рахматов Бекзод

ЎзДЖТУ Умумий тилшунослик
кафедраси ўқитувчиси

“Лексикография” сўзи грекчадан олинган бўлиб, *lexikos* “сўзга, луғатга тааллуқли” ва *grapho* “ёзаман” лексемаларига бориб тақалади. Шунингдек, лексикография “сўзни ёзаман” ёки “луғат ёзаман” деган маънони ҳам англатади. М.В. Авлеева фикрича, лексикография замонавий маънода – лисоний, лингвистик, нолисонийлардан фарқли равишда, қомусий луғатлар тузишнинг назарияси ва амалиёти ҳисобланади. Лексикография фан сифатида комплекс характерга эга, лекин лексикографиянинг ўзига хос томони унинг амалий йўналтирилганлигидир. Луғат макроструктураси лексика танлашни, луғатнинг ҳажми ва характерини, материалнинг жойлашиш тартиби принципларини белгилайди. Амалий лексикографияни назарий ишланмалар базасида турли хилдаги луғатлар тузиш жараёни сифатида белгилаш мумкин. [1, 27-28]

Ingliz adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri Jeyn Ostinning "Pride and Prejudice" romani ham o'zida bir qancha maqsadlarni va axloqiy qadriyatlarni mujassamlashtirgan badiiy asardir. Tanqidchilardan biri Everett Zimmerman o'z maqolasida mazkur romanni Motsart kompozitsiyasi bilan qiyoslashga undab, romandagi axloqiy cheklovlar uni baxtli yechimga olib kelganini ta'kidlaydi [5: B.73]. Asardagi asosiy muammo bu baxtli oila masalasi va unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar. Ichki omillarga biz oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni kiritishimiz mumkin. Tashqi omillar esa, o'z navbatida, do'stlik va qo'shnichilik munosabatlaridir. Asardagi bu ikkala omil qaxramonlarning baxtli yohud baxtsiz bo'lishiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Ostin davrida do'stlik boshqa ijtimoiy munosabatlar kabi qat'iy tartibga ega emasdi. Do'stlik tushunchasi teng huquqlilikka asoslangan bo'lib, ba'zan foydali, ba'zan zararli xususiyatga ega bo'lgan, ba'zilarini axloqiy jihatdan yuksaltirsa, ba'zilarning axloqi uchun xavf tug'dirgan [4: B.228]. Romandagi eng yorqin do'stlik namunalaridan biri bu Charliz Bingli va Fitsuliyam Darsi o'rtasidagi do'stlik munosabatlaridir. Bingli va Darsi dunyoni turli qarashlarda ko'rsalar ham bir-biri bilan yaqin do'stlardir.

Tanqidchilardan biri A. Nikolson Binglini XVIII asr, Darsini esa XIX asr odami sifatida e'tirof etadi [3: B.160]. XVIII asr Angliyada xushmuomalalikning kulminatsion davri bo'lib, noziklik, nafosat va bo'rttirilgan xushmuomalalik hamma narsadan ustun qo'yilgan, hayotning keng doiralari nafis va mo'rt bo'lib qolgan edi. XVIII asrda erkaklardan yoqimli va xushmuomala bo'lish talab qilingan, hatto ular xafa qilishi mumkin bo'lgan narsadan ko'ra yolg'on gapirishi yaxshiroq hisoblangan. XIX asr boshlariga kelib, erkaklardagi qat'iyat urfga kira boshladi, o'zi xoxlagan narsani aytish, uning haqqoniy va to'g'ri ekanini ko'rsatish muhim xususiyatlardan bo'lib qoldi [7]. Bingli o'zida XVIII asr erkaklari xususiyatlarini mujassamlashtirgan bo'lsa, Darsi o'zida XIX asrga xos erkaklar sifatlarini namoyon etadi.

Bingli barchaga birdek yoqadi, insonlarning faqat yaxshi tomonlarini ko'radi. U ko'rgan narsalari va tanishgan insonlarini ma'qullovchi personaj. Raqsga tushish va yangi tanishlar bilan muloqot qilish unga zavq beradi. U hamma bilan tez til topishuvchi muloyim inson. Darsi esa deyarli uning teskarisi. Ammo u juda aqlli o'zining qat'iy qarashlariga ega, rostgo'y, xushomadgo'ylikni yoqtirmaydigan inson. Atrofdagi begona kishilar bilan qo'pol muomalada bo'ladi, ularning o'zi haqida gapirgan gaplari uni qiziqitirmaydi. Darsi Binglining sodda, samimiy, hammaga bo'lgan do'stona munosabatini ardoqlasa, Bingli Darsidagi aql-zakovat va qat'iyatni qadrlaydi. Darsi hayotning ko'p sohalarida Binglining maslahatchisi hisoblanadi. Bingli esa Darsining hayotiga



quvnoqlik baxsh etadi. Ular oʻrtasidagi doʻstlik munosabatlari oʻzoro hurmat va ishonchga asoslangan.

“I would not be fastidious as you are,” cried Mr. Bingley, “for a kingdom! Upon my honour, I never met with so many pleasant girls in my life as I have this evening; and there are several of them you see uncommonly pretty.”

“You are dancing with the only handsome girl in the room,” said Mr. Darcy, looking at the eldest Miss Bennet.

“Oh! She is the most beautiful creature I ever beheld! But there is one of her sisters sitting down just behind you, who is very pretty, and I dare say very agreeable. Do let me ask my partner to introduce you.” [2: P.16].

Meritondagi balda Bingli doʻsti Darsini raqsga tushishga undadi. U doʻstining yolgʻiz oʻtirishini istamadi. Uning koʻngil yozishini, quvnashini xoxladi. Ammo Darsi buning oʻrniga doʻstining xursandchiligidan zavqlanishni afzal koʻrdi. U oʻzidan past tabaqadagi kishilar bilan tanishishni, suhbatlashishni, raqsga tushishni istamasdi va ularning aqlli va farosatli boʻlishiga ishonmasdi. U faqatgina doʻsti haqida qaygʻurgani sabab Nezerfidga tashrif buyurdi. U doʻstining yengil tabiatli ekanini biladi va birorta qiz uning boyligi uchun boshini aylantirib olishidan xavotirda edi. Shu sabab, doim uni kuzatib, kerak boʻlsa nazorat qilib yurardi. Bingli Darsiga ishonadi va oʻz tuygʻulari haqida unga oshkora ayta oladi. Darsi esa yaqin doʻsti boʻlishiga qaramasdan oʻz hissiyotlarini Bingli bilan baham koʻrolmasdi. Bingli bundan xafa boʻlmaydi, aksincha doʻstining aqlli qaror qabul qilishiga ishonadi va bu borada u hech kimning yordamiga muhtoj emas deb hisoblaydi. Darsi Binglining hayotida doʻstidan ham koʻproq uning akasidek vazifani bajaradi, uning hayotini boshqaradi. Bingli uchun toʻgʻri va notoʻgʻri narsalarni Darsi hal qiladi. Biroq, ular oʻrtasidagi ushbu farqlar ham, yoshlari oʻrtasidagi tafovvut ham (chunki Darsi Binglidan besh yosh katta), ularning shaxsiy hayotiga, harakatlariga hurmat bilan qarashlariga, bir-birini qoʻllab quvatlashiga toʻsqinlik qilmaydi. Ularning doʻstligining asosiy sababi, ularning bir xil tabaqadan ekanligi va bir-biriga boʻlgan ishonchidir.

XVIII asrda doʻstlik munosabatlari yoshidan qatʼiy nazar, asosan bir xil tabaqa vakillari oʻrtasida boʻlgan. Shunday doʻstlik munosabatlaridan yana birini biz Elizabet va Sharlotta oʻrtasida koʻrishimiz mumkin. Tanqidchilardan biri J. Dyukvors, ular oʻrtasidagi doʻstlik romandagi koʻplab muommolarni qamrab olishini, doʻstlar oʻrtasidagi qarama-qarshilik ideal va haqiqat dunyosini tasvirlashga xizmat qilishini taʼkidlagan edi [1: B.98]. Ularning aqlliligi, ijtimoiy mavqeyining tengligi ularning doʻstligiga sabab boʻlgan. Ammo ularning duyoqarashi bir-birga zid va bu asta-sekin namoyon boʻladi. Ayniqsa, ularning ikki xil qarashlari ularning oilaga, nikohga boʻlgan munosabatlarida aks etadi. Sharlotta oilasidan olgan tarbiyasi, ayollarning jamiyatdagi mavqeyidan kelib chiqqan holda, u oʻz xavfsizligini, manfaatini baxtidan ustun qoʻyadi. Elizabetning Sharlottaning qarashlariga boʻlgan eʼtirozlari bu oʻz ota-onasining er-xotinlik munosabatlariga qarshiligidir. Sharlotta nikohdagi baxtni tasodifiy [6: B.29] deb hisolaydi. Elizabet uning fikrlariga tanqidiy koʻz bilan qaraydi va kulguga yoʻyadi.

“They always continue to grow sufficiently unlike afterwards to have their share of vexation; and it is better to know as little as possible of the defects of the person with whom you are to pass your life.”

“You make me laugh, Charlotte; but it is not sound. You know it is not sound, and that you would never act in this way yourself.” [2: P.27-28]

Ammo Sharlottaning Kolinzga turmushga chiqishi ular oʻrtasidagi doʻstlikning zaiflashuviga olib keladi. Sabab dugonasining turmushga chiqishida emas, balki uning nikoh haqidagi nuqsonli qarashlarida va Sharlottaning oʻz eʼtiqodlariga sodiq emasligida edi. Toʻydan soʻng Elizabet Sharlottani koʻrishga Xansfordga borinida uning baxtsizligiga guvoh boʻladi va ular oʻrtasidagi ishonchning yoʻqolganiga yana bir sabab boʻladi. Elizabet Sharlottaning aqlsizligidan emas, uning his-tuygʻularini poymol qilishidan xafa boʻladi. Sharlottadan ishonchi soʻngan Elizabet uchun opasi Jeyn eng yaxshi doʻstga aylanadi. Ular ikkalasi ham bir-birlari, oilasi haqida qaygʻurishadi, gʻamxoʻrlik qilishadi. Ular yoshligidanoq sirdosh dugonalar singari katta boʻlishadi. Jeyn biroz tortinchoq, muloyim, xushmuomala, oʻz tuygʻularini koʻrsatmaslikka urinadi. Elizabet esa tezkor va hamma narsani axloqiy meʼyorlarga mos boʻlishini xoxlaydi. Jeyn Bingliga boʻlgan muhabbatini Elizabetga ayta oladi, ammo Elizabet Darsiga boʻlgan tuygʻulari haqida unga gapirolmaydi. Sababi Elizabet oʻz xatti-harakatlaridan uyaladi va opasining koʻngliga ozor berishni xoxlamaydi. Ammo ular bir umrga yaqin doʻst boʻlib qolishadi.



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XVIII asr oxiri XIVasr boshlarida Angliyada do‘stlik munosabatlari asosan bir xil tabaqa vakillari o‘rtasida bo‘lgan. Do‘stlik aloqalarini o‘rnatish uchun do‘stlarning yoshi, xarakterlari va dunyoqarashi muhim ahamiyatga ega bo‘lmagan. Bingli va Darsi, Elizabet va Sharlotta, Elizabet va Jeyn o‘rtasidagi do‘stlik munosabatlari ham ana shu jihatlarni o‘zida namoyon etadi. Darsi Binglidan besh yosh, Sharlotta Elizabetdan yetti yosh, Jeyn Elizabetdan ikki yosh katta. Darsi va Bingli, Elizabet va Jeynning xarakterlari bir-biriga qarama-qarshi bo‘lsada, ularning bir-biriga, tanlagan narsalariga, fikrlariga, shaxsiy hayotiga hurmat bilan qarashi, bir-biriga bo‘lgan ishonchi ular o‘rtasidagi do‘stlik munosabatlarining muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi. Elizabet va Sharlottaning do‘stlik munosabatlarini aql birlashtirib tursada, ular o‘rtasidagi ikki xil dunyoqarash va faqat o‘zlarining fikrlarini to‘g‘ri deb bilishi ular o‘rtasidagi do‘stlik munosabatlarining parchalanishiga olib keldi.

Adabiyotlar

1. Andisha va g‘urur. Jeyn Ostin / Rus tilidan Muhabbat Ismoilova tarjimasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2019. – 404 b.
2. Duckworth Jr., William C. Misreading Jane Austen: Henry James, “Women Writers, and the Friendly Narrator.” - *Persuasions* 21, 1999. – P. 96-105
3. Jane Austen. *Pride and Prejudice*. Novel. Published / Update on: June 24, 2020. – 479 p.
4. Nicolson Adam “Chapter 5 Boldness”. *Size the Fire: Heroism, Duty and the Battle of Trafalgar*. – Harper Collins, 2005. – P. 157-208. ISBN 978-0-06-075361-0
5. Thomason Laura E. “The Dilenmma of friendship in Austen’s Emma.” – *The Eighteenth century*, 2005. – Vol. 56. - № 2. – P. 227-241.
6. Zimmerman Everett. *Nineteenth Century Fiction*, 1968. – Vol. 23. – P. 64-73.
7. www.wikipedia.org.



ИЗУЧЕНИЕ ОБЩИХ ПРИНЦИПОВ ОНОМАСТИКИ В АНГЛИЙСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ

Муйдинова Нигора Усмонжоновна
магистрант I курса, факультет английского
языка направление – Лингвистика,
Ферганский государственный университет,
glodiola_80@mail.ru, +998 97 5572908

Аннотация: Антропонимы каждого языка являются основным средством отражения картины мира, менталитета, национальной культуры и истории народа. Данная статья раскрывает комплексный анализ взаимодействия антропонимов и номинативную ценность имен в английском и русском языках.

Ключевые слова: антропонимы, ономастика, имена собственные, английский и узбекский языки, лексемы, характерная черта, онимия

Начало 60-х гг. прошлого века стало этапом становления науки об именах собственных в её современном статусе, именно с этого времени ономастика становится одной из наиболее активно изучаемых областей языкознания. В процессе научного поиска определяются объект и предмет исследования, ведется активная разработка методологического аппарата ономастической науки. Традиционно ономастика взаимодействует с рядом других языковедческих дисциплин: социолингвистикой, ономасиологией, лингвистикой текста, стилистикой, коммуникативной лингвистикой и др. Разрабатываемые на современном этапе проблемы ономастических исследований опираются на философскую и общелингвистическую традиции (Дж. Милль, Б. Рассел, О. Есперсен, Е. Курилович, П.А. Флоренский, А.Ф. Лосев, А.А. Реформатский, В.В. Виноградов и др.).

В конце XX – начале XXI века проблемное поле ономастической науки расширяется: изучаются названия небесных тел, звезд, исследуются теонимы, этнонимы, названия внутригородских объектов, праздников, фестивалей, газет, описываются названия подводного океанического ландшафта; в поле зрения ученых попадают новые ономастические феномены – названия коммерческих предприятий, магазинов, товаров.

Термин «ономастика» имеет два значения:

- во-первых, им обозначается комплексная наука об именах собственных;
- во-вторых – сами имена собственные (в последнем значении употребляется также термин «онимия»).

Выделение специальных ономастических проблем из общего круга лингвистических обусловлено положением имен собственных в языке. Собственные имена – часть языка, демонстрирующая наиболее парадоксальные ситуации, анализ которых должен способствовать возникновению новых, более углубленных общелингвистических концепций. По мнению А.В. Суперанской, построение общей теории имени собственного – это «выявление общих закономерностей, присущих данной лексической категории, это поиски закономерных свойств имен (онома), независимо от языка, в котором они созданы или употребляются» [74, с. 6].

Ономастика, или онимия, как совокупность имен разных типов, связана со всеми сферами человеческой жизни и деятельности. Везде, где требуется выделение для идентификации или индивидуализации, человек употребляет собственные имена как наиболее удобный способ обозначения объекта.

Собственные имена – это индивидуальные обозначения, данные объектам, имеющим, кроме того, общие (родовые, видовые, подвидовые, а иногда еще и сортовые) наименования.

Основные отличительные признаки собственного имени:

- 1) оно дается индивидуальному объекту, а не классу объектов, имеющих черту, характерную для всех индивидов, входящих в этот класс;
- 2) именуемый с помощью имени собственного объект всегда четко определен, ограничен, очерчен;
- 3) имя не связано непосредственно с понятием и не имеет на уровне языка четкой и однозначной коннотации [74, с. 324].



Эти признаки позволяют квалифицировать слова как онимы или апеллятивы (несобственные имена) даже в тех случаях, когда граница собственных и нарицательных имен размыта и неясна. У собственных имен нет общего значения, так же как у нарицательных нет индивидуального.

По мнению М.И.Гадоевой, «в узбекском языке специальные единицы или маркеры выражаются теми же единицами, что и в английском языке, только с той разницей, что в английском языке главным маркером служит неопределенный артикль, а остальные квалифицируются как специализированные. В узбекском же отсутствие неопределенного артикля лишает этот язык главного маркера, и он имеет так называемые специализированные маркеры»². В узбекском языке, хотя это не является общепринятым, можно выделить своеобразные артикли: препозитивный *бир* и постпозитивный *-и(с)и* как базовые средства выражения категория определенности/неопределенности (КОН). К грамматическим средствам выражения КОН в узбекском языке можно отнести категорию принадлежности. В.И.Болотов выдвинул понятие «назывная силу имени», имея в виду единицу изменения степени определенности имен существительных в речи. При переходе из одного разряда существительных в другой назывная сила имени меняется. Разные степени индивидуализации лиц имеют ярко выраженный социальный характер, процессы индивидуализации по-разному осуществляются в разных языках, разных социальных группах, в пределах разных социальных полей.

Гадоева М. И. Типологическая категория неопределенности и способы её выражения в разносистемных

языках. – Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990. – С. 7.

В английском языке представлена богатая система сигналов антропонимов, которая чрезвычайно актуальна в нормировании социальных полей семьи, администрации, государства. Антропонимия англичан, богато отраженная в художественной литературе, сопровождается такими обязательными сигналами антропонимов, как Mr., Mrs., Miss, Lord, Lady, doctor, counsellor, madam и т.д., употребление которых отражает жесткую социальную структуру общества, большую роль и влияние традиций при образовании комплексной формулы именованного лица. Средством индивидуализации и вместе с тем этикетными формулами вежливости являются принятые у многих народов сигналы антропонимов, наподобие: в английском языке: Sir (сэр), Mam (мэм), Miss (мисс), Madam (мадам); в узбекском языке: жаноб, хоним. Эти лексемы дифференцируют лица по полу, возрасту, общественному положению. Термины родства узбекского языка более активно, чем в английском и русском языках, участвуют в установлении разветвленной системы отношений в социальном поле семьи (отношения между членами одного поколения, отношения старших к младшим, отношения младших к старшим, отношения между мужем и женой и т.д.). Особую роль играет употребление терминов родства как особых постпозитивных частиц (ота, она, ака, ука, синглим, хола и др.). Это своеобразные сигналы антропонимов узбекского языка. В узбекском языке к сигналам антропонимов можно отнести также следующие лексемы и форманты: бегим господин (обращение к мужу); бегойим- бекайим (госпожа, жена или мать бека); бек – 1) титул знатного лица; 2) правитель кого-либо района или города; 3) составная часть имен собственных мужских; -жон 1) душа, дух; 2) употребляется как приставка к именам собственным при обращении к кому-либо для выражения уважения и ласки. 3) душечка, милый, дорогой, мой милый, миленький, душечка; почча – слово, прибавляемое при вежливом и почтительном обращении к мужчинам; пошша – слово, прибавляемое при вежливом и почтительном обращении к женщине или при упоминании о ней, например, келинпошша- невестушка; сайд – потомок пророка Мухаммеда, сайд – составная часть имен собственных мужских; тўра – 1) ист. господин, человек высокого происхождения; 2) уст. сановник, чиновник; 3) прибавляется к именам собственным мужским при почтительном или ласковом обращении; -хон 1) ист. хан, правитель; ханский; 2) уст. титул (присоединяемый к именам собственным мужским); 3) присоединяется к мужским и женским именам, придавая оттенок уважения; хўжа – 1) уст. хозяин, владелец; 2) рел. ходжа (потомок одного из четырёх халифов); 3) присоединяется к именам собственным мужским, придавая оттенок уважения; хўжайин – хозяин (часто используется женой как обозначение мужа); хожи – 1) ходжи (мусульманин, совершивший паломничество в Мекку и Медину); 2) хаджи – имя



собст. мужское¹.

Самая характерная черта именника узбеков, как и других тюркоязычных народов, – многоименность, что подтверждается данными словаря Э.А.Бегматова «Ўзбек исмлари маъноси (изоҳли луғат)» (2006 г.), в котором зафиксировано 14 600 личных имен².

1. По сравнению с европейскими личными именами, для узбекского именника характерна низкая концентрация имен, а также своеобразное явление антропонимических серий внутри семьи. Для современного узбекского языка характерно сокращение личных имен в разговорной речи, например, *Мухаммад – Мамад, Нодира – Ноди, Алишер – Алиш, Бахтиёр – Бахти, Баха*.

Употребления форманта -ой (от ой "луна") обычно для подчеркивания женскости при "мужском" имени женщины: Эркиной, Шухратой или как уменьшительного: Каромой от имени Каромат. Экспрессия в данном случае имеет источником не уменьшительность, а именно подчеркивание женского начала

В английском языке наиболее распространенными формулами обращения являются формулы Mr.+фамилия либо Mrs.+фамилия. Расширенная формула именования Mr. + имя + фамилия может употребляться в дифференцирующей функции. Обращение только по имени возможно только с согласия именуемого, как знак дружеского общения и замена дифференциации по линии «ты» и «вы», потребление терминов родства не принято.

Заключение

Функциональный потенциал антропонимов не исчерпывается только номинацией лиц, а играет важную роль в структурировании социальных полей английского и узбекского языков. Максимальная сила индивидуализации приходится на именование лиц, причем важнейшим средством индивидуализации здесь являются имена собственные. Антропонимические формулы двух языков, сложившиеся в течение веков, во многом определяют структуру социальных полей, что во многом предопределяется сложившейся системой сигналов антропонимов.

References

1. Абдиев Э. Ўзбек халқ антропонимларнинг лексик-семантик хусусиятлари // Ономастика Узбекистана. Тез. докл. Респ. II научно-практ. конф. – Қарши, 1989. – 106-107 б.
2. Жураева И.А. Имена собственные и нарицательные в функции индивидуализации лиц // Преподавание языка и литературы. – Ташкент, 2004. – № 1. – С. 42-49 .
3. Болотов В.И. Теория имен собственных. –Т.: НУУз, 2003. – 98 с.
4. Суперанская, А.В. Общая теория имени собственного / А.В. Суперанская. – 2-е изд., испр. – М. : Изд-во ЛКИ, 2007. – 368 с.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 80000 дан ортик Сўз ва сўз бирикмаси / Таҳрир хайъати: Э. Бегматов, А. Мадвалиев, Н. Махкамов... – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедия, 2006-2008.

² Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси (изоҳли луғат). 14 600 исмлар изоҳи. 2-нашри. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси (луғат), 2007. – 608 с.



XX АСРНИНГ 30-ЙИЛЛАРИ АДАБИЙ ТАНҚИДЧИЛИГИДА БАҲС ЖАНРИНИНГ ЎРНИ

М.Худойкулова,
БухДУ ўзбек тили ва
адабиёти каедраси тадқиқотчиси

Аннотация. Мақолада ўзбек танқидчилигининг жанрий тизимида турувчи баҳс жанрининг ўзига хос хусусиятлари, тараққиёти ҳақида фикр юритилади. Баҳснинг генезиси фольклор ва мумтоз адабиётга бориб тақалаши, XX асрнинг 20-30 йилларидаги тараққиёти тадқиқ этилган. Шу билан бирга баҳс жанрининг адабий жараёнда, адабиёт ривожидида тутган ўрни белгиланган.

Калит сўзлар: адабий танқид, жанрлар, баҳс, мунозара, тортишув, аския, лоф, “Сароб”, танқидчи позицияси

Адабий баҳслар адабиётдаги муҳим бир муаммони кўтариб чиқиши, бошқа мунаққид ва олимларнинг шу масалага диққатини тортиши, китобхоннинг илмий-эстетик тафаккурини ўстиришга кўмаклашиши жиҳатидан ҳам ўрганишга лойиқ. Генезиси фольклор [6], мумтоз адабиётга [12] бориб тақаладиган баҳс XX асрга келиб фаоллашди. Бу жанр тадқиқот, илмий муаммоли мақолаларга нисбатан матбуотда нофаолроқ, уларнинг кўпайиши эса илмий муаммоли тадқиқотлар сифатини янада орттиради. Баҳс XX асрнинг 20-йилларидан тараққий эта борди [7]. 30-йилларга келиб адабий баҳслар кучайди.

XX асрнинг 20-йиллари охирларидан бошлаб бадиий асарга санъат, бадиият нуқтаи назаридан эмас, балки синфий нуқтаи назардан баҳо бериш адабий танқидчиликнинг, шу билан бирга тақриз, мақолаларнинг бош вазифасига айлана борди. Бундай ҳолатни ўтган асрнинг 30-80 йилларидаги танқидчиликда ҳам кузатиш мумкин. Ю.Султонов ва Ҳ.Мусаевларнинг А.Қаҳҳорнинг “Сароб” романига бағишланган мақолаларида бу хусусият яққол сезилади. Романга бағишланган баҳсда ёзувчи ва танқидчилардан Шокир Сулаймон, Уйғун, Ю.Султонов, Ҳ.Ёкубов, Р.Мажидий, Ҳ.Расул, Н.Охундий, Ҳ.Мусаев ва бошқалар фаол иштирок этишган. Баҳс, асосан, асардаги салбий ва ижобий қаҳрамонларнинг ўзаро муносабати, салбий қаҳрамонлар сингари ижобий қаҳрамонларнинг ҳам тўлақонли акс этирилиши лозимлиги, асар ғояси ва умуман, ўзи тузумга мосми, зарарлими, йўқми, деган масалалар атрофида олиб борилган [7].

“Сароб” романи устидаги илк баҳслар хусусида. Баҳснинг ўзига хос хусусиятларидан бири шуки, унда кўтарилган муаммога бирдан ортиқ ёки бир неча ўнлаб адабиётшунос, олимлар фикр билдириши мумкин. Уларнинг баъзи бирлари, табиийки, бир позицияда туриб, бир фикрни, бошқалари ундан фарқли фикрни ҳимоя қилиши мумкин. Шу жиҳатдан мақолада ўзбек адабиётшунослигида А.Қаҳҳорнинг “Сароб” романи устида бўлиб ўтган баҳс, мунозаралар эътиборни тортади. Турлича қараш, нуқтаи назарларга бой бу баҳс бир қанча вақт давом этган. Китобхонда қандайдир даражада мулоҳаза уйғотишининг ўзи баҳс характеридаги мақоланинг маълум аҳамиятга эга эканлигини кўрсатади.

“Ҳатто турмушдаги реакцион кучлар тасвирланганда ҳам уларнинг маълум прогрессив кучлар қаршисида қақшаётгани билиниб турсин, енгилмайтурган кучлар кўриниб турсин. Ўшандагина турмушни тўғри ва тўла англай оламиз”, - дейди баҳсда Ю.Султонов. Шуниси эътиборлики, ижобий қаҳрамонлар фаолияти асарда янада чуқурроқ тасвирланиши лозим эди, деган бу фикр мунозарада сўзга чиққан деярли барча баҳс иштирокчилари томонидан қўллаб-қувватланди. Лекин бу фикрни талқин этиш масаласида ёзувчига талаблар қўйилиши нуқтаи назаридан тўғри фикрлар билан бир қаторда янглиш қарашлар ҳам илгари сурилди. Масалан, Ҳ.Мусаев ёзувчидан “мамлакатимизнинг иқтисодий ва сиёсий тараққиётини кўрсатиш”ни талаб қилади. Унинг шу каби бир қанча хато фикрлари аслида романга бағишланган тақризида айтилган қарашларнинг давоми эди. А.Қаҳҳор ўз қарашларини Саидий тилидан айттиради, яъни Саидийнинг фикрлари бу, аслида, ёзувчининг фикрларидир, - деган эди у мақоласида. У адибни ижобий қаҳрамонлар тасвирига кам эътибор берганликда айблайди [7].

Бироқ, шуниси эътиборлики, бу хато фикрлар баҳс қатнашчилари томонидан кескин қаршилиқка учради. Масалан, А.Қаҳҳор Саидийга ачинади деган қарашларни ҳам, ёзувчи



билан қаҳрамон ўртасига тенглик аломати қўйилувчи фикрларни ҳам Ҳ.Ёкубов кескин қоралади. Саидий образини тўғри англаш учун,- дейди Ҳ.Ёкубов, асарнинг бош ғоясини аниқ белгилаб олиш ва бош қаҳрамон билан бу ғоянинг алоқадорлиги масаласини тўғри белгилаш лозим. Олимнинг фикрлари баҳс қатнашчиларига тўғри йўналиш беришда принципиал аҳамиятга эга бўлди, шу билан бирга бугунги кун нуқтаи назаридан қаралса, Ҳ.Ёкубов қарашларида ҳам ўша замон мафкурасининг таъсири сезилиб туради.

Баҳсда сўзга чиққан Н.Охундий ҳам роман моҳиятини баҳолашда тўғри позицияда бўлади, уни Р.Мажидий, Уйғун кабилар қўллаб-қувватлайди. Бироқ унинг мулоҳазаларида ҳам шўро сиёсатининг таъсири яққол кўриниб туради.

Баҳсда иштирок этган бошқа нотиклар романнинг асосий ғояси билан бу ғояни ифодаловчи бош қаҳрамонлар ўртасидаги ҳеч қандай номувофиқлик йўқ, бунинг устига асарда ижобий образлар ҳам мавжуд, аммо улар салбий образларга нисбатан бирмунча бўш чиққан, деган фикрларни илгари сурадилар. Масалан, Р.Мажидий бунинг баъзи бир сабабларини изоҳлаб беришга ҳаракат қилган. Ёзувчи ўз олдига асосан салбий типларни фож этиш вазифасини қўйгани учун шулар муҳигига чуқур кира олган, ижобий қаҳрамонлар муҳтиини етарли даражада ўргана олмаган ва шунга кўра уни яхши билмаслиги табиий, бу нарса романда ҳам акс этган дейди. Кўринадики, Р.Мажидий ҳам асарга синфийлик нуқтаи назаридан баҳо беришга ҳаракат қилган. У роман жанри талабларини ҳисобга олмаслик натижасида хато фикрларга йўл қўяди.[7, 181].

Баҳсга муносабат билдирган шоир Уйғун ҳам замонасозликка йўл қўйиб, романга хато баҳо берган.

Уч кун давом этган мунозаранинг учинчи куни “Сароб”нинг ўзига хослиги тан олиниб, одатдаги романлардан эмаслигига тўла ишон ҳосил қилинади. Унга одатдаги романлар андозаси билан ёндашиш нотўғри йўл деб топилади. Баҳсга яқун ясаган С.Азимов фикрлари ҳам адабиётшунослигимиз учун катта аҳамиятга эга бўлди. “Қандай типни марказий фигурага олиш ёзувчининг ихтиёрида, ундан қаҳрамонлар. албатта, ижобий ёки салбий бўлишини талаб қилиб бўлмайди, чунки бундай қилиш “адабий асарни маълум бир рамкага солиш” билан баробар, дейди у. Адабий асарларни маълум бир рамкага солиш, шунинг учун адабий асарларда берилган нарса, албатта ижобий ёки салбий тип жуда кўзга кўринган герой бўлиши лозим эмас..”- деб хулоса чиқаради. Ва ўз нутқини “Сароб” ҳеч қандай зарарли эмас, деган жуда тўғри хулоса билан яқунлайди.

Кўринадики, баҳсларда иштирок этганларнинг кўпчилиги асарни, унинг муаллифини қанчалик айблашмасин, мунозара якунида асарга тўғри баҳо берилади. Бу эса ўзбек адабий танқидчилиги XX асрнинг ўттизинчи йиллари охирларида савия эжиҳатидан яна бир поғонага кўтарилган олганини кўрсатади. Бунда “Сароб” романи ўзига хос муҳим бир туртки вазифасини ўтайди.

Баҳс-мунозара кейинги даврларда ҳам давом этди. Унинг бошқа жанрлардан фарқи шундаки, унда кўтарилган муаммога бирдан ортиқ ёки бир неча ўнлаб адабиётшунос, олимлар фикр билдириши мумкин. Уларнинг баъзи бирлари, табиийки, бир позицияда туриб, бир фикрни, бошқалари ундан фарқли фикрни ҳимоя қилиши мумкин. Ш.Холмирзаевнинг “Адабиёт ўладими?” мақоласи [9] баҳс характерида бўлиб, унга кўпчилик ўз муносабатини билдирди. Турлича қараш, нуқтаи назарларга бой бу баҳс бир қанча вақт давом этди. Китобхонда қандайдир даражада мулоҳаза уйғотишининг ўзи баҳс характеридаги мақоланинг маълум аҳамиятга эга эканлигини кўрсатади.

Адабий-танқидий баҳсларда ҳам танқидчилик истеъдоди бошқалар кўрмаган нарсани кўришда кўринади, шу билан бирга танқидчининг диққати нимага қаратилиши, танқидчи талантининг йўналиши, мақсади масаласи ҳам ниҳоятда муҳим. Кўлига қалам олган танқидчи нима деяётганини аниқ билиши, китобхонни чалғитмаслиги лозим. Танқидий асар ҳам ёзувчига, ҳам китобхонга, ҳам адабиёт ҳақидаги фанга хизмат этиши лозим. Шу жиҳатдан қараганда, адабий баҳслар ҳам ана шундай уч томонлама таъсир кучига, катта аҳамиятга эга эканлиги намоён бўлади. Кейинги йилларда турли мавзудаги баҳсларнинг кўпайиши бу жанрга эътиборнинг ошаётгани ва олимларнинг адабиётнинг тадқиқ этилмаган ёки баҳсли муаммоларини очишга интилаётганларининг белгисидир.



Адабиётлар:

1. Ахмедова Ш.Н. Ўзбек адабий танқидчилиги жанрлари. Тошкент. "Фан". 2008. 156 б.
2. Axmedova Sh.N., Kadirova N.S. Style and Skill: Critic's Artistic Ability // International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – India, 2019. №8/9S3, P.1245-1250.
4. Форобий Абу Наср. Шеър санъати. – Тошкент: Адабиёт санъат, 1979. – 38 б.
6. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Тошкент. "Ўқитувчи". 234 б.
7. Ўзбек совет адабий танқиди тарихи. Тошкент. 1-том. Тошкент. "Фан".1987. 345 б.
9. Холмирзаев Ш.Адабиёт ўладими? / Тафаккур. 1998, № 2. 71-82 бетлар.
10. Xudoyqulova M. The development of a controversial article in uzbek criticism. ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN:2249-7137 Vol.10 Issue 6, June 2020. Impact Factor: SJIF2020=7.13.
11. Qodirova N.S. Some characteristic features, skills and style of the literary critic // Web of Scholar. – Poland, 2018. №5(2). P. 33-37.
12. Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. Тошкент. "Фан". 1959. 346 б.



КЎЧМАС МУЛК БОЗОРИНИНГ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Мардонова Мохидил Отабек қизи
СамДАҚИ “Кўчмас мулкни
бахолаш ва бошқариш” магистр

Мақолада кўчмас мулк бозорининг асосий хусусиятлари, Кўчмас мулк бозорининг иқтисодий сектори сифатидаги муҳимлиги ҳамда Инфратузилманинг даражалари келтирилган.

Мамлакатда нормал бозор муносабатларини ривожлантиришнинг асосий кўрсаткичларидан бири – бозорнинг ҳолати ҳисобланади, чунки у ҳар қандай миллий иқтисодийнинг негизи саналади. Кўчмас мулк – миллий бойликнинг муҳим қисмидир, у дунё бойлигининг 50% ни ташкил қилади.

Кўчмас мулк бозорисиз умуман бозор бўлиши мумкин эмас, чунки, меҳнат, капитал, товар ва хизматлар бозорлари уставларида кўрсатилган фаолиятларини юритишлари учун бирон бир бинога эга бўлишлари ёки уни ижарага олишлари зарур. Кўчмас мулк бозорининг иқтисодий сектори сифатидаги муҳим аҳамияти унинг ЯММ даги юқори улуши, давлат ва маҳаллий мулкни ижарага бериш ва бирламчи сотувдан, бюджетга тушадиган юқори даражадаги даромад, кўчмас мулк билан боғлиқ операциялардан бюджетга тушадиган солиқ ва йиғимлар орқали белгиланади.

Кўчмас мулк бозорининг ривожланиши унинг тадқиқот ва таҳлиliga асосланган инвестицион қарорлар қабул қилишга боғлиқ. Бир томондан кўчмас мулк соҳасида ишлайдиган мутахассислар, айниқса, аналитиклар кўчмас мулк бозорида қийинчиликларга, кўчмас мулк бозорида иқтисодий мутаносибликларнинг тўғри ва бир маъноли формализацияси имкони йўқлигига дуч келадилар. Бошқа томондан эса, кўчмас мулк бозорини таҳлил қилиш назариясининг тўлиқ ишлаб чиқилмаганлиги ва бошқа бозорларда қўлланиладиган (бошқа бозор муҳитида ишлаб чиқилган) технологияларни кўчириш, жиддий хатоликларга ва ҳаттоки, кўчмас мулк бозоридаги инқирозга олиб келиши мумкин.

Кўчмас мулк бозори – бу барча кўчмас мулк сотувчилари ва харидорларининг айна вақтда мавжуд бўлган барча талаб ва таклифлари орасидаги ўзаро боғлиқлик юзага келадиган ва кўчмас мулк билан боғлиқ барча жорий операциялар йиғиндиси амалга ошириладиган иқтисодий-ҳуқуқий ҳудуд».¹

«Бозор – бу харидорлар ёки талабни тақдим этувчилар ва сотувчилар ёки товар ва хизматни етказиб берувчилар орасидаги мулоқотни амалга оширадиган институт. Сотувчи ва харидорларнинг истаклари ва қарорлари натижаси товар, хизмат ёки ресурслар нархи тизимини ҳосил қилади».²

«Кўчмас мулк бозори ўзида кўчмас мулк объектларига капитал киритиш соҳаси ва кўчмас мулк билан боғлиқ операцияларда юзага келадиган иқтисодий муносабатлар тизимини акс эттиради. Бу муносабатлар инвесторлар ўртасида кўчмас мулкни олди-сотди жараёнида, ипотека, кўчмас мулк объектларини ижарага бериш жараёнларида юзага келади».³

Юқорида келтирилган барча тавсифлар кўчмас мулк объектларини муомаласи молиявий капитални жалб қилиш, турли ресурслар ва меҳнатдан фойдаланиш билан боғлиқ бўлган товар категориясига киритишни назарда тутди, ва кўчмас мулк объектларини қайта тақсимлашга йўналтиради, яъни, аввал яратилган кўчмас мулк объектларига оборот ҳуқуқини таъминлайди.

Кўчмас мулк объектларининг товар сифатида уч хил моҳиятидан (моддий, ҳуқуқий, иқтисодий) келиб чиқиб, ушбу таърифларнинг ҳаммасини янги кўчмас мулк объектларининг барпо этилиши ва мавжуд объектлардан фойдаланиш билан белгилаб берилган муносабатлар мажмуаси билан тўлдириш лозим.

«Кўчмас мулк бозори воситасида мулкка эгаллик ҳуқуқлари ва у билан боғлиқ бўлган манфаатлар ўтказиладиган, нархлар белгиланадиган ва ердан фойдаланишнинг турли

¹ Волков Д. Л. Экономика и финансы недвижимости. – СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского университета, 1999. 32 бет.

² Волочков Н. Г. Справочник по недвижимости, – М.: ИНФРА-М, 1996. 16 бет.

³ Балабанов И. Т. Операции с недвижимостью в России. – М.: Финансы и статистика, 1996. 10 с.



рақобат қилувчи вариантлари орасида майдон тақсимланадиган механизмларнинг маълум тўпламидан иборат»¹ Шундай қилиб, *кўчмас мулк бозори фаолиятининг асосий жараёнлари – бу кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқларнинг ривожланиши (яратилиши), бошқаруви (фойдаланиши) ва айрбошланишидир.*

• *Миллий кўчмас мулк бозори* – бир-Халқ хўжалиги – макродаража (федерал кўчмас мулк бозорининг даражаси);

• Минтақавий (алоҳида минтақанинг кўчмас мулк бозори);

• Маҳаллий (кўчмас мулк бозорининг алоҳида соҳаси);

• Объект (алоҳида кўчмас мулк объекти).

Кўчмас мулк бозорининг инфратузилмаси шаклланиши жараёнида тўртта ёндашув ажралиб чиққан:

• муҳандислик-технологик (касбий иш юритувчилар нуқтаи назаридан);

• трансакцион (психологик-хулқ ёндашуви);

• бозор ва макробозор – бозор иқтисодиёти назарияси мутахассисларининг нуқтаи назаридан туриб қаралади;

• ижтимоий (ижтимоий арбоблар нуқтаи назаридан).

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг “Инвестиция фаолияти тўғрисида”ги Қонун 24 декабр 1998 й

2. 5.Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Тошкент.,2017.

3. .Мирзиёев Ш.М. „Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгилашиш сари”, Тошкент .,2017

4. .Мирзиёев Ш.М. „Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз”,Тошкент.,2017

5. Кравченко А.Н. Ёдгоров В.У. Законодательные и нормативно-правовые основы оценочной деятельности. Учебное пособие. Ташкент. ТАСИ. 2014. 196с.

6. Н.Ж.Туйчиев, Г.А.Нигманова. Мулкни баҳолаш. Ўқув қўлланма. ТАҚИ-2012й.

7. Алимов Р.Х., Беркинов Б.Б., Кравченко А.Н., Ходиев Б.Ю. Кўчмасмулкни баҳолаш. Ўқув қўлланма. Тошкент: "Фан" , 2005. -231б.

8. .Алимов Р, Беркинов Б ва бошқалар “Кўчмас мулкни баҳолаш” 2005 й 256 б.

9. .Ганиев К.Б. ва бошқалар “Кўчмас мулкни баҳолаш” Т.: 2018й 129б.

10. . Ганиев К.Б. ва бошқалар “ Кўчмас мулк иқтисодиёти”,Т.: 2010 й.

¹ Дж. Фридман, Н Ордуэй Анализ и оценка приносящей доход недвижимости. М.1195



ЎЗБЕК ТИЛИДА ФОРСЧА-ТОЖИКЧА АФФИКСЛАРНИНГ ЎРНИ

Алимова Зарифа Вахобовна,
ФарДУ катта ўқитувчиси, ф.ф.ф.доктори (PhD),
Абдикундузова Садоқат, 1 курс магистранти

Аннотация: Ушбу мақолада ўзбек тилига форс-тожик тилидан ўзлашган сўзлар, форс-тожик ўзлашмалари кириб келиши ўзбек тили сўз ясалишига ҳам ўз таъсирини кўрсатиши, аффикс, суффикс ва префикслар ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: Ўзлашма, сўз ясалиши, морфема, аффиксал тизим, сўз ясовчи кўшимча, аффикс, префикс ва суффикс, полисемантик ва полуфункционаллик.

Ўзбек тили лексик қатламига янги сўзлар, форсий изофалар, иборалар, сўз ясовчи кўшимчалар ҳам кириб келди. Бундай сўзлар, аввало, мавҳум, кейинчалик уларнинг кўпчилиги ўз қатлам сўзлари каби тилимизга мослашиб, ажратиб бўлмас ҳолатда ўринлашди.

Форс-тожик ўзлашмалари кириб келиши ўзбек тили сўз ясалишига ҳам ўз таъсирини кўрсатди. Проф. А. Ғ. Ғуломов шундай ёзади: “Сўз ясалиши тилшунослик фанининг айрим бир бўлими, мустақил лингвистик соҳа, тармоқ бўлиб, у сўзларнинг ясалишини, янги сўз ҳосил қилишнинг қонун-қоидаларини, моделларини, воситаларини, шу билан боғлиқ ҳолда, сўзларнинг структурасини текширади. Демак, бу соҳанинг объекти сўздир. Тилшуносликнинг бу бўлимида, биринчидан, янги сўзларнинг қандай пайдо бўлганлиги текширилади. Текширишнинг бу икки томони ўзаро боғлиқ ҳодисалардан янги сўз мавжуд моделга қараб, шу асосда ҳосил қилинади. Сўз яшашнинг турли йўллари билан ҳосил қилинган сўзларни ўз ичига олиши ҳам унинг асосий характерини очиб беради:бу асос тилнинг лексик, фонетик ва грамматик воситаларидир”[Ўзбек тили грамматикаси, 1975, 7-8].

Тилнинг луғавий, фразем ва бошқа сатҳ ҳодисаларида бўлганидек, морфем сатҳ ва унинг бирликлари тизимига хос шакл ва маъно номутаносиблигида ҳам парадигматик ва синтагматик деб аталувчи ҳар икки тур бир хил маромда амал қилади¹.

Ўзбек тили аффиксал тизимидаги жуда кўп морфемалар кўп маънолилиқ хусусиятига эга. Бунда айни бир товуш таркибли аффиксал морфема икки ёки ундан ортиқ маъноли луғавий-маъновий, луғавий-морфологик лисоний бирликларнинг ясалишида иштирок этиб, кўп маъноли (полисемантик ва полифункционаллик) бирлик характерини касб этади. Кўп маъноли аффикслар ҳам сўз ясалиши, ҳам шакл ясалиши тизимида мавжуд. Сўз ясалиши тизимида улар луғавий маънода фарқ қилувчи сўзлар ясава, шакл ясалиши тизимида грамматик қиймати ҳар хил морфологик шакллар ясайди. Аффикс морфемаларнинг кўп маънолилиги улар қўшилган ўзак морфеманинг маъносидаги фарқ билан белгиланади².

Сўз ясовчи кўшимчалар, асосан, ўзак ва негиздан кейин қўшилади. Ўзакдан олдин қўшилиувчи олд ясамалар ўзбек тили учун хос эмас. Бироқ сифат туркумига мансуб бир қатор сўзларнинг ясалишида олд кўшимчалар иштирок этади. Масалан, **бадавлат**, **серҳосил**, **ноҳақ** каби. Морфологик усулда сўз ясалишдаги муҳим шартлардан бири сўз билан янги ясама орасида боғлиқлик бўлишдир. Масалан, **ошпаз**, **гулзор** сўзларидаги ўзак ва ясовчи кўшимчалар орқали ҳосил бўлган қисмлар: **ош-ошпаз**, **гул-гулзор** маъно жиҳатидан бир-бирига боғлиқдир.

Форс-тожик тилларидан ўзбек тилига бир қатор префикс ва суффикслар ҳам ўзлашган: префикслар – “бе-”, “ба-”, “но-”, “ҳам-”, “бар-“, “кам-”, “хуш-“, суффикслар – “-кор”, “-зор”, “- хўр”, “-парвар”, “-боп”, “-боз”, “-дўз”, “-намо”, “-паз”, “-фуруш” ва бошқалар. Улар дастлаб форс-тожик сўзлари таркибида қўлланган, кейинчалик ўзбек тилининг сўз ясовчи аффикслари қаторидан ўрин олиб, янги сўзларнинг ясалишида иштирок этган, шу

¹ Бердиалиев А., Турдибоев Т. Тилшунослик масалалари. Ўзбек ва тожик тилшунослигининг долзарб масалалари. –Хўжанд, “Нури маърифат”, 2020. –Б. 12.

² Абдиев М. Ўзбек тилшунослигида сўз ясалиши масалаларининг ёритилишига қисқача экскурс. Тилшунослик масалалари. Ўзбек ва тожик тилшунослигининг долзарб масалалари. –Хўжанд, “Нури маърифат”, 2020. –Б. 15.



йўл билан ўзбек тили лексикасини янада бойитган¹.

Форсча-тожикча аффиксларни қуйидагича гуруҳлаш мумкин:

а) от ясовчи аффикслар: **-бон** (*бозорбон, дарвозабон*), **-боз** (*қиличбоз, буйруқбоз*), **-гар** (*жодугар, ҳолвагар*), **-гоҳ** (*жанггоҳ, намоишигоҳ*), **-зор** (*янтоқзор, қамишзор*), **-дор** (*заминдор, чорвадор*), **-дўз** (*телтақдўз, қалпоқдўз*), **-каш** (*ўтинкаш, кемакаш*), **-кор** (*бедакор, жўхорикор*), **-паз** (*балиқпаз, шакарпаз*), **-соз** (*чиннисоз, ойнасоз*), **-фуруш** (*ўрикфуруш, қатиқфуруш*), **-шунос** (*уруғшунос, ўлкашунос*), **-хон** (*дуохон, қиссахон*);

б) сифат ясовчи аффикслар: **ба-** (*бадавлат, бамаъни*), **бад-** (*бадният, баджаҳл*), **-дор** (*холдор, рангдор*), **сер-** (*серқуёш, серёмғир*), **-манд** (*дардманд, орзуманд*);

в) равиш ясовчи аффикслар: **-она** (*мардона, дадилона*), **-намо** (*ранжиганнамо, телбанамо*).

Манбаларда келтирилишича, префикс характеридаги аффикс морфемаларнинг ўзбек тилига ўзлашиши икки йўсинда амалга ошган:

а) ясама сўз таркибида дериват орқали ўзлашган;

б) аналогия қонунияти таъсирида яқка ҳолда ўзлашиб, ўзбекча луғавий бирликларга қўшилган: *нотинч, ноўрин, беши* каби².

А.Бердиалиев тўғри таъкидлаганидек, форс-тожик аффикслари ўзбек тилига дастлаб ўзлашган сўзлар таркибида кириб келган. Улар кейинчалик ўзбек тилининг ўз лисоний бирликлари мақомида расмийлашган³.

Э.Бегматов таъкидлаганидек, сўз бошида келувчи *хуш-, ҳам-, кам-, умум-* сингари, сўз охирида келувчи *-хона, -нома, -вачча//бачча* каби элементларни, бир қарашда, сўз ясовчилар, яъни сўз ясовчи морфемалар қаторига киритиш ўринсиздек туюлади. Чунки бу сўз ўзбек тилида мустақил сўз сифатида қўлланилади⁴.

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш жоизки, ўзбек тили луғат таркибининг шаклланишида ва ривожланишида форс-тожик тилидан ўтган лексик бирликлардан ташқари аффиксал бирликлар, префикс, аффикс, префиксоид ва аффиксоидларнинг ҳам роли каттадир. Улар ўзбек тилининг сўз ясаши жараёнида фаол иштирок этади.

Адабиётлар:

1. Абдиев М. Ўзбек тилшунослигида сўз ясаши масалаларининг ёритилишига қисқача экскурс. Тилшунослик масалалари. Ўзбек ва тожик тилшунослигининг долзарб масалалари. –Хўжанд, “Нури маърифат”, 2020.

2. Бердиалиев А., Турдибоев Т. Тилшунослик масалалари. Ўзбек ва тожик тилшунослигининг долзарб масалалари. –Хўжанд, “Нури маърифат”, 2020.

3. Бердиалиев А., Зокиров М. Ўзбек ва тожик лисоний алоқаси асослари. –Фарғона, 2018.

4. Бердиалиев А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфемика. Сўз ясаши. Морфонология. –Хўжанд, 2015.

5. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1985.

6. Лексикология ва фразеология фанидан маърузалар матни. Нукус давлат педагогика институти, 2012.

¹ Лексикология ва фразеология фанидан маърузалар матни. Нукус давлат педагогика институти, 2012. –Б.45.

² Бердиалиев А., Зокиров М. Ўзбек ва тожик лисоний алоқаси асослари. –Фарғона, 2018. –Б.61.

³ Бердиалиев А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфемика. Сўз ясаши. Морфонология. –Хўжанд, 2015. –Б.32.

⁴ Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1985. –Б.169.

TADQIQOT.UZ
ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН

**«ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ
ТЕХНОЛОГИЯЛАР: ФИЛОЛОГИЯ ВА
ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ
ОМИЛЛАРИ»**

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаххих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Файзиев Шахрам Фармонович

Контакт редакций журналлов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улицв Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr. 1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000